S.A.Shediyda, tushunchalarni o‘zlashtirish “bosqichlari” – jonli idrok (hissiy bilish), boyitilgan kuzatish – bir qator tushunchalar shakllanishining dastlabki nuqtasi; 2. Tahlil va qiyoslash yo‘li orqali hodisalarning mazmuniga olib kiruvchi aqliy jarayondagi predmet va hodislarning muhim va umumiy belgilariga ajratish; 3. Tushunchani aniqlash va muhim belgilarini sintetik jihatdan ko‘rib chiqish; 4. Mashqlar va amaliy tekshirish orqali tushunchalarni kengaytirish va chuqurlashtirish. Ularni ma’lum tushunchalar tizimiga kiritish.

Tushuncha shakllanishining muhim sharti sifatida o‘quvchilar bilimida deduktiv bilan induktiv xulosa chiqarishning o‘zaro aloqadorligini ta’minlash ularning o‘quv faoliyati va bilimlarni o‘zlashtirishga ijodiy xususiyatga egaligiga bog‘liqdir. Tushunchalarni o‘zlashtirishning fiziologik va psixologik xususiyatlarini egallash olimlarning diqqat markazida bo‘lgan.

S.V.Korjakovaning tadqiqoti pedagogik OTO‘ ta’limi talabalarida ilmiy tushunchalarni shakllantirishga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu izlanish yakuniga ko‘ra, ularni shakllantirish murakkab jarayon ekanligi, ilmiy tushunchalarning muvaffaqiyatli shakllanishi didaktik shart-sharoitlari tushunchalarni tarkib toptirishning nazariy asosi va usullariga; ularni o‘zlashtirishda o‘qituvchi tomonidan o‘rgatuvchilik, rag‘batlantiruvchilik, tashkilotchilik, nazoratchilik va korreksiyalovchi faoliyati bilan bog‘langan [11].

Yuqoridagi tadqiqotlarga asoslanib shuni aytishimiz joizki, talabalarda huquqiy tushunchalarni shakllanishga tizimli yondashuv lozim va bu o‘zida ta’lim jarayonining murakkab tizimli bog‘lanishini taqozo etadi. Chunki buning uchun o‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘zaro munosabati, ustozning o‘quv mashg‘ulotini tashkil etishi, metodik jihatdan qurollanganligi, shogirdlarda o‘quv motivlarining o‘zlashganligi, kasbiy yo‘nalish bilan huquqiy tushunchalarni shakllantirish bog‘lab olinganligi bilan bog‘liqdir.

T.I.Magomedova tomonidan amalga oshirilgan izlanishda esa muammoning o‘ziga xos jihati huquqiy soha talabalarida ko‘p tillik sharoitida rus tiliga oid kasbiy kommunikativlik ko‘nikmalarini shakllantirishga bag‘ishlangan. Mazkur dissertasion tadqiqotda huquqiy soha mutaxassislari uchun mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanmaning batafsil tahlili mutaxassislarni tayyorlash asosida ingliz tili bo‘yicha “O‘quv adabiyotlarining jamlanma tahlili jadvali” shakllantirilgan. Ta’limni optimallashtirish sohasidagi nazariy va uslubiy tadqiqotlarining yakuni quyidagi omillarni hisobga olish lozimligini ko‘rsatadi:

- talabalarning motivasiyasi;
- o‘quv materiallarining yangiligi va autentiklikka egaligi;
- grafik ko‘rgazmalilik;
- o‘zi mustaqil o‘rganishi .

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, talabalarning motivasiyaga ega ekanligini aniq ko‘rsatkichlarda aks etganligi, o‘qituvchining topshiriqlari – faqat chet tilini o‘qitishda emas, balki boshqa mutaxassislik fanlarini o‘rganish jarayonida ham foydalanishi bilan xarakterlanadi.

Grafik ko‘rgazmalilik – bu talaba-yuristlarda kasbiy –yo‘naltirilgan o‘qitishni optimallashtirishning asosiy vositalaridan biri ekanligi isbotlangan.

O‘zi mustaqil o‘rganishi kasbiy shakllanish jarayonida talabaning to‘laqonli kasbiy, shaxsiy va individual kamol topishiga imkon beradi. Shunday qilib, talabalarda leksik tafakkurning egiluvchanligi, tilni idrok etishning rivojlanganligi; mutaxassisligi bo‘yicha matnlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

N.G.Dayri tomondan olib borilgan izlanishda tushunchalarning shakllanishida eng muhim holat sifatida o‘qituvchini xotiraning barcha turiga

ta’sir ko‘rsatilishi bilan belgilangan. Tadqiqotda qayd etilishicha, katta yoshdagilarga nisbatan o‘smirlarning xotirasi ancha kuchli ekanligi va eshitish, harakat, obrazli, motor, emosional xotira tushunchalarini o‘zlashtirish vaqtida o‘qituvchi inobatga olishi muhim deb ko‘rsatgan. Yakuniy xulosada o‘quvchilarda tushunchalar shakllanishida so‘z-mantiq xotirasiga alohida urg‘u berilgan. Shu sababli tushunchalar mazmuni ustida mulohaza yuritayotgan vaqtida mantiqiy esga olib qolish o‘quvi “mantiqiy zanjir” hosil qilishga xizmat qiladi.

Tushunchaning shakllanishi yuzasidan izlanishlar psixologik-pedagogik tadqiqotlarda anchagina salmoqli o‘rganilgan bo‘lib, ular muammolarning predmeti, yo‘nalishi, maqsad va vazifalari bo‘yicha tafovutlanishining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Agar tushunchalarning shakllanishi bo‘yicha pedagogik tadqiqotlarni tizimlashtiradigan bo‘lsak, anchagina tafovutli holatlarning guvohiga aylanish mumkin. Agar ushbu tadqiqotlarni guruhlashimizga to‘g‘ri kelsa, quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq:

Birinchi guruh tadqiqotlarni umumta’lim fanlari bo‘yicha ilmiy atamalarning shakllanishiga, ya’ni matematik, fizik, kimyo, biologiya, geografiya, til, tarix va boshqa fanlarga doir tushunchalarning o‘quvchilarda tarkib topishiga bag‘ishlangan deyishimiz mumkin.

Ikkinchi guruhda esa tadqiqot obyektiga ko‘ra, amalga oshirilgan tadqiqot ishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu tadqiqotlarda o‘quvchilar, talabalar va boshqa kasb egalarida ilmiy tushunchalarning tarkib topishiga bag‘ishlangan izlanishlar amalga oshirilgan.

Masalan, I.V.Kobilinaning izlanishlari bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning o‘quvchilarda ilmiy tushunchalarni shakllantirishga tayyorlash masalasiga bag‘ishlangan. Olima tomonidan olib borilgan izlanishga ko‘ra, o‘quvchilarda ilmiy tushunchalarning shakllanishida o‘qituvchining o‘rni yuqori ekanligi, bunga erishish uchun bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik vaqtida e’tibor qaratish, dastlabki pedagogik amaliyoti vaqtidayoq ularga ilmiy tushunchalarni o‘rgatishlari, ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirishda fanlaro bog‘liqlikni inobatga olishligini xulosalagan [98].

I.G.Pustilnik amalga oshirgan tadqiqotlarda o‘quvchilarda ilmiy tushunchalarni shakllantirishning nazariy asoslari tahlil qilingan. Bunda ularning tarixiy ildizlari, tushunchani tarkib toptirishda pedagogik yondashuvlarning g‘oyaviy asoslari tahlil qilingan [12].

Shuningdek, ko‘pgina tadqiqotlarda matematika va geometriyaga oid tushunchalarning shakllanishini turli xil faoliyat jabhalaridan kelib chiqib o‘rganishga harakat qilingan. Bu borada G.D.Tonkix tomonidan olib borilgan izlanishda planimetrik tushunchalar egallashda o‘quvchilarni darajaviy tabaqalashtirish sharoitida refleksiv faoliyatni tashkillashtirish muhim ekanligi qayd etilgan.

M.M.Molonova tadqiqotida esa o‘quvchilarda matematik tushunchalarni shakllantirishda mustaqil ishlarni tashkil etishning o‘ziga xos usullaridan biri

ekanligiga asoslangan. Bir tomondan o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish eng muhim pedagogik yondashuvning bir parametri sifatida qaralmoqda [11].

Shuningdek, A.Abduxalikov, Ye.S.Bulicheva, T.P.Varlamova, O.A.Vasilenko, R.V.Zerkova, A.V.Makarin, N.V.Prodanova, I A.V.Shepel, D.V.Sharmin, va boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarda matematika mashg‘ulotlarida o‘quvchilarda tushunchalar shakllanishining ilmiy asoslari tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda matematik tushunchalarning shakllanishi bir qator jabhalarda o‘rganishga e’tibor qaratilgan. Ye.S.Bulicheva loyihalash ta’lim orqali kollej o‘quvchilarida matematik tushunchalarning tarkib topishi xususiyatlarini yoritishga e’tibor qaratdi. Buning uchun dast avval, o‘quvchilarida matematik tushunchalarni shakllantirishning modelini ishlab chiqish muhimligi ta’kidlanadi.

I.G.Prosvirova va A.V.Shepelning tadqiqotlarida matematik tushunchalarni tarkib toptirishning motivasion aspektlari va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tushunchalar axborotlarini kategoriyalashtirish yondashuvi orqali shakllantirishga e’tibor qaratilgan.

Tadqiqotlarning yana bir yo‘nalishida ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo‘yicha o‘quvchilarda tushunchalar shakllanishining pedagogik masalalari tadqiq etilgan.

A.Abduxalikovning izlanishlarida ta’lim jarayoni o‘quvchilarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishning eng muhim omili sifatida qaralib, unda 8-9-sinf o‘quvchilarida matematika fanini o‘qitish orqali amalga oshirishning ahamiyati ilmiy asoslangan.

O.B.Yermakovaning izlanishlari gumanitar fanlardagi o‘quv materiallari asosida ilmiy tushunchalarni shakllantirishning ta’lim texnologiyalaridan foydalanish masalalariga bag‘ishlangan va u yuzasidan ilmiy xulosalarga kelingan.

Bir qator pedagogik tadqiqotlar amalga oshirilganki, ularda o‘quvchilarda fanni o‘rganishga doir bilimlarni o‘zlashtirish usullari, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish yo‘llari, yondashuvlari, ta’lim texnologiyalari, kasbiy tushunchalarni tarkib toptirish xususiyatlari, ularni o‘zlashtirishda individual yondashuvning ahamiyati, umumta’lim fanlarini o‘qitish orqali dunyoqarashni egallash xususiyatlari, dialogik texnologiya tushunchalarni anglashning vositasi ekanligi, rivojlantiruvchi ta’lim fizik tushunchalarni tushunish omili ekanligi, nutqni o‘rganish jarayonida tushunchalarni rivojlantirish xususiyatlari, mantiqiy operasiyalarni takomillashtirishning didaktik asoslari, talabalarda tushunchalarni refleksivlashtirishning xususiyatlari va boshqa jihatlar tadqiq etilganligini kuzatish mumkin.

Agar davlat ta’lim standartida belgilangan huquqiy bilimlar, tushunchalarni o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilishi huquqiy bilimlarni egallashning belgilovchi bosh mezon sifatida qaralsa, u holda ta’lim mazmunini tashkil etishda ushbu mezonga yetarlicha ahamiyat berish lozimdir.

Demak, biz kasb-hunar kolleji o‘quvchilarida huquqiy tushunchalari shakllanishining didaktik masalasini belgilovchi omillarni quyidagilar bilan izohlashimiz mumkin:

- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim tizimi davlat ta’lim standartlarida belgilangan o‘quvchilar faoliyatiga qo‘yiladigan bilim, ko‘nikma va malakaviy talablar bosh maqsad ekanligini inobatga olish;
- ta’lim muhitini tashkil etishga ta’sir ko‘rsatuvchi obyektiv va subyektiv omillar ahamiyatini belgilash;
- kasb-hunar kolleji o‘quvchilaridagi huquqshunoslik faniga bo‘lgan o‘quv motivasiyalarining shakllanganlik darajasini aniqlash;
- ta’lim jarayonida innovasion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ahamiyatini tavsiflash;
- o‘qituvchi bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi ta’limiy hamkorlik faoliyatining tashkil etilganligiga e’tibor qaratish.

Psixologik tadqiqotlarda o‘quvchilarda tushunchalarning shakllanishi tarixiy taraqqiyotning bir bosqichi sifatida talqin etilishi bilan bir qatorda muammoning o‘quv faoliyatining boshqa jabhalariga, ya’ni bilish qobiliyatlarini, o‘quv motivasiyalarini, kasbiy va tadqiqotchilik sifatlarini tarkib toptiritirishga yo‘naltirilgan. Ammo huquqiy tushunchalarni subyektlar tomonidan o‘zlashtirishning psixologik jabhalarini tadqiqot predmeti sifatida o‘rganish zaruratini tug‘diradi.

Kasb-hunar kolleji o‘quvchilarida huquqiy tushunchalar shakllanish xususiyatlari muammosini ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o‘rganish pedagogik psixologiya premeti doirasida amalga oshiriladigan muammolarning yangi bir yo‘nalishi sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2008 yil.
3. Filosofiya: Ensiklopedicheskiy slovar / Pod red. A. A. Ivina. — M.: Gardariki, 2004. -640 s.
4. Qodirov O.S.. Umumiy psixologiya // O‘quv qo‘llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.
5. Qodirov O.S., Xotamov Sh.N.. Ijtimoiy psixologiya //Darslik. - Samarqand, 2023.-346 b.
6. Safarovich Q. O. et al. Tarbiyasi qiyin o‘quvchilarning xulq-atvori bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish masalalari //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – S. 367-371.

Internet saytlari

7. http://fikr.uz/posts/Fikr_psixologiya.
8. http://lex.uz/pages/getpage.aspx.

XOTIN-QIZLANI JINOYAT QURBONI BO‘LISHIDAN PSIXOLOGIK HIMOYA QILISH TAJRIBALARI

Baxramova Abira Abdullayevna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
“Amaliy psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi
baxramovaabira@samdu.uz

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston va xalqaro tajribalar asosida xotin- qizlarning jinoyat qurboni bo‘lib qolishining oldini olish masalasi tahlil qilinadi. O‘zbekistondagi mavjud huquqiy va ijtimoiy chora-tadbirlar, shuningdek, xalqaro miqyosda xotin-qizlarni himoya qilishga qaratilgan ilg‘or tajribalar o‘rganiladi. Maqolada O‘zbekistonning so‘nggi yillarda xotin-qizlarga nisbatan jinoyatlarning oldini olish uchun amalga oshirgan qadamlarini, shu jumladan yangi qonunlar va huquqiy yordam tizimlarini batafsil ko‘rib chiqish orqali mamlakatdagi mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, huquqiy, ijtimoiy va institutsional yondashuvlar solishtirilib, istiqbolli yo‘nalishlar ko‘rsatib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *Xotin-qizlar, jinoyatchilik, gender tengligi, O‘zbekiston qonunchiligi, xalqaro tajriba, huquqiy himoya, zo‘ravonlikning oldini olish.*

Abstract: *This article analyzes the issue of preventing women from becoming victims of crime based on Uzbek and international experiences. It examines existing legal and social measures in Uzbekistan, as well as international best practices aimed at protecting women. The article analyzes the current problems in the country and ways to solve them by examining in detail the steps that Uzbekistan has taken to prevent crimes against women in recent years, including new laws and legal aid systems. It also compares legal, social and institutional approaches and indicates promising directions.*

Keywords: *Women, crime, gender equality, Uzbek legislation, international experience, legal protection, prevention of violence.*

Аннотация: *В статье анализируется проблема предотвращения преступлений среди женщин на основе узбекского и международного опыта. Будут изучены существующие в Узбекистане правовые и социальные меры, а также передовой международный опыт, направленный на защиту женщин. В статье анализируются текущие проблемы в стране и пути их решения, подробно рассматриваются шаги, предпринятые Узбекистаном в последние годы для предотвращения преступлений в отношении женщин, включая новые законы и системы юридической помощи. Также сравниваются правовые, социальные и институциональные подходы и намечаются перспективные направления.*

Ключевые слова: *Женщины, преступность, гендерное равенство, законодательство Узбекистана, международный опыт, правовая защита, профилактика насилия.*

Xotin-qizlarga nisbatan jinoyatlarning oldini olish va ularni jinoyat qurboni bo‘lishidan himoya qilish masalasi bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab ijtimoiy, huquqiy va madaniy muammo sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda ham bu masala dolzarb bo‘lib, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularni jismoniy, ruhiy va iqtisodiy zararlar va zo‘ravonliklardan himoya qilish bo‘yicha bir qator muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, xotin-qizlar o‘rtasidagi jinoyatlar, oilaviy zo‘ravonlik, jinsiy tajovuzlar, majburiy mehnat va odam savdosi kabi jinoyatlar, nafaqat ularning shaxsiy farovonligiga, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham xavf solmoqda.

O‘zbekiston hukumati o‘zining qonunchilik tizimini takomillashtirish, xotin-qizlar uchun xavfsiz muhit yaratish va ularga yuridik, psixologik yordam ko‘rsatish borasida bir qator qadamlar qo‘ymoqda. Biroq, bu masalani hal qilish uchun ko‘plab kompleks yondashuvlar va xalqaro tajribalardan foydalanish zarur.

Xalqaro tajribalarga asoslanib, O‘zbekiston uchun eng samarali yechimlarni ishlab chiqish muhimdir. Skandinaviya mamlakatlari, AQSh, Kanada kabi davlatlar xotin-qizlarni himoya qilish bo‘yicha ilg‘or tajribalarini amalga oshirib, bu borada sezilarli muvaffaqiyatlarga erishganlar. Ushbu davlatlarning tajribalarini o‘rganish va O‘zbekistonga moslashtirish, xotin-qizlarning jinoyat qurboni bo‘lishining oldini olishda katta ahamiyat kasb etadi.

Xotin-qizlar jinoyat sodir etilishida viktimligi yuqori bo`lgan shaxslar toifasiga kiradi.Viktimologiya, viktimlik tushunchalariga ta`rif beradigan bo`lsak, ―viktimologiya‖ lot. ―viktima‖ - qurbon va grekcha ―logos‖ - ta’limot so‘zlaridan olingan bo‘lib, huquqbuzarlik qurboni haqidagi ta’limot, jinoiy zo‘ravonlik qurboniga xos xususiyatga ega bo‘lgan jabrlanuvchi to‘grisidagi fandir.Kriminologiyada ushbu tushuncha tor ma’noda, ya’ni faqat xatti-harakatlardan jabrlanganlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Jabrlanuvchi tushunchasi va huquqiy maqomi esa O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat- prosessual kodeksi (jabrlanuvchi jinoyat natijasida ma’naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar ko‘rgan shaxs (JPK 54-m.)) hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (jabrlanuvchi ma’muriy huquqbuzarlik yo‘li bilan ma’naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar etkazilgan shaxs (MJtK 295-m.))27 da mustahkamlangan.

Jinoyatdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo`lgan shaxslar toifalariga quyidagilar kiradi:

1) voyaga yetmagan shaxslar
2) xotin-qizlar
3) yoshi katta qariyalar va hk.

Shulardan ayollarga nisbatan sodir etilayotgan jinoyatlar ularning sabab va sharoitlarini o`rganish, xotin-qizlarning jinoyat qurboni bo`lib qolishini oldini olish va ularni huquqiy himoyasini ta`minlash masalasiga alohida e`tibor qaratadigan bo`lsak, ayollar viktimlik tavsifining tahlili nafaqat huquqni qo‘llash amaliyoti, balki jamiyatdagi o‘tkir ijtimoiy-madaniy muammolarni hal qilish uchun ham muhim hisoblanadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra 2022 yilda respublika bo‘yicha sodir etilgan 426 ta odam o‘ldirishning 37,1% (158tasi), JK 104, 105, 109-moddalarida javobgarlik belgilangan 10 927ta badanga turli darajada shikast yetkazishlarning 1 985tasi(18,2%) oila-turmush doirasida amalga oshirilgan. Bundan tashqari, respublika bo‘yicha jami 36 960 nafar xotin-qizlar jinoiy va ma’muriy huquqbuzarlik hatti-xarakatlaridan jabrlanganligi qayd etildi. Ayollar jabrlanishi eng yuqori ko‘rsatkichlari Farg‘ona (7 696), Toshkent (4 242) va Namangan (3 180) viloyatlarida qayd etilgan. 2023-yilda O‘zbekistonda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik va tazyiq bilan bog‘liq 2638 ta jinoyat ishi hamda 10 091 ta ma’muriy huquqbuzarlik ishi ko‘rib chiqilgan. MJtKning 522-moddasi (oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik) bilan 4343 nafar shaxs ma’muriy javobgarlikka tortilib, ularning 2344 nafariga jarima, 1999 nafariga esa ma’muriy qamoq jazosi qo‘llanilgan. Jinoyat kodeksining 1261-moddasi (oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik) bilan 134 nafar shaxs sudlanib, ularning 51 nafariga ozodlikdan mahrum qilish jazosi, 83 nafariga esa ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar tayinlangan. 2024-yilning birinchi choragida sudlar tomonidan 4477 nafar shaxs oiladagi zo‘ravonlik moddalari bo‘yicha javobgarlikka tortildi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu borada muhim qonunchilik islohotlari va amaliy mexanizmlar ishlab chiqilgan.

Qonunchilik asoslari: 2020-yil 2-sentyabrda qabul qilingan ―Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida‖gi Qonun gender tengligini ta’minlashga qaratilgan muhim huquqiy asos bo‘ldi..2021-yil 28-dekabrda qabul qilingan ―Gender zo‘ravonlik va oiladagi zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida‖gi Qonun orqali jabrlanuvchilar uchun himoya orderlari joriy qilindi. 2019 yil 2 sentyabr kuni qabul qilingan

―Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida‖gi, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-yanvar kunidagi ―Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida‖gi 4-son qarorida xotin- qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ularni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish bilan bog‘liq normalar o‘z aksini topgan.Jinoyat kodeksining tegishli moddalari (masalan, 118-, 119-, 121-, 122-moddalar) orqali ayollarga nisbatan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilanadi.

Amaliy mexanizmlar:―Ayollar daftari‖ orqali ehtiyojmand va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan ayollar ro‘yxatga olinib davlat tomonidan yordam ko‘rsatilishi, ichki ishlar organlari qoshida ―xotin-qizlar bilan ishlovchi inspektorlar‖ faoliyat yuritishi, jabrlanuvchilar uchun reabilitatsiya markazlari, vaqtinchalik boshpana va huquqiy maslahatlar taklif qilinishi yo`lga qo`yildi.Shuningdek 2022-yilda ―Halo‖ mobil ilovasi ishga tushirilib, zo‘ravonlik holatlarini tezda xabar qilish imkoniyati yaratildi. Fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida IIV JXD

Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati qoshida ―Ishonch markazi‖ tashkil etilib, 2022 yil

10 yanvar kunidan markazda tunu-kun uzluksiz xabarlarni qabul qilish tizimi yo‘lga qo‘yildi. ―Ishonch markazi‖ ga ikkita ―1259‖ va ―1286‖ qisqa raqamlari olingan bo‘lib,

―1259‖ qisqa raqami oilaviy zo‘ravonliklardan jabr ko‘rgan fuqarolarga huquqiy yordam ko‘rsatish, ―1286‖ qisqa raqami huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari xodimlari uchun huquqiy yordam ko‘rsatishni nazarda tutadi.

Xotin-qizlarning jinoyat qurboni bo‘lib qolishining oldini olish masalasi butun dunyo bo‘yicha dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ko‘plab rivojlangan davlatlar ayollar xavfsizligini ta’minlashda kompleks yondashuvdan foydalanmoqda. Bu yondashuvlar faqatgina jinoyatdan keyingi javobgarlikni emas, balki jinoyatlarning oldini olish, jamiyatda ongli fikr shakllantirish, ayollarni mustaqil va huquqiy jihatdan faol shaxs sifatida qo‘llab- quvvatlashni ham o‘z ichiga oladi. Bu borada turli mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar samarali strategiyalar ishlab chiqqan. Quyida xalqaro tajribalardan ayrim samarali uslublar va yondashuvlar keltirilgan:

Shvetsiya tajribasi: Shvetsiyada gender asosidagi zo‘ravonlikka qarshi kurash davlat siyosatining muhim qismi hisoblanadi. Hukumat tomonidan ayollar uchun xavfsizlik markazlari tashkil etilgan, zo‘ravonlarga nisbatan psixologik va huquqiy choralar qo‘llaniladi. Maktabdan boshlab gender tengligi haqida ta’lim beriladi.

Kanada tajribasi: Kanada hukumati 2017-yildan boshlab ―Gender asosidagi zo‘ravonlikka qarshi milliy strategiya‖ni joriy qilgan. Bu strategiya doirasida ayollarni himoya qilishga qaratilgan qonunlar kuchaytirilgan, onlayn tahdid va kiberzo‘ravonlikka qarshi choralar ko‘rilgan. Mahalliy jamoalarni, NNTlarni va ta’lim muassasalarini jalb qilish orqali profilaktik ishlar olib boriladi.

Avstraliya tajribasi: Avstraliya xotin-qizlarni texnologik zo‘ravonlikdan himoya qilish borasida ilg‘or hisoblanadi. Maxsus mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali jabrlanuvchilar tez yordam xizmatlariga murojaat qilishi mumkin. Shuningdek, oilaviy zo‘ravonlik holatlarida zo‘ravon shaxslarni uyidan chetlatish imkonini beruvchi himoya orderlari keng qo‘llanilad.

AQSH tajribasi: AQShning xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashishdagi asosiy yuridik asoslaridan biri Violence Against Women Act (VAWA) hisoblanadi.VAWA yordamida xotin-qizlarga huquqiy yordam ko‘rsatiladi, shu jumladan himoya buyruqlarini olish va zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan shaxslar uchun maxsus advokatlar tayinlanadi. VAWA qonuni, AQShdagi federal va shtat hukumatlari tomonidan xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashishda samarali vosita bo‘lib, jinoyatlarning kamayishiga va xotin-qizlar uchun xavfsiz muhit yaratishga olib keldi.

Xotin-qizlarning jinoyat qurboni bo‘lib qolishining oldini olishda xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, faqat jazo choralarigina emas, balki profilaktik va ijtimoiy yordam mexanizmlari ham muhim o‘rin tutadi. Shvetsiya, Kanada va

Avstraliya tajribalari ayollar xavfsizligini ta’minlashda kompleks yondashuv samarali bo‘lishini isbotlagan.

Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda quyidagi jihatlar O‘zbekiston tajribasini yanada kuchaytirishi mumkin:

Profilaktik ta’limni kengaytirish: maktab va oliy ta’limda gender tengligi, huquqiy ong va zo‘ravonlikka qarshi kurash mavzularini doimiy o‘qitish.

Mobil texnologiyalarni keng joriy qilish: ―Halo‖ kabi ilovalarni takomillashtirish, real vaqtda xavfsizlikni ta’minlash imkoniyatini kengaytirish.

Nodavlat sektorni rag‘batlantirish: NNTlar, ayollar tashkilotlari va ko‘ngillilar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Himoya orderlarini qo‘llash mexanizmini soddalashtirish: zo‘ravonlik qurbonlari uchun tezkor, byurokratik to‘siqlarsiz huquqiy yordam tizimini ishlab chiqish.

Tizimli yondashuv – qonun, ta’lim, profilaktika, jamoatchilikni jalb qilish.

Raqamli vositalar – mobil ilovalar, xavfsizlik tizimlari, anonim xabar berish imkoniyatlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Shuni aytib o`tish kerakki xotin-qizlarning jinoyatlardan himoyalanishi nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, madaniy va axloqiy masaladir. O‘zbekiston bu borada sezilarli yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, xalqaro tajribalar asosida profilaktik mexanizmlarni kuchaytirish, raqamli xavfsizlikni rivojlantirish va genderga asoslangan siyosatni yanada chuqurlashtirish orqali bu sohadagi samaradorlikni oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda xotin-qizlar uchun xavfsiz muhitni yaratish, ularning huquqlarini himoya qilish va jinoyatlarning oldini olish uchun ta’lim tizimini rivojlantirish, huquqiy va psixologik yordamni kengaytirish hamda jinoyatchilikka qarshi kurashishda yanada samarali choralar ko‘rish zarur. Xotin-qizlarning xavfsizligini ta’minlash uchun davlat, jamoatchilik va xalqaro hamkorlikning birlashgan sa’y-harakatlari, butun jamiyatning barqaror va farovon rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xotin- qizlarning jinoyat qurboni bo‘lishining oldini olishda O‘zbekistonning barcha kuchlarini birlashtirish va samarali xalqaro tajribalarni o‘zlashtirish, nafaqat ayollar, balki jamiyatning umumiy farovonligi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2023-yil nashri.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (1994-yil)
3. Gender tengligi to‘g‘risida‖gi Qonun, 2020-yil.
4. Oiladagi zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida‖gi Qonun, 2021-yil.
5. A.A.Baxramova “Sud-psixologik ekspertizasi” // O‘quv qo‘llanma. - Samarqand, 2024. - 292 b.
6. Ummatova S.Sh. “Oila psixologiyasi” // O‘quv qo‘llanma. SamDU nashriyoti. - Samarqand, 2024. – 240 b.


BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK MOSLASHUV DETERMENATLARI.

Boymurodova Mahliyo Orif qizi
Sparof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti
Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy
fanlar fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy va psixologik moslashuv jarayoni, unga ta’sir etuvchi omillar (determinantlar) va moslashuvni yengillashtirish usullari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Bolalar psixologiyasi ,ijtimoiy va psixologik moslashuv, ijtimoiy-psixologik yondashish, yondashuv sotsializatsiyasi, shaxslararo munosabatlar.

Tadqiqotning dolzarbligi: Mamlakatimizda ta’lim tizimi, yosh avlodga sifatli ta’lim tarbiya berish jarayoni dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. Zamonaviy jamiyatda dinamik iqtisodiyot, ta’lim va ijtimoiy-madaniy sohalarda o‘zgarishlar yuzaga kelmoqda. Transformatsiya jarayoni yangi talablarni ilgari suradi ijodiy bo‘lishi kerak bo‘lgan shaxsning shaxsiy rivojlanishi mobil fikrlash, rivojlangan motivatsion-voliylik va hissiy sohalar, tez moslashish qobiliyati o‘zgaruvchan muhit sharoitlarini talab qiladi. Ushbu maqsadga erishishning asosiy shartlaridan biri o‘quvchilarning yangi ta’lim sharoitlariga moslashishini ta’minlash ta’lim jarayonining bosqichlari, xususan, bolalarni boshlang‘ich ta’limdadir. Pedagogik psixologik amaliyot shuni ko‘rsatadiki ushbu o‘tish jarayoni ta’limning pasayishi bilan tavsiflanadi. Muvaffaqiyat, xatti-harakatlarning buzilishi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda holsizlik, charchoq, nevrologik reaksiyalarini keltirib chiqaradi. Ushbu qiyinchiliklarning sabablarini aniqlash va hal qilish yo‘llarini topish ushbu muammo tadqiqotning dolzarb yo‘nalishi hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik rivojlanishi maktab sharoitida ko‘plab fanlarni o‘rganishga qaratilgan samarali ta’limni tashkil etish bilan bog‘liq masalalar zanjiri hisoblanadi. Tadqiqotimiz doirasi moslashuv jarayoni o‘zgarish tufayli o‘ziga xos adaptiv faoliyat ijtimoiy-psixologik makonga yo‘naltirilgan insonning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sirini optimallashtirish shaxsiy tajribada mavjud bo‘lmagan omillar paydo bo‘lishidir. Psixologik va pedagogik adabiyotlarda ko‘plab turlar mavjud. Ta’lim sharoitlariga moslashishda biz quyidagilarga ishora qilamiz: psixologik, ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik, maktab. Ilmiy doiralarda, ijtimoiy-psixologik moslashuv shaxsning ijtimoiy hayotidagi hodisalar majmui sifatida qaraladi. Uning rivojlanishini ta’minlaydigan universal insoniy mulk ijtimoiy muvofiq xulq -atvor standartlari, qiymati yo‘nalishlar, munosabatlarni yangi ijtimoiy moslashuv jarayoni bilan uyg‘unlashtirish atrof -muhit, ijtimoiy kompetensiya elementlarini o‘zlashtirish, yangi ijtimoiy rollar va funksiyalarni tushunish, o‘zini tutish qobiliyati yangi talablarga muvofiqdir.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-sonli “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashda mazkur bitiruv malakaviy ish muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning metod va metodikalari:

Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy va psixologik moslashuvini o‘rganishdan iborat.Tadqiqotda nazariy, ilmiy-uslubiy manbalar tahlili, kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma va psixologik metodikalardan foydalanildi. Suhbat va kuzatuv metodlari bolalarning atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatlarini, muloqotga kirisha olish qobiliyatlarini, boshqalarga bo‘lgan munosabatlarini aniqlashga qaratildi. “Koroleva’’so‘rovnomasi maktabda o‘qishni boshlagan bola haqidagi tushunchasini tizimlashtirishga yordam beradi ya’ni tarbiyalanayotgan muhitga munosabatini o‘rganishga qaratilgan. Undan tashqari, bolalarning turli vaziyatlarda o‘zini tutishi, ularning hissiy-irodaviy holatlari, muhitga moslashuvchanlik darajasi, boshqalarga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganish maqsadida “Anksiyete testi ’’(Temml, Dorky, Omin) metodikasi bolaning tashvish indeksini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Tadqiqotda olingan natijalar son va sifat jihatidan tahlil qilindi.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Suhbat va kuzatish metodikalari orqali quyidagilarni aniqlashga muvaffaq bo‘ldik:

So‘rovnoma L.M. Kovaleva. Maktabning 3- sinfida bolalarning 91% maktabga normal moslashish darajasiga ega. 9% bolalar o‘rtacha moslashish

darajasiga ega. Ushbu guruhda noto‘g‘ri adaptatsiyaning jiddiy va tanqidiy darajalari aniqlanmagan.

1-sinf bolalarning 80% ham yaxshi moslashish darajasiga ega, bu esa ushbu guruhning kamchiliklari haqida gapirishga imkon bermaydi. Bolalarning 14 foizida moslashuvning o‘rtacha darajasi kuzatiladi. Obyektlarning 5 foizida jiddiy darajada moslashuv kuzatiladi. Ikkala guruhda ham noto‘g‘ri moslashishning tanqidiy darajasi aniqlanmagan.

O‘quvchilarning 5 foizida jiddiy darajada moslashuv kuzatilishining sababi yangi kelgan paytda bolalar yangi sharoitga xavotir bilan qaray boshlashidir.

Ulardan ko‘plari ota-onalaridan uzoqlashganliklari bo‘lsa, ba’zilari notinch oilalarda voyaga yetganliklari uchun boshqalarga shubha bilan qarash, qo‘rquv, tortinchoqlik, emotsional sovuqlik kuzatildi. Oila bilan – onadan ajralish, yangi muhitga moslashishda qiyinchilik bo‘lib, bolalarda ruhiy holatga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bunday qiyinchilik 5 foiz bolada kuzatildi. Mazkur bolalar bilan suhbatlashishga harakat qilganimizda ham psixologga nisbatan shubha bilan qarash, tortinchoqlik, savollarga berilganida javob berish o‘rniga yig‘lash, ba’zi bolalarda esa agressivlik, emotsional sovuqlik namoyon bo‘ldi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Ilmiy tadqiqotimizning natijalari shuni ko‘rsatdiki, bola yangi muhitga moslashayotganida uni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish muhim sanaladi. Bolalarning moslashuv jarayonini murakkablashtiruvchi sabablarini aniqlash va bartaraf etish, bolalarning mazkur muassasa va jamoatga ijtimoiylashuv jarayonini yaxshilash.

XULOSA VA TAKLIFLAR. O‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining maktab muhitiga ijtimoiy va psixologik jihatdan moslashuvi kompleks, ko‘p omilli va uzviy bog‘liq jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda bolaning individual psixologik xususiyatlari, oiladagi ijtimoiy-psixologik holat, maktabning ijtimoiy muhitiga moslashuv darajasi, o‘qituvchining shaxsiyati hamda u bilan o‘rnatilgan o‘zaro munosabatlar asosiy determinant sifatida namoyon bo‘ladi.Moslashuv jarayonida bolaning emotsional barqarorligi, ijtimoiy ko‘nikmalari, kommunikativ faoliyati, stressga bardoshliligi va mustaqil fikrlash qobiliyati katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, moslashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirishda maktabdagi psixologik xizmatlar, oilaviy qo‘llab-quvvatlov va ijobiy pedagogik yondashuv muhim rol o‘ynaydi.

Umuman olganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchisining maktabga ijtimoiy-psixologik moslashuvi nafaqat uning o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyati, balki butun shaxsiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beradi. Shu sababli, mazkur jarayonni chuqur tahlil qilish va unga ta’sir etuvchi determinantlarni ilmiy asosda o‘rganish katta amaliy va nazariy ahamiyatga egadir.Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun psixologik tayyorgarlik kurslarini tashkil etish lozim, bu orqali ular o‘quvchilarning psixologik holatini aniqlash, ularni qo‘llab-quvvatlash va moslashuv jarayonini boshqarish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallaydilar.Maktab psixologi ishtirokida diagnostik monitoring tizimini yaratish tavsiya etiladi. Bu orqali har bir o‘quvchining moslashuv holati muntazam

kuzatilib boriladi va individual yondashuv asosida psixologik yordam ko‘rsatiladi.Oilaviy-ma’naviy muhitni mustahkamlash maqsadida ota-onalar bilan muntazam pedagogik-psixologik seminar va treninglar o‘tkazish zarur. Bu orqali ota-onalar bolani ijtimoiy va psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlashning ahamiyatini anglab yetadilar.

Boshlang‘ich sinflarda “moslashuv haftaligi” yoki “moslashuv dasturi”ni joriy etish mumkin. Bu dastur bolalarning maktab muhiti bilan tanishuvi, sinfdoshlar bilan muloqotga kirishuvi va o‘qituvchi bilan emotsional aloqa o‘rnatilishiga xizmat qiladi.Ijtimoiy faol va emotsional jihatdan barqaror muhitni yaratish uchun sinf jamoasida ijtimoiy-psixologik treninglar, rolli o‘yinlar, guruhli faoliyatlar va ijobiy munosabatlarni rivojlantiruvchi tadbirlarni muntazam o‘tkazish tavsiya etiladi.Moslashuvga yordam beruvchi maxsus metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida samaradorlikni oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Asqarova O‘. (2005). Педагогикадан амалий машқлар ва масалалар / Ўқув қўлланма.– Тошкент. Истқлол.

Choriyev A. (1998). Инсон фалсафаси. Инсон тўғрисидаги фалсафий фикрлартарққиёти. Биринчи китоб.-T: Chinor ENK,.

G‘oziyev E. (2010). Психология . – T: Ўқитувчи.

4. Ismailova Z. (2001). Педагогикадан амалий машғулотлар.- T.: Фан

5. Jabbor Eshbekovich Usarov. (2017). Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education’s Efficiency. Theoretical & Applied Science, 53(9), 79-82.

6. Jabbor Usarov. (2019, June). Using Teaching Methods for Development Pupil Competencies. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 15(1), 272-274.

7. Maratov Temur Gayrat ugli (2019) Scientific theoretical problems of perfect human category in the psychology. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 7(8). 16-22.

8. N.J. Eshnaev, TG‘ Maratov, G Mirzaraximova. (2020). O‘zbek milliy kino san’ati va madaniyatida psixoprofilaktik xizmat tizimini joriy etish masalalari. Oriental Art and Culture 03. 156-165.

OILADA FARZAND TARBIYASIDA “SIFATLI VAQT” TUSHUNCHASI

SamDU Amaliy psixologiya kafedrasi
dotsenti **D.F.Djurakulova**,
Umumiy pedagogika va psixologiya
kafedrasi dotsenti **Sh.Axmedova**

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilada farzand tarbiyasida “sifatli vaqt” tushunchasining psixologik va pedagogik jihatlari o‘rganiladi. Sifatli vaqt – bu ota-onalar bilan farzandlar o‘rtasidagi mazmunli, emotsional jihatdan boy va ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarga javob beruvchi muloqot va faoliyatni anglatadi. Maqolada zamonaviy oilalarda vaqt tanqisligi sharoitida farzand bilan sifatli vaqt o‘tkazishning ahamiyati, usullari hamda bu jarayonning bola rivojiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, sifatli vaqtni miqdor emas, balki mazmun belgilashi tushuntiriladi. Tadqiqot natijalari sifatli vaqtning bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalar, emotsional barqarorlik va o‘z-o‘zini baholashga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar. sifatli vaqt, farzand tarbiyas, ota-ona munosabatlari, emotsional rivojlanish, oilaviy muloqot, bolaning psixologik ehtiyojlari, zamonaviy oila, tarbiya usullari.

Bugungi zamonaviy jamiyatda oilaning farzand tarbiyasidagi roli tobora ortib bormoqda. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, axborot oqimining tezligi, texnologiyalarning keng tarqalishi va bandlik darajasining yuqoriligi ota-onalarning farzandlariga ajrata oladigan vaqtiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, farzand bilan birga bo‘lgan vaqtning sifati uning tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda.

“Sifatli vaqt” tushunchasi – bu faqatgina ota-ona va bola o‘rtasida jismonan bir joyda bo‘lish emas, balki ular o‘rtasida chuqur emotsional, ijtimoiy va ruhiy aloqaning mavjudligi bilan belgilanadi. Ushbu maqolada sifatli vaqt tushunchasining mazmuni, uning farzand tarbiyasiga ta’siri, ta’minlash usullari va o‘zbek oilalaridagi mavjud muammolar yoritiladi.

“Sifatli vaqt” – bu ota-ona va bola o‘rtasida sodir bo‘ladigan e’tiborli, mazmunli va hissiy jihatdan boy bo‘lgan muloqot va faoliyat vaqtidir. Bu vaqt davomida bola ota-onasining diqqat markazida bo‘ladi, u tinglanadi, tushuniladi va qo‘llab-quvvatlanadi.

Masalan, ota-onaning ish kunidan so‘ng bolasi bilan kun davomida nimalar qilgani haqida suhbatlashishi, birgalikda ertak o‘qish, rasm chizish, oilaviy o‘yinlar o‘ynash – bularning barchasi sifatli vaqt elementlari hisoblanadi. Bunday muloqotlar bolaga ijobiy emotsional tajriba beradi, uning shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ota-onasi bilan ijobiy munosabatda bo‘lgan o‘smirlar depressiya, tashvish, o‘ziga zarar yetkazish va jinoyatga moyillik darajasi past bo‘lgan guruhga kiradi. Masalan, Amerika Psixologik Assotsiatsiyasi (APA) tomonidan olib borilgan 2021-yilgi tadqiqotga ko‘ra, har kuni ota-ona bilan kamida 30 daqiqa sifatli suhbat qiladigan o‘smirlar orasida stress ko‘rsatkichlari 40% ga kamaygan. Xuddi shunday, O‘zbekistonda 2023-yilda o‘tkazilgan Respublika psixologik monitoring markazining kuzatuvlarida, ota-ona bilan munosabati sust bo‘lgan o‘smirlar orasida maktabni tashlab ketish, agresivlik va ijtimoiy chekinish holatlari yuqori bo‘lgan.

“Sifatli vaqt”ning farzand rivojiga ta’siri qay darajada

Emotsional barqarorlik – Bola o‘zini sevgan va qadrlangan his qiladi. Bu unga o‘z fikrini erkin ifoda etish, xavfsiz muhitda ulg‘ayish imkonini beradi.

Ijtimoiy ko‘nikmalar – Sifatli vaqt davomida bola ota-onadan muloqot madaniyatini, sabr, empatiya, hamkorlik kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rganadi.

Ota-onaga bo‘lgan ishonch – Ota-onasi bilan yaxshi aloqa o‘rnatgan bola hayotiy muammolar yoki stressli holatlarda ulardan maslahat olishga moyil bo‘ladi.

O‘z-o‘zini baholash – Ota-onaning e’tibori va mehribonligi bolaning o‘ziga nisbatan ijobiy qarashini, o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Bilim olishga rag‘bat – Farzand bilan vaqt o‘tkazish jarayonida uni o‘rganishga, savol berishga undash uning intellektual rivojiga xizmat qiladi.

Sifatli vaqtni ta’minlash usullari

- Har kuni kamida 30 daqiqa davomida bolaning faoliyatlariga chalg‘ituvchi omillarsiz e’tibor berish (masalan, televizor yoki telefonni o‘chirib qo‘yish).

- Birgalikda ovqat tayyorlash, kitob o‘qish, bozorga borish, sayr qilish, sport bilan shug‘ullanish kabi faoliyatlar orqali ijtimoiy va emotsional aloqani kuchaytirish.

- Farzandning qiziqishlariga chin dildan qiziqish bildirish, masalan, u sevadigan multfilm haqida suhbatlashish yoki sevimli o‘yinini birgalikda o‘ynash.

- Har haftada kamida bir marta “oilaviy vaqt” tashkil etish – bu kino tomosha qilish, stol o‘yinlari, qo‘l mehnati bilan shug‘ullanish bo‘lishi mumkin.

- Ota-onalar farzandlarining yoshiga mos ravishda suhbat mazmuni va faoliyat turini moslashtirishlari lozim.

Bugungi kunda o‘zbek oilalarida bu borada kuzatilayotgan muammolar nimalardan iborat?

Ko‘plab o‘zbek oilalarida ota-onalar kun bo‘yi mehnat faoliyatida bo‘lganligi sababli bolalar bilan sifatli vaqt o‘tkazishga imkon topa olmayapti. Natijada, bolalar ko‘proq vaqtini televizor yoki planshet qarshisida yolg‘iz o‘tkazmoqda. Bundan tashqari, ba’zi hollarda ota-onalar farzand bilan ko‘p vaqt o‘tkazayotganini sifatli aloqa deb hisoblaydi, ammo bu vaqt mazmunli bo‘lmasa, bolaning emotsional ehtiyojlari qondirilmay qoladi.

Yana bir muammo – texnologik qurilmalarning haddan tashqari qo‘llanilishi. Telefon, televizor, planshet singari qurilmalar bolaning e’tiborini ota-onadan chalg‘itadi, bu esa o‘zaro aloqani zaiflashtiradi. Ba’zida ota-onalar o‘zlari ham bu qurilmalarga haddan tashqari bog‘lanib qolgan bo‘lishi mumkin.

Ota-ona bilan sifatli vaqt yetishmasligining o‘smirlik davridagi oqibatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- Emotsional beqarorlik: Ota-ona bilan yaqin aloqaning yo‘qligi o‘smirda o‘zini yolg‘iz his qilish, tushkunlikka tushish yoki tajovuzkorlik kabi holatlarni keltirib chiqaradi.

- Ijtimoiy ajralish: Bola do‘stlari yoki notanish guruhlar ta’siriga tushib qolishi, noto‘g‘ri doiralarga qo‘shilishi mumkin.

- O‘ziga past baho berish: E’tibor yetishmasligi o‘smirda o‘ziga bo‘lgan ishonchni susaytiradi.

- Akademik muvaffaqiyatsizlik: Uyda hissiy qo‘llab-quvvatlov bo‘lmasa, bola maktabdagi o‘qishga befarq bo‘lishi, past baholar olishi mumkin.

- Internet va texnologiyalarga haddan ortiq bog‘lanish: Sifatli vaqt o‘rnini to‘ldirish maqsadida bola ko‘proq onlayn o‘yinlar yoki ijtimoiy tarmoqlarga bog‘lanib qoladi.

- Qarama-qarshilik va itoatsizlik: Ota-onaning e’tiboriga ehtiyoj sezgan bola ataylab salbiy xatti-harakatlar bilan o‘ziga e’tibor jalb qilishga urinadi.

Ota-onalarga “sifatli vaqt”ni tashkil etish yuzasidan beriladigan tavsiyalar:

Vaqtni rejalashtirish – Har kuni yoki haftada farzand bilan birga bo‘lish uchun aniq vaqt belgilang. Bu vaqt telefonsiz, televizorsiz, faqat bola bilan sifatli muloqotga bag‘ishlansin. Ish jadvalingizda farzand bilan birga o‘tkaziladigan vaqtni ustuvor deb biling.

Faol tinglashni o‘rganing - Farzandingiz gapirayotganda uning fikrini to‘liq eshiting, ko‘zingiz bilan aloqa qiling, savollar bering. Bolaning hissiyotlarini rad etmasdan, aksincha, ularni tushunishga harakat qiling.

Birgalikdagi faoliyatlar tashkil eting - Birgalikda rasm chizish, pazandachilik, sport o‘ynash yoki sayr qilish — bu faqat ko‘ngil ochish

emas, balki tarbiya va muloqot vositasidir. Farzandingizning qiziqishlariga mos faoliyatlar tanlang.

Rasmiy va norasmiy suhbatlar - Rasmiy mavzular (o‘qish, odob-axloq) bilan birga norasmiy, samimiy suhbatlar ham olib boring. Bolangiz o‘zini erkin his qiladigan, fikrini bemalol ayta oladigan muhit yarating.

Elektron qurilmalardan uzoqroq vaqt o‘tkazish
Sifatli vaqtni televizor, telefon yoki planshet qarshisida emas, real muloqotda o‘tkazing.

Ota-ona o‘zi namuna bo‘lishi zarur: bolaga telefon emas, e’tibor bering.

Ta’lim muassasalari bilan hamkorlik – Maktab, bog‘chalar orqali ota-onalarni bolalar tarbiyasida faolroq ishtirok etishga undash.

Texnologik cheklovlar – Oilaviy vaqt davomida har bir a’zo texnologiyadan foydalanmaslikka rozi bo‘lishi, bu orqali chin dildan muloqotga erishish mumkin.

Farzandning fikrini inobatga olish – Faoliyatni rejalashtirishda bolaning qiziqishlari, yosh xususiyatlari, shaxsiyati hisobga olinishi kerak.

Trening va seminarlar – Ota-onalar uchun tarbiyaviy mavzuda psixologik treninglar, amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish orqali ularning ongli ravishda sifatli vaqt yaratishiga ko‘maklashish.

Farzand tarbiyasi – bu ota-onaning nafaqat majburiyati, balki uning hayotdagi eng muhim missiyalaridan biridir. Sifatli vaqt ajratish orqali bola nafaqat muhabbat va mehrni his qiladi, balki o‘zini qadrlangan inson sifatida anglaydi. Bu esa uni kelajakda ijtimoiy faol, ruhiy sog‘lom, mustaqil fikrlovchi va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga asos bo‘ladi.

Sifatli vaqt – bu bolaning kelajagiga qaratilgan eng samarali investitsiyadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi «Oila kodeksi». – T.: «Adolat», 1998.–B.302.
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 3-tom, Toshkent, -704 b.
3. O‘zbekiston Respublikasining Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida‖gi qonun - https: //tergov. uz/uz/childs/ zakon-respubliki-uzbekistan -ogarantijah-prav-rebenka
4. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. – T.: 2006 – 142 b.
5. Fayziyeva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. – T.: 2007. – 144 b.
6. G‘oziev E.G‘. Jabborov A. M. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. T.:, 2003. -124 b.

XORIJ OLIMLARINING ILMIY IZLANIShLARIDA STRESS MUAMMOSI VA UNING OLDINI OLISH USULLARI

Eshmonov Otabek Baxriddin o‘g‘li
SamDU Amaliy psixologiya kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
Usmanova Ruxshona Foziljon qizi
SamDU Amaliy psixologiya yo‘nalishi talabasi
Saloxidinova Leyla Zafarovna
SamDU Amaliy psixologiya yo‘nalishi talabasi
Xamidov Shohzod Toshtemir o‘g‘li
SamDU Amaliy psixologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorij olimlari tomonidan olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida stress masalasi borasidagi fikr-mulohazalari va stressga munosabatlarining xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘z. Stress, stress muammosi, stressli holat, stress va emotsiya.

Annotatsiya. V state rassmatrivayutsya vzglyadы i ustanovki zarubejnых uchenых na problemu stressa, a takje osobennosti ix reagirovaniya na stress na osnove ix nauchnых issledovaniy.

Klyuchevoe slovo. Stress, problema stressa, stressovaya situatsiya, stress i emotsii.

Annotation. The article examines the views and attitudes of foreign scientists on the problem of stress, as well as the characteristics of their response to stress based on their scientific research.

Keyword. Stress, stress problem, stressful situation, stress and emotions.

Zamonaviy psixologik adabiyotlarda “stress” va “stressga barqarorlik” atamalarining turli izohlari keltirilgan. Ingliz tilida tarjima qilingan “stress” so‘zi “iskanjaga olish, bosim, zo‘riqish” ma’nolarini bildiradi. Psixologik lug‘atda stressga quyidagicha izoh berilgan: “inson yoki hayvonning kuchli ta’sir ostida paydo bo‘luvchi zo‘riqish holatidir” [6]. B.G.Mesheryakov tomonidan stressga quyidagicha ta’rif berilgan: strees - “insonning kundalik faoliyati jarayonida yuzaga keladigan bir muncha murakkab, qiyin sharoitlarda va muhim vaziyatlarda paydo bo‘ladigan psixik zo‘riqish holatidir”[4].

Shaxsning kundalik hayotida turli muammolarga va murakkab vaziyatlarga duch kelishi tabiiy hol hisoblanadi. Paydo bolgan muammolar stressni yuzaga keltirib chiqaradi. Stresslarning haddan ziyot ortib ketishi inson salomatligining buzilishiga, psixik barqarorlikning izdan chiqishiga sabab bo‘ladi. Stress inson psixikasida bosimni, tanglikni hamda zo‘riqishni keltiradi. Ushbu terminni G.Sele qo‘llagan bo‘lib, uning fikriga ko‘ra, stress organizmga ko‘rsatilgan tashqi ta’sirga nisbatan nospesifik javob reaksiyasi yoki moslashuvning nospesifik simptomi hisoblanadi. Stressga qarshi ko‘rsatilgan ta’sirga bog‘liq holda stress ikki holatda yuzaga chiqadi. Agar stress insonga ijobiy ta’sir qilsa «eustress»,

salbiy ta’sir qilsa «distress» deyiladi. Eustress holati indvidga ijobiy ta’sir qilgan holda uni faoliyatini samarali bo‘lishiga olib kelsa, distress holati esa individga salbiy ta’sir qilgan holda uning psixik zo‘riqishiga sabab bo‘ladi [8].

Bizni fikrimizcha, G.Selening yuqoridagi stress borasida bildirgan fikrlari va ularning har biriga bildirilgan ilmiy psixologik ta’rifi muhim ahamiyat kasb etadi hamda mazkur bosqich bo‘yicha bilimga ega bo‘lish shaxsda yuzaga keladigan stresslarni boshqarish, qarshi kurashish va stressga moslashish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Odatda, stressni uyg‘otadigan omillar nihoyatda ko‘p bo‘lib, ularning ta’sir etish mexanizmlarini har tomonlama o‘rganib chiqish, turli-tuman distresslardan himoyalanishda asqotadi.

Insonning psixik sohasi uning ijtimoiy hayotining faol jarayonida asosiy o‘rinni egallaydi va bunda aynan psixologik stress boshqaruv jarayonida muhim ahamiyatga ega. Psixologik stress shaxs psixikasida yuzaga kelayotgan jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, shaxs tomonidan o‘zining murakkab ekstremal holatini o‘ziga xos ko‘rinishda aks ettirishdan iborat bo‘lgan psixik holat bo‘lib, vaziyatning favquloddaligi, insonning yuzaga kelgan vaziyatga munosabati va uning murakkabligini baholashi bilan belgilanadi. Vaziyatning kutilmaganda o‘zgarishi, tayyorgarlikning yo‘qligi, vaqtni yetishmasligi, ishning yuqori ahamiyatga ega ekanligi, shuningdek, topshiriq uchun shaxsiy mas’uliyat kabi holatlar psixologik stressga olib keluvchi vaziyatlar hisoblanadi [5].

Manipulyatsiya jarayonida shaxs ko‘pincha jiddiy psixologik bosim ostida bo‘ladi, bu esa uning stressga qarshi chidamliligini oshirishi mumkin. Bunday tajriba shaxsni kelajakda yanada kuchliroq va bardoshliroq qilishga olib keladi. Manipulyatsiyaning bu xususiyatini biz qisman ijobiy deb hisoblashimiz mumkin , ammo bu ko‘proq davom etsa shaxsni hissiy zo‘riqishi tufayli charchash, bosimlar ta’sirida salbiy holatlarni keltirib chiqarishini ham yoddan chiqarmasligimiz zarur.

Manipulyatorlar ko‘pincha boshqalarning xatti-harakatlarini boshqarish uchun nozik strategiyalarni qo‘llaydi. Bunday sharoitda odam o‘ziga yoki boshqalarga ta’sir ko‘rsatish strategiyalarini o‘rganishi mumkin. Bu odamning jamiyatda o‘z maqsadlariga erishish uchun psixologik strategiyalarni tezda ishlab chiqishiga yordam berishi mumkin. Biroq, bu ijobiy ta’sirlar faqat qisqa muddatli bo‘lishi va uzoq muddatda manipulyatsiya shaxsning ruhiy salomatligiga zarar yetkazishi mumkin.

Manipulyatsiya mexanizmi ishga tushishi uchun soxta reallik yaratiladi, mana shu nuqtada manipulyatorga ommaviy axborot vositalari yordamga kelishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari auditoriyaga ma’lumot shaklidagi tayyor xulosalarni uzatadi, keyinchalik esa bu qarashlar odamlar tomonidan shaxsiy xulosalari sifatida o‘zlashtiriladi.

Odamlar manipulyator tomonidan da’vat etilgan o‘sha hatti-harakatlarni amalga oshirganda buni hatto payqamaydi ham, negaki bularning barchasini o‘z xohish-irodalari bilan bajarayotganlik tasavvuri ularga allaqachon singdirilgan bo‘ladi.

Odamlar o‘zlarining bolalik davridagi xatti-harakatlari ta’sirida balog‘atga yetishadi. Misol uchun, bola ota-onalar tomonidan notog‘ri tarbiyalangan. Bolaga ota-ona tomonidan to‘laqonli mehr, e’tibor, diqqat berilmagan va bolalar ota-onasining e’tiborida bo‘lish uchun yig‘lash, harhasha qilish, yoki kasal bo‘lishgan, shunda u ota-onasidan e’tibor ko‘rgan. Asta-sekin odam ko‘z yoshlari bilan xohlagan narsasiga erisha olishiga o‘rganib qoladi va bu ssenariyni oiladan tortib to ishgacha barcha sohalarda o‘ynaydi. Bunday harakatlar ularning bolaligida to‘laqonli diqqat markazida bo‘lmaganliklari sababli kelib chiqishi, keyinchalik bola shaxsiy hayoti davomida juda ko‘plab travmalar ta’sirida yetuk shaxs bo‘lib yetishishiga va ijtimoiy hayotda boshqa shaxslar bilan muloqot jarayoniga salbiy ta’sirlar ko‘rsatadi.

Xulosa.

Ushbu maqolamizda xulosa qilib shuni aytamizki, ijtimoiy hayotda manipulyativ harakatlar kishilar o‘rtasidagi muloqot va munosabatlarga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday harakatlar odatda shaxsiy manfaatlarni ko‘zlab, boshqalarning ongli yoki ongsiz ravishda xatti-harakatlarini boshqarish orqali amalga oshiriladi. Manipulyatsiya ko‘rinishlari turlicha bo‘lishi mumkin — so‘z

bilan ta’sir qilishdan tortib, hissiy bosim, yolg‘on yoki yolg‘on va’dalargacha. Ushbu harakatlarning uzoq muddatli oqibatlari jamiyatda ishonchsizlik, ziddiyat va ijtimoiy ajralish kabi holatlarni yuzaga keltiradi. Shu bois, manipulyativ usullarning farqini anglash, ulardan himoyalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va sog‘lom muloqot madaniyatini rivojlantirish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi. Har qanday holatda ham ijtimoiy munosabatlarda manipulyativ harakatlardan foydalanish salbiy ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shu sababdan bunday harakatlardan foydalanmasdan, to‘g‘ri muloqot ko‘nikmalarini hosil qilgan holda jamiyat rivojlanishiga o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mo‘minov Davronjon Marifjon o‘g‘li. SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA MANIPULYATSIYANING O‘RNI VA AHAMIYATI. 2022
2. Муминов А.Г . Empaty in modern conditions, views factors. Социальных исследования. 2021. —13 с.
3. Qodirov O. Hotamov Sh. Ijtimoiy psixologiya. Samarqand-2023. —8-b.
4. Сергей Кара-Мурза. Манипуляция сознанием.2000.—57 с.
5. Xalmamatova L. A. Boshqaruv psixologiyasi. Toshkent-2021

АНАЛИЗ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, ПРОВОДИМЫХ В УЗБЕКИСТАНЕ ПО ПРОБЛЕМЕ СТРЕССА

Нематов Зафар Зоирович Самгу направление прикладной психологии 302 группа студентка
Ахтамов Хасан Акбар оглы Эшманов Отабек Бахриддин сын
Преподаватель кафедры прикладной психологии Самаркандского государственного университета, доктор философии по психологии
Самгу направление прикладной психологии 302 группа студентка

Аннотация. В данной статье освещены результаты научных исследований, проведенных многими узбекскими психологами в связи с тем, что проблема психологического исследования связана со степенью стрессоустойчивости в том, в какой степени человек может управлять своим поведением в стрессовой ситуации или психологическая защита себя в стрессовой ситуации определяется индивидуально-психологическими особенностями личности.

Ключевое слово. психологическое напряжение, депрессия, нервозность, суицидальное поведение, стрессы,черты личности, стрессоустойчивость.

Annotation. In this article, the results of scientific research carried out by many Uzbek psychologists on the problem of psychological research on the problem of stress stability level in order to find out to what extent a person can control his behavior when he is in a state of stress or to psychological protection of himself in a stressful state-situation is determined by individual-psychological characteristics of

Keyword. psychological distress, depression, irritability, suicidal behavior, stress, personality traits,stability to stress.

Проблемы стрессоустойчивости и стрессоустойчивости в нашей стране как проблема психологического исследования многими узбекскими психологами были проведены научные исследования в связи с такими психологическими понятиями, как психологическое напряжение, депрессия, нервозность, суицидальное поведение. Исследование некоторых психологических аспектов проблемы стресса первоначально проводилось г.В.В исследовательских работах шоумарова и его учеников по проблеме изучения суицидального поведения у узбекских женщин и его причин особое внимание уделяется таким эмоциональным аспектам, как стресс, депрессия, подавленность. В Том Числе Б.Умаров и Е.В научно-исследовательской работе Усмановых приводятся сведения о проблеме суицидального поведения, ее аспектах в анализе причин и последствий. Известный ученый В.М.В своих научных работах Каримова высказывает следующие соображения относительно психологии стрессоустойчивой личности: “личности, приспособленные к внешней среде, уравновешенные в своих психических характеристиках, не теряют своей идентичности ни при каких обстоятельствах, реагируя на воздействия меняющейся среды с присущей им стабильностью и терпением” [1]. R.S.B исследовательской работе Самарова представлены данные, связанные со стрессовым состоянием. В частности,” степень, в которой человек может контролировать свое поведение, когда он находится в состоянии стресса, или психологическая защита себя в стрессовой ситуации-ситуации, определяется индивидуально-психологическими характеристиками человека “ [2]. B.N.B своих научных исследованиях сырлиев высказывает следующие соображения по этой проблеме: ... одни и те же внешние события могут иметь или не иметь стрессогенные эффекты для некоторых разных людей, в зависимости от процесса и возможности индивидуальной когнитивной оценки степень стрессогенного воздействия определяется в зависимости от важности внешнего события для конкретного субъекта [3]. Также обратную связь по проблеме стрессоустойчивости и стрессоустойчивости дает м.G.Давлетшин, Г.В.Шоумаров, Е.Г.Газиев, В.М.Каримова, Н.А.Сагинов, С.А.Ахунжанова, З.F.Камалетдинова, Б.М.Умаров, Е.Усманов. Z.T.Нишонова, Е.Усманова, Р.I.Суннатова, Н.G.Камилова, Л.Назирова, Ф.Е.Мы видим, что газиевы указали в своей научно-исследовательской работе.

R.A.Научно-исследовательская работа Абдурасулова посвящена вопросам становления личности в спорте, в ней исследуется роль спортивной подготовки в формировании личности школьников-спортсменов. По результатам исследования учащихся, активно занимающихся восточными единоборствами и боксом, в этих видах спорта отмечается снижение таких черт личности школьника-спортсмена, как нервозность, психическая агрессия, душевные страдания, слабое проявление женственности, асоциальности и других черт, а также повышенная активность в процессе общения и деятельности у школьников-спортсменов, понимание друг друга в межличностных отношениях., положительное влияние на формирование у них таких качеств, как самоконтроль, любознательность, эмоциональность, незащищенность, подавленность, освещены результаты, полученные в отношении положительного воздействия на снижение частоты депрессии [4]. О.Е.Исследовательская работа Хаитова сосредоточена на проблеме управления стрессом как структурной составляющей психологической компетентности руководителей, в которой упор делается на проявление управления стрессом как социально-информационной составляющей психологической компетентности руководителей. По мнению автора, хотя руководитель среднего звена видит и чувствует эмоциональное истощение своих сотрудников, он не может развить в себе компетенцию “Управления стрессами”, поскольку он сам находится в таком же состоянии [5]. Итак, исходя из соображений автора, стоит сказать, что важно, чтобы руководитель ощущал симптомы стресса у себя и своих сотрудников, чтобы определить, возникает ли этот стресс, какие факторы его вызывают. У руководителя, выявившего причины возникновения стресса, появляется возможность внедрять новшества в работу, снижать влияние ее негативных факторов, а также изменять психологический климат в своем коллективе. P.S.Научные исследования Эргашева сосредоточены на вопросе феномена чувства симметрии, его диагностике и коррекции, в которых акцент делается на свойстве личности проявляться в эмоциональном отношении к удовлетворению потребности в завершенности, целостности, регуляции в структуре симметрии. По мнению автора, при неадекватно высоком уровне претендента эмоциональное отношение к симметрии формируется на основе положительного взгляда на состояние равномерной симметрии и отрицательного-на асимметрию, однако при неадекватно высоком уровне претендента такая однородность не отмечается. Кроме того, когда уровень спроса находится в адекватном состоянии, роль отрицательной оценки асимметрии по отношению к симметрии статистически сводится к минимуму. Формирует у студентов общее представление о симметрии на основе строгих процедур и требований в высшем учебном заведении [6]. N.Z.Исследовательская работа Исмаиловой посвящена теме психологические детерминанты повышения стрессоустойчивости у студентов, она эмпирически изучила у студентов стрессоустойчивость и

самооценку, толерантность, возможность применения активных или пассивных методов копинг-стратегии. Результаты анализа, полученные на основе исследования, показали, что существует значительная взаимосвязь между самооценкой учащихся и психологическими детерминантами стрессоустойчивости с толерантным отношением к стрессовым ситуациям. Автор, опираясь на результаты исследования, отмечает, что важную роль как детерминанты повышения стрессоустойчивости играют самооценка учащихся, толерантность к фрустрации, взаимосвязь поведенческих стратегий. Разработанная программа психологического тренинга включала когнитивные, аффективные, конативные, физиологические компоненты и заключалась в том, что она служит для повышения стрессоустойчивости учащихся. Это также помогает формировать, а также улучшать навыки устойчивости к стрессу у студентов на основе психологического воздействия на детерминанты, влияющие на устойчивость к стрессу [7]. Z.S.Научно-исследовательская работа элова посвящена проблеме социально-психологических механизмов проявления мотивации суицидального поведения у сотрудников органов внутренних дел, в которой подчеркивается возможность суицида человека в состоянии сильного стресса, а также депрессивное состояние как одно из основных психологических состояний, провоцирующих суицидальное состояние. Автор на основании результатов исследования научно обосновал показатели корреляционной взаимосвязи уровней депрессии и механизмов психологической защиты у сотрудников органов внутренних дел. Также в диссертационной работе дается научное обоснование того, что случаи суицидов, совершаемых сотрудниками органов внутренних дел, находятся на более высоком уровне по личным факторам, чем по профессиональным [8]. Стоит сказать, что разработанная автором программа коррекции суицидальных ситуаций среди сотрудников внутренних дел может быть эффективно использована для организации квалифицированной профессиональной помощи депрессивным сотрудникам, выявления и устранения причин возникновения проблемы. Z.H.Файзиев провел научно-исследовательскую работу на тему Социально-психологические механизмы коррекции эмоционального состояния спортсмена в казусных ситуациях. В результате его исследовательской работы было отмечено, что казусные ситуации-это реальность, оказывающая сильное влияние на деятельность спортсменов, вызывая эмоциональную нестабильность, нервозность в процессе тренировок и во время игры, особенно такие эмоциональные состояния, как стресс, аффект, депрессия, а также что разработка и совершенствование эффективных форм психологической защиты, устраняющих казусные ситуации, приобретают важное значение. При этом спортсменам рекомендовались тренировочные занятия, которые устраняют казусную или стрессовую ситуацию, уменьшая последствия стресса, то есть повышают уверенность в себе, принятие других, физическое здоровье, контроль стресса и практическое психологическое расслабление [9]. В

заключение следует отметить, что в научных исследованиях, проведенных зарубежными и отечественными учеными на основе теоретического анализа проблемы стресса и его проявлений, отмечалось, что стресс оказывает психическое отражение на внешние воздействия, в случае стресса-это избыток физической и психической нагрузки, негативное влияние деструктивных идей на состояние стресса, влияние стрессового состояния на функционирование личности, влияние стресса на состояние личности. проявления эмоциональной чувствительности и фрустрации, стрессоустойчивости, толерантность к фрустрации, а также особенности копинг-стратегии были научно теоретически изучены, даны выводы и рекомендации. Но вопрос о влиянии стрессовых состояний на работоспособность спортсменов является одной из проблем, не изученных в области психологии.

Ссылки 1.

1. Каримова В.М. Психология здоровья. – Т. 2006.- 243 С.

2. Самаров Р.S.Военная профессия-почетная профессия. Т.Узбекистан Ф.А. издательство. 2006. – 129 С.

3. Сирлиев Б.N. Стресс и агрессия . / учебное пособие. –Т.2013. -72 С.

4. Абдурасулов Р.А. Роль спортивной подготовки в формировании личности учащихся - спортсменов (на примере видов единоборств). Психол. Ан.док. diss.Автореф. –Т. 2018.

5. Хаитов О.Е. Институт моделирования психологической компетентности руководителей среднего звена. Психол.наука.док.(DsC)des. автофургон.-Т., 2020.

6. Эргашев. Р.S. Феноменологический анализ, диагностика и коррекция чувства симметрии. Псих.наука.док.(DSc) disser. Автореф. Т.,2018. 7.Исмаилова Н.Z.. Психологические детерминанты повышения стрессоустойчивости у учащихся. Психол. f.f.d.(PhD) diss.Автореф. Ташкент., 2020.

8. Елов З.S. Социально-психологические механизмы проявления мотивации суицидального поведения у сотрудников органов внутренних дел. Психология Ф.f.d.(PhD) diss.Автореф. Ташкент.,2021.

9. Файзиев З.Н. Социально-психологические механизмы коррекции эмоционального состояния спортсмена в казусных ситуациях.Психол.f.f.d.(PhD) diss.Автореф. Бухара., 2020.

СИСТЕМА ПЕДАГОГИЧЕКОГО НАСТАВНИЧЕСТВА В КРАСНОЯРСКОМ КРАЕ

Н.А.Фролова, руководитель Регионального центра наставничества, Красноярск, Красноярский край, Россия, rcn@kpk1.ru

Т.А.Алексеева, директор КГБПОУ «Красноярский педагогический колледж №1 им. М. Горького»,

К.А.Руцкая, кандидат педагогических наук, доцент кафедры ИТОиНО ИППС ФГАОУ ВО «Сибирский федеральный университет», Красноярск, Россия, e-mail: kbazhenova@sfu-kras.ru

О.Т.Кобыльцова, методист Регионального центра наставничества Красноярск, Красноярский край, Россия

В условиях высокого спроса на новые навыки и компетенции наставничество становится неотъемлемой частью стратегии развития отраслей экономики, способствует повышению социальной значимости профессий, производительности труда и привлекательности регионов. В условиях дефицита педагогических кадров в образовании особое значение приобретают технологии педагогического наставничества. Отдельные практики наставничества в разных отраслях широко представлены в текстах сотрудников организаций, учёных. В тексте представлены опыт реализации региональной системы педагогического наставничества.

В Красноярском крае внедряется Региональная целевая модель наставничества, включающая в себя шесть направлений. Педагогическое наставничество является ключевым направлением и охватывает образовательные организации дошкольного, общего среднего, дополнительного и среднего профессионального образования региона. Под наставничеством мы понимаем: «форму обеспечения профессионального становления, развития и адаптации к квалифицированному исполнению должностных обязанностей лиц, в отношении которых осуществляется наставничество». [3]

Система педагогического наставничества включается в себя следующие элементы: содержание (совокупность кадровых задач, которые позволяет решать система); информационные (информационные ресурсы о наставничестве); организационные (инфраструктурные элементы образовательных учреждений разных типов и края, ключевые мероприятия для консолидации и распространения опыта наставничества в регионе, нормативно-правовая база, механизмы мотивации); управленческие (функциональные звенья системы наставничества в регионе).

В системе педагогического наставничества в Красноярском крае можно выделить следующие ключевые задачи, которые успешно решаются в образовательных организациях благодаря технологии наставничества. Адаптация молодых специалистов в среде образовательного учреждения как к укладу, выполнениям трудовых функций; формирование коллектива новой школы; планомерное преодоление профессионально-методических

дефицитов молодыми педагогами; профессионализация молодых педагогов в малокомплектной школе. Помимо перечисленных задач, особое место занимают кадровые задачи адаптации педагогов, не имеющих педагогического опыта; организация обучения педагогов методам инклюзии в организации. В регионе есть прецеденты функционирования муниципальной системы наставничества, позволяющей использовать потенциал города для решения перечисленных выше кадровых задач [2].

На уровне Красноярского края организован цикл мероприятий для поддержки практик педагогического наставничества: краевой конкурс «Лучшие практики наставничества», Форум PROнаставничество, курсы повышения квалификации для наставников и кураторов; слёт лидеров-наставников, аттестация педагогов-наставников. Краевой конкурс позволяет консолидировать информацию об успешных практиках наставничества в области образования региона. [2] В течение трёх лет проведения Конкурса, 54% коллективов представили педагогические практики наставничества.

Всероссийский Форум PROнаставничество позволяет широкому кругу представителей образования, производства и бизнеса познакомиться с текущими кадровыми вызовами, а также обменяться технологическими средствами наставничества, найти партнёров из разных отраслей для сетевого взаимодействия. Анкетирование участников Форума–2024 показало, что для наставников и кураторов наставничества в образовательных организациях площадки Форума позволяют: пополнить методическую копилку и заимствовать приёмы, методики наставничества от представителей других областей (78% участников); «увидеть» потенциальных партнёров для сотрудничества в области реализации наставничества для студентов (32% участников) и молодых педагогов в СПО (27% участников).

Слёт лидеров-наставников позволяет включить участников в решение ключевых кадровых вызовов, стоящих перед образованием в регионе. Курсы повышения квалификации способствуют оснащению потенциальных наставников и кураторов инструментами, в том числе, использовать описание практик, представленные в сборнике. Программы обучения способствуют развитию эффективных моделей наставничества в регионе. Цикл мероприятий способствует тому, что команды педагогов (куратор, наставник, наставляемый) принимают участие во всероссийских конкурсах наставничества. Это позволяет командам и образовательному учреждению оформлять практику для тиражирования, выделяя универсальные элементы.

Реализация системы наставничества в регионе стала возможна благодаря организационно-управленческим механизмам: поддержка министерства образования Красноярского края, деятельность Регионального центра наставничества Красноярского края (Центр), разработке нормативно-правовой базы [1]. Региональный центр наставничества с 2022 года является опорным центром наставничества,

осуществляет информационную и просветительскую поддержку участникам внедрения региональной целевой модели, содействует распространению лучших наставнических практик в крае, формирует базу данных наставников, кураторов, лучших практик наставничества, реализует программы дополнительного профессионального образования для наставников и кураторов. В 2024 году идея региональной системы наставничества положена в основу регионального стандарта внедрения наставничества [5].

Мониторинг реализации мер наставничества в регионе позволяет сделать следующие выводы. В настоящее время, практики наставничества по отношению к молодым специалистам (стаж работы до 3 лет, возраст до 35 лет) реализуются в Красноярском крае в 87% учреждениях общего образования, в 75% дополнительного образования, в 83% дошкольных образовательных учреждений, в 58% средних профессиональных учреждений. Однако, есть образовательные учреждения, в которых сеть молодые специалисты, но нет практик наставничества. Меры поддержки в системе наставничества объединяются в группы: материальное поощрение наставников и наставляемых (в том числе,); статусные изменения (поддержка и закрепление позиции наставника, награждение почётным знаком); кадровые (вклад в повышение категории); нематериальные (поддержка инициатив наставников, ориентированная на улучшение условий практики наставничества; возможность принять участие в конкурсах; реализовать профессиональные поездки).

Наставничество играет ключевую роль в профессиональной адаптации молодых педагогов, помогая преодолеть профессиональные дефициты и освоить корпоративную культуру учреждения. Современные педагоги формируют образовательную среду, вовлекающую учащихся в исследования и проекты, что требует владения культурой проектной деятельности. Образовательные организации налаживают сотрудничество с предприятиями и вузами для подготовки квалифицированных кадров и успешной интеграции выпускников в профессию.

Развитие системы наставничества на уровне региона будет способствовать адаптации и закреплению молодых специалистов в области образования, позволит педагогам видеть «голубые океаны» профессионального становления и развития.

Список литературы

1. https://rcn24.kpk1.ru – официальный сайт Регионального центра наставничества Красноярского края. Дата обращения: 30.04.2025

2. Лучшие практики наставничества Красноярского края: сборник материалов по результатам краевого конкурса «Лучшие практики наставничества – 2023». –Красноярск, – Издательство «Офсет» – 2024. – 216с. https://rcn24.kpk1.ru/documents/norm?filter=metod Дата обращения: 30.04.2025.

3. Методические рекомендации по разработке и внедрению системы (целевой модели) наставничества педагогических работников в образовательных организациях. Москва, 2021. https://www.sev-iro.ru/files/18.01.2022-metodicheskie-rekomendatsii-po-razrabotke-i-vnedreniyu-sistemy-tselevoy-modeli-nastavnichestva-pedagogicheskikh-rabotnikov-v-oo.pdf Дата обращения: 30.04.2025

4. Региональная целевая модель наставничества для организаций осуществляющих образовательную деятельность по общеобразовательным, дополнительным общеобразовательным программам и программам среднего профессионального образования на территории Красноярского края (Приказ № 590-11-05 от 30.11.2020г.) https://rcn24.kpk1.ru/documents/norm?filter=metod. Дата обращения: 25.04.2025.

5. Региональный стандарт внедрения наставничества /Алексеева Т.А., Фролова Н.А., Руцкая К.А., Рипинская И.К., Окладникова Т.В., Виталева Н.И., Бугакова О.Е., Невоструева Е.Г., Фрицлер Н.А, Кобыльцова О.Т./ Мастерская управления «Сенеж». – 2024. https://rcn24.kpk1.ru/documents/norm?filter=metod. Дата обращения: 25.04.2025

MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH

Ochil SUYUNOV[1]
[1]ISFT instituti Samarqand filiali, ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.
FARIDA HASANOVA[2]
[2]ISFT instituti Samarqand filiali,1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunning dolzarb muammosi - talabalarni mustaqil ishlarini tashkil etishda pedagogik innovatsion shakllardan foydalanishga bag‘ishlangan. Muallif pedagogik innovatsiyalar talabalarning mustaqil ishlarini kompleksli, qiziqarli va harakatli qilishi uchun katta imkoniyatlarni ifodalaydi degan xulosaga keladi.

Kalit so‘zlar: mustaqil ish, innovatsiya, motivatsiya, izlanish, bilish faoliyati, Internet

PEDAGOGICAL INNOVATIONS IN ORGANIZING INDEPENDENT WORK

Abstract: The article is devoted to the current problem – the use of innovative pedagogical forms in the organization of independent work. The author comes to the conclusion that pedagogical innovations represent great

opportunities to make independent work of students complex, interesting and mobile.

Keywords: independent work, innovation, motivation, study, cognitive activity, Internet

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИННОВАЦИИ В ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ

Аннотация: Статя посвящена актуалной на сегодняшний день проблеме – применению педагогических инновационных форм при организации самостоятельной работы. Автор приходит к выводу, что педагогические инновации представляют большие возможности сделат самостоятельную работу студентов комплексной, интересной и мобилной.

Ключевые слова: самостоятелная работа, инновация, мотивация, исследование, познавательная активность, интернет.

Kirish. Bugun mamlakatimizning tezkor rivojlanish davrida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida yaratilgan innovatsion g‘oya, texnologiya va loyihalar ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turini kengaytirish,sarf-xarajatlarni kamaytirish,texnik jarayonlarni avtomatlashtirishga xizmat qilmokda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida innovatsiya va integratsiyaga asoslangan rivojlanish yo‘liga o‘tish ishlari jadal ravishda olib borilmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarga oid siyosatining Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning yangi taxriri yoshlarning puxta bilim olishi, iqtidorini to‘la namoyon etishi,jamiyatda o‘z o‘rnini topishida muhim omil bo‘lmokda, xamda mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash,ta’lim,ilm-fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyalashuvini ta’minlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashga xizmat qilmokda.

Hozirgi zamon dunyosidagi ilmiy-texnik, ijtimoiy va axborot taraqqiyoti inson faoliyatining mazmuni uchun shart-sharoitlarni tubdan o‘zgartirdi. Bu esa umuman pedagogi-kaga ta’sir ko‘rsatmay qolmadi. Zamonaviy jamiyat rivojlanishining yangi shart-sharoitlari o‘qitishning tubdan yangi usul va texnologiyalarini talab qildi. O‘zbekiston Respublika-sining davlat ta’lim standarti joriy va davom etayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarish-lardan so‘ng, ko‘p e’tibor innovatsion ta’lim texnologiyalari deb atalmishga qaratilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ingliz tilidan tarjima qilinganda innovatsiya- bu yangilik. “Pedagogikaning zamonaviy lug‘ati” mualliflari talqinida pedagogik innovatsiya “pedagogik faoliyatda yangilik, ta’lim va tarbiya mazmuni va texnologiyasining o‘zgarishi, ularning samaradorligini oshirish maqsadida”deb ta’riflanadi. Professor V. I. Zagvyazinskiy ushbu tushunchani pedagogik jarayonning alohida tarkibiy qismlarini kiritishni o‘z ichiga oladi.

Mamlakatimiz olimlaridan R.J.Ishmuhamedov, M.Mirsolieva “O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari”, R.J.Ishmuhamedov “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari” nomli ишlarida, innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g‘oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabaror bo‘lish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ishda mavzu talabidan kelib chiqqan holda, metodologik asos sifatida mantiqiy tahlil, analiz va sintez, hamda xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimini o‘rganish maqsadida ilmiy mushohada usullaridan foydalanishni maqsadga muvofiq deb topdik. Talabaning mustaqil ishi aniq bir fandan o‘quv rejasida va fan dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakaning ma’lum bir qismini talaba tomonidan fan o‘qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o‘zlashtirilishiga yo‘naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi o‘qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo‘lgan biror mavzu bo‘yicha vazifa tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo‘shimcha adabiyotlardan va internet ma’lumotlaridan foydalanib materiallar yig‘adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo‘yicha imkon darajasida to‘liq, keng ma’lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o‘qituvchidan maslahat oladilar. Mavzu bo‘yicha referat kompyuterda tayyorlanib fan o‘qituvchiga topshiriladi. Topshirilgan vazifaning mazmuni, olingan ma’lumotlarning boyligi va boshqa belgilari bo‘yicha fan o‘qituvchisi talabani baholaydi.

Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- kerakli ma’lumotlarni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlashi;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanishi;
- an’anaviy o‘quv va ilmiy adabiyotlar, me’yoriy xujjatlar bilan ishlashi;
- elektron o‘quv adabiyotlar va ma’lumotlar banki bilan ishlashi;
- internet tarmog‘idan maqsadli foydalanishi;
- berilgan topshiriq va vazifalarning ratsional yechimini topishi;
- ma’lumotlar bazasini tahlil etishi;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlashi;
- topshiriq va vazifalarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashishi;
- ishlab chiqilgan yechim, loyixa yoki g‘oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

Talabalarning mustaqil ishini nazorat qilib borish kafedrada tuzilgan va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan maslahatlar jadvali asosida amalga oshiriladi.

Talabalar mustaqil ishini nazorat qilish fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini olib boruvchi professor-o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talaba mustaqil ishi uchun o‘quv rejada ajratilgan vaqtga mos ravishda har bir fan bo‘yicha tegishli kafedralarda mustaqil ishning tashkiliy shakllari, topshiriq variantlari ishlab chiqiladi va kafedra majlisida tasdiqlanadi.

Mustaqil ishni bajarish uchun har bir fan bo‘yicha talabalarga ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi hamda tarqatma material sifatida fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga yetkaziladi

Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlarga e’tibor berish lozim:

•o‘qish bosqichi, ya’ni talaba qaysi kursda o‘qiydi;

•muayyan fanning o‘ziga xos xususiyati va o‘zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;

•talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi;

•fanning axborot manbalari bilan ta’minlanganlik darajasi;

•talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi oddiydan murakkabga qarab o‘zgarib borishi lozim. Ya’ni talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasi asta-sekin oshib borishi lozim.

Har bir fan bo‘yicha talabaning mustaqil ishi soati o‘quv rejada ko‘rsatilgan bo‘lib, bu soatlar ishchi o‘quv dasturida mavzular bo‘yicha taqsimlangan bo‘lishi kerak. Agar biror bir fan bir necha semestr davom etsa, mustaqil ish soatlari ham semestr bo‘yicha taqsimlanishi va bu o‘quv dasturida o‘z aksini topishi kerak.

Tahlil va natijalar. Pedagogik innovatsiyalar ta’lim siyosatini yangilash vositasi bo‘lib, mustaqil ishlarni tashkil etishda eng samarali ekanligi isbotlandi. Bularga quyidagilar kiradi: - istalgan mavzudagi materiallarga masofadan yoki mahalliy kirishni ta’minlovchi elektron kutubxona tizimlari (EKT). Elektron kutubxona tizimi tarkibiga darsliklar, ma’ruzalar, monografiyalar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, modullar va boshqalar kiradi. Bunday tizimlar ham axborot, ham ta’lim markazi rolini o‘ynaydi. Zamonaviy sharoitda ular talabaning axborot madaniyati, dunyoqarashi va bilim va ko‘nikmalari tizimlarini shakllantirib, maqsadga muvofiq mustaqil faoliyat ko‘rsatadilar.

Bunday mashhur kutubxona tizimlari quyidagilar kiradi: Internet sayt resurslari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: http://www.ziyonet.uz; http://www.knigafund.ru; http://www.biblioclub.ru; http://educom.su, http://www.library.ru.

O‘quv rejasiga muvofiq o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan o‘quv internet resurslari talabalarning mustaqil faoliyati uchun cheksiz imkoniyatlar ochib beradi. Shuningdek, ular turli axborotlarni qayta ishlash, qidirish va taqdim etish vositasi sifatida harakat qiladilar; turli xil muqobil nuqtai nazarlar orasidan tanlash imkonini beradi.

Internetda juda ko‘p ta’lim resurslari mavjud, bu erda mustaqil ta’lim olish uchun bir nechta misollar mavjud: tadqiqot markazlari va etakchi kutubxonalar, muzeylar, etakchi kompaniyalarning veb-saytlari, turli tahliliy sharhlar, gazetalar, jurnallar, yangiliklar va o‘quv sahifalari,turli ko‘nikmalar va tinglash ko‘nikmalarini tayyorlash uchun saytlar, har qanday mavzuni qamrab olgan video resurslar har qanday bosma nashrlar hajmidan ko‘proq darajada oshib ketgan. Bu esa materialni chuqur o‘rganish va o‘zlashtirish, muayyan masala, muayyan intizomni o‘rganishda talabaning amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish imkonini beradi. O‘qituvchi uchun onlayn ta’lim resurslarining mavjudligi,ya’ni u erda taqdim etilgan materiallardan mustaqil ishlarning guruhli va individual vazifalarini tuzish uchun foydalanishga keng imkoniyatlar ochuvchi bu - online o‘quv daftaridir

Ushbu ishlanma etuk universitetlar matbuot nashriyotining qog‘oz muhiti bo‘lmagan taqdirda turli vazifalarni bajarishga imkon bergan. Ushbu ish shakli talabalar uchun qiziqarli, samarali va jozibali bo‘lib, o‘qituvchiga individual talabaning va butun guruhning rivojlanish dinamikasini- virtual laboratoriyani osongina kuzatish va kuzatish imkonini beradi.

Bu ish shaklini ko‘plab yirik nashriyotlar, masalan, Pearson nashriyotidan myenglishlab taklif qilishgan. Bunday laboratoriyalar o‘qituvchilarga ma’lum bir talaba tomonidan materialni o‘zlashtirish darajalari bo‘yicha tabaqalashtirilgan o‘quv materiallari bazasiga kirishni ta’minlaydi. Laboratoriya o‘qituvchiga o‘quv materialini o‘zlashtirish natijalari asosida talabaning uzlashtirib borishini kuzatish va ularning ish dasturini takomillashtirish imkonini beradi.

Bunday virtual laboratoriya talabaga o‘quv intizomini tegishli darajadagi va shakllantiruvchi kompetensiyalar va o‘quv ko‘nikmalari materiali bo‘yicha qulay vaqtda tako-millashtirish va o‘zlashtirish imkonini beradi. O‘qituvchi uchun mustaqil ishlarni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish - talabalarni vazifalarni bajarishini avtomatlashtirilgan tarzda tekshirish va nazorat qilish uchun keng ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar: Innovatsion faoliyat o‘qituvchiga mustaqil ishning o‘zaro bog‘liq shakllari tizimini ishlab chiqish imkonini beradi:

- ma’lumotlar bazasini tanlash;
- haqiqiy, tarixiy va xronologik materiallarni tahlil qilish;
- tadqiqot, xulosa, erishilgan natijalar nashr;
- tematik aloqa (talabalar maslahatlar forumlarda ishtirok, hayot tajribalarini almashish, va bir-birini qo‘llab-quvvatlash).

Bu esa talabani yangi bilim olishga, yangi loyiha ishlab chiqishga, shaxsiy tajriba orttirish va malaka oshirishga undaydi .

YUqoridagilardan kelib chiqib, pedagogik innovatsiyalar talabalarning mustaqil ishlarini amalga oshirish uchun turli tezkor, qiziqarli, harakatchan imkoniyatlarni ifodalaydi va mamlakatimizda ta’lim tizimini takomillashtirish va jadal rivojlantirishga yordam beradi, degan xulosaga kelish mumkin.

Foydalanilgan Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O‘Quv Jarayonida Innovatsion Ta’lim Texnologiyalari. – T.: «Fan Va Texnologiya», 2014.

2. Voinova M.G. Pedagogicheskie Texnologii I Pedagogicheskoe Masterstvo. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2015

3. Suyunov O.J. Using The Basis Of Pedagogical Skills In Organizing The Educational Process . Nauchnыy Jurnal «Arxivarius» Tom 7, № 4 (58)/2022 Issn 2524-0935, Kiev-2022.

4. Suyunov O.J. . *Innovatsii-Zalog Uspeshnosti Deyatelnosti Organizatsii Jurnal Science And Innovation. 11.12.2022doi:Https://Doi.Org/10.5281/Zenodo.74241491.*

5. Suyunov O.J. *Vzaimosvyaz Mejdu Uverennostyu V Sebe I Lichnostnыmi Osobennostyami U Studentov. Jurnal Science And Innovation 11.12.2022doi:Https://Doi.Org/10.5281/Zenodo.74241491.*

OLIY TA’LIMDA MUAMMOLI MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Ochil SUYUNOV[1]
[1]ISFT instituti Samarqand filiali,
ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.
Amira Asatullayeva ISFT Magistranti

Annotatsiya: “Muammoli mashg‘ulotlarni tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari” deb nomlangan maqolada muammoli ta’lim darajalari, xususiyatlari va muammoli vaziyatlarning turlari tahlil etilgan bo‘lib, muammoli ta’lim asosida darslarni tashkil etish zarurati asoslanadi.

Kalit so‘zlar:Bilim, vaziyat, vaziyatli tahlil, kasb, muammoli vaziyat, ta’lim olish, ta’lim berish, o‘qitish, evristik o‘qitish, modulli o‘qitish, intellekt, o‘qitish turlari.

Аннотация:В статье под названием “Особенности организации проблемных занятий” рассматриваются вопросы, уровни проблемного обучения и создания проблемных ситуаций, а также необходимости проблемного обучения в настоящее время.

Ключевое слово:образование, ситуация, ситуационный анализ, профессия, проблемная ситуация, обучение, эвристическое обучение, модулное обучение, интеллект.

Annotation: In article under the name “The specification of organization problemthe practical lessons” are considering questions, levels of problem

education creating problem situations, also necessity of the problem education in present tim

Key words: know ledge, situation, situational analysis, profession, problematic situation, education, training, hecristic teaching, modular training, learning education

Kirish. Bugungi kunda har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi.Tarix shundan dalolat beradiki, inson o‘zining aql-zakovati bilan dastlabki mehnat qurollarini o‘ylab topishdan, algoritm va nanozarralar, zamonaviy innovatsion kompyuter va boshqa yuqori texnologiyalarni kashf etishgacha bo‘lgan murakkab yo‘lni bosib o‘tdi.

“Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejizga emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”.

Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning muhim sharti mazkur jarayonga rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida foydalanib kelinayotgan innovatsiyalarni mamlakatimiz ta’lim muassasalarining o‘quv jarayoniga tadbiq etish ya’ni professor-o‘qituvchilarimizga quyidagi dars turlarini tavsiya etishdan iborat:

-ma’ruza (kirish ma’ruzasi, mavzuli ma’ruza, umumlashtiruvchi ma’ruza) mashg‘ulotlari.

-seminar (bilimlarni mustahkamlovchi, yangi bilimlarni mustaqil egallashga mo‘ljallangan) darslari.

-modulli dars.

-muammoli (aqliy hujum) darslar.

-munozarali (ilmiy munozara va erkin fikrlash) darslar.

-didaktik–o‘yinli (syujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, konferensiyalar, o‘yin mashqlar) darslar.

-sinov (didaktik kartochkalar, test topshiriqlari, o‘zaro nazorat varag‘i yordamida AKT nazorat dasturlari vositasida o‘tkaziladigan) darslari.

Mazkur darslarning o‘ziga xos jihati dars davomida vujudga keltiriladigan muammoli vaziyatlarga asoslanadi.

Muammoli o‘qitishmng mohiyatini o‘qituvchi tomonidan talabalarning o‘quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o‘quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o‘zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Muammoli o‘qitish takomillashtirilgan o‘qitish texnologiyasidir. Hozirgi oliy maktabdagi samarador o‘qitish texnologiyasi - bu muammoli o‘qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini

shakllantirishdir. Muammoli o‘qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi. Muammoli o‘qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o‘qitishning reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o‘sib boradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Muammoli ta’lim texnologiyasi juda qadim zamonlardan shakllanib kelmoqda. Jumladan, qadimgi Grestiyada muammoli savol-javoblar, qadimgi Hindiston va Xitoyda muammoli bahs-munozaralardan keng foydalanilgan. Muammoli ta’limni amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Dj. Dyui 1894 yilda Chikagoda tashkil etgan tajriba maktabida qo‘llagan. XX asrning 60-yillarida bu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borildi. 70-80-yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etildi.

Muammoli ta’limning asosiy g‘oyasi bilimlarni o‘quvchilarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo‘yicha o‘quv-tadqiqotlarini bajarish asosida o‘zlashtirilishini ta’minlashdan iborat[2].

J.Dyui muammoli ta’lim asosi sifatida quyidagi yo‘nalishlarni belgilagan:

-Ijtimoiy;

Konstruktiv;

Badiy ifodaviy;

Ilmiy tadqiqot.

O‘tgan asming 60-yillarida muammoli ta’lim L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Y.Lerner kabi tadqiqotchilarning qarashlari negizida yanada rivojlangan. S.L.Rubinshteynning “Tafakkur muammoli vaziyatdan boshlanadi” degan g‘oyasi muammoli ta’limning psixologik asosi sifatida qabul qilingan.

Professor N.Azizxo‘jaeva muammoli vaziyatning ma’nosini quyidagicha ta’riflagan: muammoli vaziyat o‘quvchi-talabalarga ma’lumotlar, bilimlar bilan yangi dalillar, hodisalar, vaziyatlar orasidagi dialektik qarshiliklar bo‘lib, ularni tushunib olish uchun ilgari olgan bilimlarining yetishmasligidir.Bu qarama-qarshiliklar tushunmovchiliklar ijodiy bilimlarni o‘zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek N.Azizxo‘jaeva ta’lim jarayonida muammoli masalalarni yechimini topishda quyidagi fikrlarni ham ko‘rsatib o‘tgan:

O‘quvchi-talabalar o‘z oldilarida turgan masalaning yechimini topa olmaydi, muammoli savol yuzaga kelganda unga o‘z vaqtida javob bera olmaydi, yangi mavzuni tushunishda ancha qiyinchiliklarga duch keladi.

O‘quvchi-talabalar oldin egallagan bilimlarini yangi sharoit va vaziyat yuzaga kelganda qo‘llay olmaydi.

Ularning muammoni nazariy yo‘l bilan hal etish va bu tanlangan usulni amalga oshirishi o‘rtasida qarama-qarshiliklar vujudga keladi.

O‘quvchi-talabalar amalda bajargan topshiriq natijalari bilan o‘zlarining nazariy jihatdan tushunib yetishlari o‘rtasida bilimlarining yetishmasligi ham muammoli vaziyatlar yuzaga kelishiga olib keladi.

Pedagogik muloqot deganda, odatda, o‘qituvchining o‘quvchi bilan dars mobaynida va darsdan tashqari bo‘ladigan aniq pedagogik funksiyalarga ega va

qulay psixologik muhitni yaratish, shuning bilan birga, boshqa xildagi psixologik optimal ilmiy faoliyat va pedagog bilan o‘quvchilar uchun o‘rtadagi munosabatlar uchun yonaltirilgan professional muloqot shakli tushuniladi (A.A.Leontev).Muammoli ta’limning bir necha turlari mavjud. Masalan,M.N.Skatkin o‘z ishlarida muammoli ta’limning quyidagi turlari borlig‘iga urg‘u beradi[3]:

Bilimlarni muammoli bayon qilish (muammoli ma’ruza);

Muammoli topshiriqlarni bayon qilish (muammoli amaliy mashg‘ulot).

Kichik ilmiy tadqiqotlarni olib borish (muammoli tajriba).

Muammoli ta’limning asosini muammo (yunoncha “to‘siq”, “qiyinchilik”) yoki muammoli vaziyat tashkil etib, muammoli ta’lim texnologiyalari ularning yechimini topishga xizmat qiladi. Ko‘p holatlarda muammo va muammoli vaziyat sinonimlardek qabul qilinadi. Aslida esa ular bir biridan farq qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mavzuni tanlash va bo‘lg‘usi ma’ruza yoki axborotni tayyorlashda ularga nisbatan shunchaki o‘qituvchi, talaba deb qaramaslik kerak, balki ularni seminarda muhokama qilinadigan mavzuning ahamiyatini, dolzarbligini fikrlashga, o‘quv fanini keyinchalik muvaffaqiyatli egallash uchun uni chuqur o‘rganishi lozimligini anglashga, bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatining hozirgi ijtimoiy, ilmiy muammolarini rejalashtira olish darajasiga olib kelish zarur. Bunda vaqtni tejash, tashkiliy ishlarni jadallashtirish uchun talabalarga mavzu bo‘yicha adabiyotlarni, imkoni boricha, mavzulari, paragraflari va sahifalarini ko‘rsatgan holda tavsiya etish lozim.

Zaruriyat tug‘ilganda, unga savollar qo‘yish, talaba esa bu suhbatdan so‘ng tegishli tuzatishlar qilish lozim bo‘ladi. Shuningdek, shunday savollarni ham berish kerakki, talaba bu savollarga o‘z chiqishida javob bersin. Ayni o‘rinda talabaning seminarda ma’ruza qilish uslubi ham muhokama qilingani ma’qul.

Bilimlar yuzaga chiqarilgan va ayrim tuzatishlar qilingandan so‘ng talabalarning ma’ruza va axborotlar bilan chiqishlari tashkil etiladi. O‘qituvchi talabaning materialni mantiqiy bayon qila olishini, uni bayon qilish usulini, talabalarning unga bo‘lgan e’tiborini kuzatib boradi. Ma’ruzaning mazmunini bayon qilish yoki muhokamaning borish jarayoni talabalarni zeriktirib qo‘yganda yoki aksincha, undagi ayrim masalalarga qiziqish kuchli bo‘lganda hamda uni muhokama qilish zaruriyati tug‘ilganda, hurmatini saqlagan holda ma’ruzachini biroz to‘xtatib, seminarni jamoa muxokamasiga aylantirish maqsadga muvofiqdir.

Ma’ruza mazmuni bo‘yicha beriladigan savollarni ikki guruhga ajratish mumkin:mazmunni oydinlashtiradigan savollar va mazmunni rivojlantirishga qaratilgan savollar.Mazmunni oydinlashtiradigan savollarga javoblar ma’ruza bayonidagi ayrim o‘rinlarni takrorlashni talab qiladi, mazmunni rivojlantirishga qaratilgan savollar esa ma’ruzani yanada to‘ldirishni talab qiladi. O‘qituvchi ,avvalo , birinchi guruh savollarni tashkil etadi, undan so‘ng ikkinchi guruh savollarga jamoa bo‘lib javob qidiradi. Mazmunni rivojlantirishga qaratilgan savollarni muhokama qilish ko‘pincha talabalarda turli, muqobil javoblarni ham

yuzaga keltiradi. Bunday javoblarning bo‘lishi xilma–xil nuqtai nazarlarning to‘qnashuviga sabab bo‘ladi va u seminarning munozaraga aylanishiga olib keladi. Seminarni munozara shaklida tashkil etish o‘qituvchining muhim vazifasi hisoblanadi. Munozara shaklida seminar o‘tkazish talabaning fikrlash va muloqot qobiliyatlarining shakllanishi uchun tezkor omil sifatida katta ahamiyatga molikdir.

Har bir ma’ruza muhokamasi uning asosiy qoidalari va muhokama (munozara) natijalarini qayd qilgan holda qisqacha umumlashtirish bilan yakunlanishi lozim. Seminar mavzusining mazmunini xulosalash, ma’ruzachilar va seminar qatnashchilarining tayyorgarlik darajasini, ularning seminar davomidagi faolligini baholash, seminar samaradorligining umumiy bahosi va keyingi seminar mashg‘ulotiga maqsad qo‘yish bilan tugallanadi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda, muammoli o‘qitish mashg‘ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o‘quvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida o‘quvchilar kasbiy bilimlarga, ko‘nikmalarga, malakalarga ega bo‘ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Muammoli o‘qitish, o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu yerda shaxs sub’ekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi -pedagogik jarayonda o‘ziga xos qiziqish uyg‘otishdir.

Muammoli o‘qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo‘ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma’lum muammoga (muammo - murakkab nazariy yoki amaliy masala bo‘lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning yechimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo‘ladi, «gap nimada?» degan savol tug‘iladi. O‘quvchi noma’lum yechimni topish uchun mustaqil yoki o‘qituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo‘luvchi, sub’ekt-ob’ekt-sub’ekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi.

Muammoli o‘qitish, o‘qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantiqi o‘zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi. Muammoli vaziyatlar kiritilib, an’anaviy, bayon etish o‘quv materialining eng optimal tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, o‘quvchini uni yechishga yo‘naltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o‘qitish, ijodiy jarayondan nostandart ilmiy-o‘quv masalalarni nostandart usullar bilan yechishni taqozo etadi. Talabalarga mashq uchun beriladigan masalalar, olingan bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa faqat yangi yechimlar izlashga qaratiladi. O‘quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o‘qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, o‘quvchilar oldiga muammoli masalalar qo‘yadi, ularni yechimining yo‘llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o‘zi yo‘lga boshlaydi. Muammoli o‘qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo‘ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma’lum muammoga (muammo -

murakkab nazariy yoki amaliy masala bo‘lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning yechimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo‘ladi, «gap nimada?» degan savol tug‘iladi.

Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda talaba mashaqqat talab qilgan ob’ekt (tushuncha, fakt)ning unga avval va ayni vaqtda ma’lum bo‘lgan vazifa, masala bo‘yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab yetadi. Muamoli o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari majudki, bu jihatlarni tadqiqotchi B.Aysmontas izohlab bergan. B.Aysmontas bo‘yicha muammoli ta’limning o‘ziga xos yutuq va kamchiliklari mavjud.Yutuqlari Kamchiliklari:

1. Bilimlarni o‘zlashtirishdagi yuqori darajadagi mustaqillik, ta’lim oluvchilarning mustaqil dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi . Talabaning shaxsiy motivatsiya-lari, bilishga doir qiziqishlarini shakllantadi . 3.Talabalarning fikrlash qobiliya-tini rivojlantiradi

4. Talabalarning dialektik tafak-kurining shakllanishi va rivoj-lanishiga yordam beradi, ular tomo-nidan o‘rganilayotgan hodisalar va qonuniyatlardagi yangi aloqadorlikni yuzaga chiqarilishini ta’minlaydi.

Kamchiliklari:

1. Amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllanishda boshqa ta’lim tiplariga qaraganda kam darajada qo‘llaniladi.

2. Boshqa ta’lim turlariga qaraganda bir xil hajmdagi bilimlarni o‘zlashtirish uchun ko‘p vaqt talab etiladi.

Muammoli o‘qitishning mohiyati shundaki, u talabaga tanish bo‘lgan ma’lumotlar va yangi faktlar, hodisalar (qaysiki, ularni tushunishi va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o‘rtasidagi ziddiyatdir. Ziddiyat ma’lum bilimlarni o‘zlashtiruvchi kuchdir.

Muammoli ta’lim bir qancha ijobiy xususiyatlarga ega. U talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Bu esa bugungi axborotlar oqimi davri uchun o‘ta muhim. Fikrlash refleksni, ijodkorlikni va qiziqishni rivojlantiradi. O‘zlashtirilgan bilimlarni puxta bo‘lishiga yordam beradi. Talabalarni faollashtiradi va kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlaydi. Ammo bu ta’limning bir muncha chegaralanganlik tomonlari ham yo‘q deb bo‘lmaydi.

Biz tomonimizdan ko‘rib chiqilgan seminar mashgulotlari talabalarni muammoli o‘qitishga tayyorlash uchun zarur bo‘lgan va bir qancha pedagogik vazifalarni bajarishga qaratilgan mashg‘ulotlar tizimidan iborat bo‘ldi.

Muammoli savolga javob topishni qidirishni tashkil etish o‘zida muntazam qo‘yilgan qadamlar modulini birlashtirdi. Ular quyidagilar:

muammoli savolni qo‘yish;

qo‘yilgan savollarga javob topish va asoslash bo‘yicha talabalarning fikrlashga urinishlarini tashkil etish;

javoblarning tanqidiy tahlilini tashkil etish, ularning kuchli va kuchsiz jihatlarini aniqlash;

kelishilgan mavqe (pozitsiya)ni ishlab chiqish – eng to‘g‘ri javobni konstruksiyalash maqsadida javoblarni o‘zaro qiyos qilishni tashkil etish;

keyingi muammoli savolni qo‘yishga o‘tish.

Muammoli ta’lim jarayonida pedagog boshchiligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o‘quvchi-talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko‘nikma va malakalarni ijodiy o‘zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta’lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi.

Chizma muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Innovatsion faoliyatni boshqarish sohasidagi mutaxasislarni o‘qitishning shakl va usullari:

1.Ta’limning an’anaviy shakllari	2.Ta’limning innovatsion shakllari	3.Mustaqil o‘qib o‘rganish
Ma’ruza	Davra suhbati	Kunduzgi-sirtqi o‘qish
Amaliy dars	Trening	masofadan turib ta’lim olish
Maslahat	Amaliy o‘yin	
Seminar	Rolli o‘yinlar	

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, muammoli o‘qitish texnologiyasi ta’lim jarayonini amalga oshirishda universal vosita hisoblanadi. Bu texnologiya talabalar vaziyatli masalani izlash faoliyatiga, muammoni ifodalash va yechishga tayyorlangandagina samarali bo‘ladi.O‘qituvchi biror o‘qitish texnologiyasini yoki ularning birikmasini tanlar ekan, darsning maqsadi, o‘quv materialining mazmuni, auditoriya xarakteri, uning tayyorlik darajasiga asoslanishi lozim.Demak, muammoli o‘qitish bu o‘qitishning pedagogik texnologiyasi bo‘lib, o‘zining mazmuni va tuzilmasi bo‘yicha o‘qituvchi va talabaning ijodiy jarayonlarini sintezlaydi.Muammoli o‘qitishda pedagogik faoliyatning xususiyatlari o‘quv axborotlari mazmunini muammoli vazifalar va muammoli vaziyatlarga ko‘chirish orqali maqsadlarni oydinlashtirish jarayonidan iborat bo‘ladi.

Muammoli o‘qitishni tashkil etish natijasida talabalarda kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar hamda fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishning ijodiy imkoniyatlari yuzaga keladi.

Yuqorida keltirilgan muammoli metodlar orqali talabalarda asosiy tushunchalarni shakllantirish quyidagi holatlarda ijobiy kechadi:

Birinchidan: muammoli vaziyatlarni mashg‘ulot boshlanishida talabalarga taklif etish yoki predmet mavzusini ifoda eta oladigan maxsus muammoli topshiriqlar berish;

ikkinchidan, muammoli vaziyatlar orqali ularning qiyinchiliklarni engish, innovatsion metod va harakatlarni izlab topishni talab qilish;

uchinchidan ulaming motivatsion doirasiga ta’sir o‘tkazish, ya’ni ichki harakatlanuvchi kuchini yuzaga keltirish, fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish;

to‘rtinchidan, ularning kreativ (noyob, standartli bo‘lmagan) qobiliyatlarini kamol toptirish, ularda mantiqiy o‘ylash, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish; beshinchidan, ularni mustaqil fikrlab, to‘g‘ri xulosa chiqarishga tayyorlash; oltinchidan, hayotda uchraydigan qiyinchiliklarni taxlil etib, undan chiqib ketish darajasiga tayyorlash.

Bu metodlar bo‘lg‘usi pedagoglarga jahon andozasiga mos bilimlami egallashlariga imkon beradi.

Shunday qilib, muammoli ta’lim o‘quvchi-talabalar bilim tizimlari va aqliy hamda amaliy faoliyatlarida samarali o‘zlashtirishga yordam beradi, o‘zlashtirgan yangi bilimlaridan kelajakdagi vaziyatlarda unumli foydalana olishni, ta’lim muammolarini yecha bilish, mustaqil izlanishga o‘rgatish, ijodiy tajribaga ega bo‘lish va uni rivojlantirish, ta’lim jarayonining vazifalarini tahlil qilish, muammoli ta’limni aniqlash imkoniyatlarini ochib beradi.Bir so‘z bilan aytganda, ta’lim jarayoniga yangicha yondashib, ijodkorlik, bunyodkorlik tatbiq etilsagina va pedagogik faoliyat jarayonlari metodologik hamda psixologik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilinganida ta’lim samarasi yangi bosqichga ko‘tariladi, ya’ni:

-bolaning talabi, moyilligi, istak-xohishi uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;

-o‘quvchining o‘quv mehnatiga mas’uliyati, javobgarligi va burchi oshadi;

-bilimlarni mustaqil egallash malakalari shakllanadi;

-unda umr bo‘yi o‘z bilimini uning o‘zigina boyitishiga ishonch paydo bo‘ladi;

-erkin fikrlash malakasi shakllanadi;

-shaxsda jamiyatda o‘zining o‘rnini tezroq topib olishiga muhit yaratiladi.

Buning uchun biz o‘quvchiga «Sen buni bilishing kerak» degan majburlovchi da’vatdan «Menga bu zarur va men buni bilishga, uni hayotda qo‘llashga qodirman» degan ichki ishonch va intilishni uyg‘otishga o‘tishimiz kerak.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi. 2018 yil 28 dekabr. //

2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2005.

3. https://www.gazeta.uz/uz/2020/08/19/individual-oriented-education/ Valeriy Xan. “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning kuchi.”

5. Tolipov O‘, Q, Usmonbaeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.

O‘ZBEK OILADA BOLALARNI BARKAMOL SHAXS QILIB TARBIYALASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ochilov Shohruh G‘ayratovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Amaliy psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bolaning komil inson sifatida shakllanishida oila tarbiyasi hamda biologik va tashqi ijtimoiy muhit omillari ta’sirining uyg‘unligi, bolaning rivojlanishida anomaliya (regress) holatining ruhiy ta’siri yetakchi psixolog va pedagog olimlar hamda Sharq mutafakkir olimlarining qarashlari, fikr-mulohazalari, ilmiy-tadqiqot ishlari hamda bir necha yillik ish tajribalari asosida yoritilgan.*

Tayanch so‘z va tushunchalar: *bolaning biologik omillari, ijtimoiy muhit, bolaning anomaliya (regress) holati, tarixiy tafakkur, ta’lim-tarbiya, bola psixikasi va uning rivojlanishi, inson, shaxs, individuallik, bolada ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.*

Oila tarbiyasi — oilada ota-ona, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta’sirchan kuch — oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro‘sining yuqori bo‘lishi, bolalarga talab qo‘yishda oila kattalari o‘rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e’tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo‘yish, oilada qat’iy rejim va kun tartibini o‘rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o‘zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo‘llabquvvatlash va hokazo.

Oila qanchalik tartibli, uning a’zolari o‘rtasidagi munosabat samimiy bo‘lsa, Oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi. Oila tarbiyasida ota-ona obro‘si, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo‘ylikdan iborat bo‘lib qolmasligi lozim. Bola hayotining ko‘p qismi oilada o‘tadi. Shu boisdan mavjud an’analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta’sirida bola asta-sekin kamol topib boradi. An’ana va marosim Oila tarbiyasining qudratli qurolidir.

Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo‘lsagina, kutilgan natijalarga eri-shish mumkin. Oila tarbiyasida yutuklarga erishish ota-onalarning pedagogik bilimlarga egaligi, Oila tarbiyasi bo‘yicha tajribalar alma-shishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg‘in jalb qilishga ham bog‘liqdir. Har bir ota-ona Oila tarbiyasida o‘zlarining burch va mas’uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Normal oilaviy muhit, bolani kitob o‘qishga, mehnat qilishga o‘z vaqtida jalb etish ham Oila tarbiyasining muvaffaqiyati garovidir.

Oilada ota yoki onaning yo‘qligi yoki ulardan birining ketib qolishi Oila tarbiyasiga katta zarar yetkazadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta’sir kuchi yo‘qoladi, Oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bola qalbi qat-tiq jarohatlanadi, u tajang, serjaxl, qo‘pol, dag‘al bo‘lib qoladi, kattalarga ishonmay qo‘yadi, o‘qishi pasayib ketadi. Oila tarbiyasida otaning obro‘si katta ahamiyatga ega. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan bog‘lamasdan muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun Oila tarbiyasida maktab va ota-onalar o‘rtasidagi ta’limtarbiyaga oid birgalikdagi ishlari katta ahamiyatga ega.

Ota-onalarning o‘qituvchilar bilan bo‘lgan uchrashuvlarida aytilgan fikrlar, ayniqsa qimmatlidir. Chunki ular o‘z farzandlari to‘g‘risida ko‘proq narsalarni bilib oladilar. Shuning uchun bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-ona oila bilan maktab o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Bola maktabni tamomlagunga qadar otaona maktab bilan yaqin aloqa o‘rnatishi, farzandining darslarini o‘zlashtirishi, xulq-atvoridan xabardor bo‘lib turishi, tarbiya masalalarida o‘qituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so‘ng nima bilan mashg‘ulligi haqida o‘qituvchi va sinf rahbarini xabardor qilib turishi lozim. Uz navbatida o‘qituvchi va sinf rahbari ham bolaning o‘qishi, odobi, xulqi, maktabda o‘zini tuta bilishi haqidagi ma’lumotlarni ota-onaga yetkazishi, zarurat tug‘ilganda paydo bo‘lgan muammolarni birgalikda hal qilishi zarur. Farzandi maktabga borgan ota-ona maktab jamoasining a’zosi bo‘lib qolishi kerak. O‘qituvchi va sinf rahbari ham o‘z o‘quvchisining oilasi bilan mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘ymog‘i lozim.

Oila tarbiyasida ota-onalarning mahalla faollari, mehnat faxriylari bilan hamkorliklari ham muhim. Oila tarbiyasi farzandlarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Oila tarbiyasida har bir oila o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

Irsiyat atrof – muhit o‘rtasidagi munosabatlarni shunday tushunish bilan irsiyat yetakchi omil bo‘lib chiqdi, chunki aynan rivojlanishni belgilab bergan va atrof – muhit faqat irsiy sobit xususiyatlarni amalga oshiradigan shartlar sifatida harakat qilgan. Shunga qaramay, har bir omilning aqliy rivojlanishidagi rolini aniqlash muhim mummolardan biridir.

Bolani o‘rganishda strategik S.Xoll bolaning muammolarini – uning tushunishida va kattalar nuqtai nazaridan aniqlash uchun anketalardan foydalanishga imkon beradigan kompleks yondashuvni ko‘rib chiqqan.

T.Simon bilan birgalikda A.Binet “intellektual rivojlanishning metrik shkalasi”ni ishlab chiqdi. Irsiyatning aqliy rivojlanishdagi yetakchi roli haqidagi g‘oyaga qo‘shimcha ravishda, testologiya rivojlanish o‘rganishdan mustaqil ravishda sodir bo‘ladi va o‘rganish rivojlanishni kuzatib, unga bo‘ysunishi kerak degan pozitsiyaga asoslangan.

Angliyalik genetik olim Sh.Aurbax bolaning aqliy taraqqiyot darajasi, boladagi maxsus qobiliyat, bolaning individual sifatlari tug‘ma bo‘lib, mana shu oldindan mavjud omillar muhit xususiyatlarini belgilab berishini nazarda tutadi. Avstraliyalik psixolog K.Bauler bolaning nafaqat aqliy taraqqiyoti, balki axloqiy

sifat taraqqiyotida ham genetik omilni yetakchi deb hisoblagan bo‘lsa4, amerikalik psixolog va pedagog D.Dyui «inson tabiatini o‘zgartirib bo‘lmaydi, irsiyat inson tabiatini belgilaydi», degan fikrni qo‘llab - quvvatlaydi5. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan psixolog va pedagoglarning bola shaxsi va uning shakllanishi borasidagi fikrlari, albatta bir tomonlama yondashuvdan iborat bo‘lib, ular perenatal davrida homilaning psixofiziologik holati va unga ta’sir qiluvchi omillar, ijtimoiy muhit, shaxslararo munosabatlar, ta’lim-tarbiya kabi omillarni hisobga olmaganlar. Aslida psixologiya sohasida bir-biriga uyg‘unlik beruvchi, ammo, sifat jihatdan biri ikkinchisidan tubdan farq qiluvchi inson, shaxs va individuallik tushunchalari mavjud. Insonni biologik jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, u sut emizuvchilar sinfiga daxldor, biologik jonzot, ontogenetik rivojlanishi evaziga tik yurishi, qo‘llarining mehnat faoliyatga moslashganligi, yuksak taraqqiy etgan miyaga egaligi va hokazolar uning o‘ziga xosligini bildiradi.

Ijtimoiylashuv jihatidan esa insonning ong bilan qurollanganligi, u orqali borliqni idroki etishi ham mumkinligi nazarda tutiladi. Inson shaxs sifatida jamiyatning faol ongli a’zosi, nutqi yordamida o‘z hissiyoti va maylidan kelib chiqib, ma’lum me’yorlar asosida boshqalar bilan taassurotlarini o‘rtoqlasha biluvchi, o‘z ongi bilan boshqalarga ta’sirini o‘tkaza oluvchi ong sohibidir.

Insonning individualligi esa dunyodagi barcha insonlarning betakrorligi, ular har biri xususiyatining o‘ziga xosligi, ular intellektual, emosional, irodaviy sifatlari bilan belgilanadi. Shulardan ham ko‘rinib turibdiki, inson tug‘ma ravishda tashkil topgan ko‘rish, eshitish, sezish, his qilish, tuyish va boshqa xu-susiyatlari bilan bir qatorda, hayot sharoitlari va faoliyatlarini ta’lim-tarbiya ta’siri asosida axloqiy va me’yoriy sifatlarga to‘yintira boradi. Taniqli rus psixologi S.L.Rubinshteyn ta’biri bilan aytganda, «... shaxs – bu tashqi ta’sirlar yo‘nalishini o‘zgartiruvchi ichki shart-sharoitlar majmuasidir». Psixologiya sohasida muammoli va turlicha qarashlarga ega bo‘lgan masalalardan yana biri – bu, inson psixik taraqqiyotida genetik, tug‘ma, orttirilgan yoki ijtimoiy omillarning qaysi biri yetakchi ekanligi masalasidir. Masalan, bolaning o‘z ota-onasidan meros sifatida o‘zlashtirgan anatomik-fiziologik xususiyatlari qo‘l, oyoq, yuz tuzilishi va boshqalarni ifodalaydi. Psixologik jihatdan uning muhitga moslashuvi, erkin harakat qilishi, narsa va hodisalarni ongida obrazli qilib aks ettirishi umumiy jarayon hisoblanib, uning qanday darajada bajarilishi esa har bir insonda farqlanadi. Chunki, inson tashqi olam bilan munosabatga kirishishda undagi orttirilgan yoki meros sifatda avloddan o‘tgan anatomik anomaliya (regress) (oyoq-qo‘lning kaltaligi, bo‘yning juda pastligi, tana tuzilishining nomutanosibligi va boshqalar) holati inson psixikasiga, uning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham tashqi muhit bola psixikasining rivojlanishiga yetakchi omil sifatida ta’siri mavjud ekanligini inkor qilib bo‘lmaydi. Yetakchi psixolog olimlar L.S.Vigotskiy, S.Rubinshteyn, A.Leontyev va boshqalar avlod merosi rolini inkor etmagan holda bolaning komil inson bo‘lib shakllanishiga ijtimoiy muhit yetakchi omil sifatida ta’sir ko‘rsatishini e’tirof etishgan.

Psixolog olimlar V.N.Kolbonovskiy, A.R.Luriya va A.N. Mironovlar tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki3, hatto bir tuxum hujayradan bo‘lgan egizaklarda bir xil tabiiy sharoitda, ta’lim metodlariga ko‘ra kombinatorlik, ya’ni ijodiy faoliyatning ma’lum turlarida mutlaqo boshqa-boshqa natijalar olingan. Demak, bolaning komil inson sifatida shakllanishida avloddan-avlodga o‘tuvchi omillar yetakchi, tashqi omillar shunchaki vosita yoki ijtimoiy muhit yetakchi, ota-onadan gen orqali o‘tgan omillar asosiy emas desak, ikkala tushunchada ham xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lamiz. Ularning o‘zaro teng va mos hamkorligi asosida bolaga to‘g‘ri ta’lim-tarbiya bera olsak, shundagina bolani komil inson sifatida shakllantira olamiz.

Bolaga to‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim-tarbiya, oila va undagi a’zolarning o‘zaro munosabatlari xarakteri, bola muloqotda bo‘ladigan ijtimoiy guruhlar, u tanlagan kasb, bola ichki ruhiy imkoniyatlarining mukammalligi kabi qator ijtimoiy va biologik omillar shaxs bo‘lib shakllanishi, o‘zini-o‘zi anglashi va o‘zgalarga munosabati hamda uning intellektual taraqqiyotiga albatta ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Bu to‘g‘rida ko‘plab Sharq allomalari ham o‘z fikr-mulohazalarini bildirishgan. Jumladan, Abu Nasr Farobiy o‘zining «Fozil odam-lar shahri» asarida inson va uning ruhiyati to‘g‘risida ajoyib mushohada yuritib, inson ruhiyatining taraqqiyoti biologik va muhit omillariga bevosita bog‘liqligi hamda mazkur omillar ta’sirida shakllanishini e’tirof etadi.

Ibn Sino «Tib qonunlari» asarida inson organizmining tuzilishi, undagi fiziologik jarayonlar va ular bilan bevosita bog‘lanishda bo‘lgan ruhiy omillar, ularning inson tanasiga ta’siri to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlarni keltirgan.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asaridagi bosh masala komil insonni tarbiyalash, Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», «Tuhfatul ahror» va boshqa asarlarida bolani ilmli, ma’rifatli, ta’lim-tarbiyali va kasb- hunarga o‘rgatish haqida fikr yuritilgan bo‘lsa, Alisher Navoiy o‘zining «Xazoyinul-maoniy», «Mahbub-ul qulub» va boshqa asarlarida yetuk, barkamol inson, uning axloqi hamda qobiliyati to‘g‘risida ajoyib fikrlarni bayon etgan. Bundan tashqari, Bobur, Furqat, Bedil, Farg‘oniy, Mashrab, Gulxaniy, Nodira, Uvaysiy, Muqimiy, Zavqiy, Avloniy va boshqa ko‘plab mutafakkir, yozuvchi, shoir va shoiralarimiz ham o‘z asarlarida yoshlar tarbiyasi, fe’l-atvori, oilaviy hayot masalalari va insonlararo munosabat masalalariga alohida e’tibor qaratishgan. Demak, ilmiy asoslangan fikrlar va hayot tajribalari shuni ko‘rsatadiki, agar bola ota-onadan biologik jihatdan sog‘lom, to‘rt muchasi but dunyoga kelmas ekan (bolada anomaliya (regress) holati kuzatilsa), uni ruhan mutanosiblikdagi va komil inson sifatida shakllantirish yechimini topishi mushkul bo‘lgan masala sifatida qolgan.

Ma’lumki, jamiyatimizda inson salomatligi, jismoniy barkamolligi, sog‘lom turmush tarzi madaniyatiga egaligi o‘ta muhim ijtimoiy qadriyat hisoblanadi. Millat salomatligini ta’minlash, xalq genofondini bekamu-ko‘st saqlash sog‘lom turmush tarzi tufayligina yetarlicha ijobiy tarzda hal etiladi. Bu esa, jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari; oila, o‘quv-tarbiya maskanlari, mahalla hamda mustaqil ta’lim oldiga jamiyatimiz fuqarolariga sog‘lom turmush

tarzi mazmuni va mohiyatini anglatish, yoshlarni sergak va bilimdon, barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalasini ko‘ndalang qilib qo‘yadi.

Shundan kelib chiqib, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, Respublikamizda sog‘lom avlodni shakllantirishga kirishila boshlandi. “Barkamol avlod”ni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, bu masalaga ustuvor vazifa sifatida qarala boshlandi.

Ammo, yurtimizda yoshlarning har tomonlama kamol topishlari uchun amalga oshirilayotgan tadbirlar va bu sohaga berilayotgan katta e’tiborga qaramasdan, yoshlar o‘rtasida tamaki chekish, spirtli ichimliklarga berilish, jinoyatchilik, noaxloqiy va noinsoniy xulq-atvorni namoyon qilish kabi illatlar uchrab turibdi. Bu bizning nazarimizda yoshlar va keng aholi o‘rtasida va ayniqsa, oilalarda sog‘lom turmush tarzi psixologiyasining yetarlicha shakllantirilmayotganligiga borib taqaladi.

Yangi O‘zbekistonda yoshlarning har tomonlama kamol topishlari uchun amalga oshirilayotgan ishlardan biri bu “Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish” Sog‘lom turmush tarzi haqida so‘z borar ekan, uning eng avvalo inson tani va vujudining betob bo‘lishiga sabab bo‘luvchi zararli odatlardan forig‘ bo‘lishni tasavvur qilishga o‘rganib qolganmiz. Bu atama, eng avvalo, sog‘liqni saqlash xodimlari faoliyati bilan bog‘liq tarzda tushuntiriladi. Ammo, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda - tan va vujud, aql hamda idrok bevosita odamniki, unga bog‘liq bo‘lgani uchun ham inson ruhiyati qonuniyatlari va sirlarini o‘rganuvchi fan bo‘lmish psixologiyaning unga aloqasi bor. Shuning uchun ham psixologiya fanida sog‘lom turmush tarzi psixologiyasi tushunchasi mavjudki, u sog‘lom turmush tarziga eng avvalo, inson ongi va tafakkurining in’ikosi sifatida qaraydi. Demak, har birimiz uchun suv va havodek zarur bo‘lgan sog‘ligimizni ta’minlash va bunga erishish uchun sog‘lom turmush tarziga odat qilish nafaqat tibbiyot xodimlari, balki psixologlarning, psixologiya fanining ham izlanish predmeti sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu ma’noda, psixologiya sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda inson fe’li, xulq-atvori va turli psixologik holatlari nuqtai nazaridan o‘rganganda: asosan, har birimiz guyoki sirdek tuyulgan ruhiyatimizning o‘zimizni sog‘-salomat, beshikast va tetik his qilishimizga aloqador qanday jihatlari borligini, uni boshqarish orqali o‘z boyligimiz – salomatligimizni saqlash borasida qo‘limizda qanday imkoniyatlar mavjudligini va sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirish har birimizga o‘z ruhiy holatimizni boshqarish, ongu-shuurimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni vaqtida ilg‘ash orqali uni mo‘tadil tutish, o‘zgaruvchan shart-sharoitlarga moslashish yo‘llarini, bu boradagi profilaktikani o‘rganadigan fan hamda foydali amaliyot sifatida tobora hayotimizga dadil kirib kelmoqda.

Manbalardan ma’lum bo‘ladiki, sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishning bir qator: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tibbiy, jismoniy, pedagogik, psixologik va boshqa omillari mavjud. Biz mazkur maqolada sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishning psixologik jihatlarini: inson fe’l-atvorini; sog‘lom turmush tarziga nisbatan shaxsning munosabatini; sog‘lom

turmush tarzini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini; sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishda shaxsning individual-psixologik xususiyatlarining o‘rni; shaxs o‘sib-o‘lg‘aygan oila muhitning ta’siri, ya’ni tashqi ijtimoiy-psixologik omillar haqida fikr-mulohaza yuritmoqchimiz.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda shaxs motivasiyasi omilining o‘rni ham kattadir. Motivasiya esa o‘z mazmuniga ko‘ra shaxsni ma’lum bir faoliyatini bajarishga kirishishi uchun harakatga keltirish, uning muhimligini asoslash va anglatishni bildiradi. Sog‘lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirish masalasida motivasiya omili odamlarga ularning nima uchun sog‘lom turmush tarzi psixologiyasi muhitida yashash lozimligini, nima sababdan nosog‘lom turmush tarzini tanlash xatti-haraktini anglatishga qaratiladi.

O‘zbek oilasida ko‘p avlodlilik belgilari yaqqol ifodalanadi. Unda farzand ongida sog‘lom g‘oya va bilimlar shakllanishida oilaning kattalari - bobolar, momolar, yaqin qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, mahalla ham bevosita ishtirok etadi. Azaliy odatlarimizga ko‘ra, farzandlarimiz tarbiyasiga ota-onadan nisbatan bobo, buvi, qo‘shni va qarindoshlarning ta’siri kuchliroqdir. Ular oiladagi ma’naviy muhitning belgilovchilari hisoblanadi. Bu xil tarbiya an’anasi o‘tmishdan qolgan muhim ma’naviy-pedagogik qadriyat hisoblanib, buyuk ajdodlarimiz hayotida bu xil tarbiya uslubi shakllanib, muayyan tizim darajasiga yetgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Yangi O‘zbekistonda yoshlarning har tomonlama kamol topishlari uchun amalga oshirilayotgan ishlarni bajarishda psixologlarga katta mas’uliyat yuklaydi. “Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish” uning eng avvalo inson tani va vujudining betob bo‘lishiga sabab bo‘luvchi zararli odatlardan forig‘ bo‘lishni “Ruxni davolamasdan turib tanani davolab bo‘lmasligini” tasavvur qilishga o‘rganib qolganmiz. Bolalarning rivojlanishiga sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdan tashqari o‘zining ijobiy yoki salbiy ta’-sirini ko‘rsatuvchi omillarga alohida e’tibor qaratish tarbiyachi va o‘qituvchilar hamda ota-onalar zimmasiga o‘ta mas’uliyatli vazifalarni yuklaydi. Ular e’tibor berishlari lozim bo‘lgan shart-sharoitlar va omillar sirasiga quyidagilarni misol sifatida ko‘rsatishimiz mumkin: avloddan-avlodga o‘tkazib berilgan bolaning irsiy omillari, oiladagi sog‘lom yoki nosog‘lom muhit, bola uchun tashkil qilingan gigiyenik yoki nogigiyenik muhit, bola uchun sog‘lom va to‘g‘ri tashkil qilingan yoki nosog‘lom bola yosh davriga nomuvofiq ta’lim-tarbiya muhiti, ekologik muhit omillari, texnik va texnologik axborot xurujlari va hokazolar.

Bolaning kelajakda yetuk inson bo‘lib yetishida barcha omillarni o‘z o‘rni borligini ko‘rishimiz mumkin. Shu jumladan bola kelajakda yetuk shaxs bo‘lishida genetikaning ya’ni ota – onalardan bolaga ularning qobiliyatlari, qiziqishlari, ba’zibir harakteridagi omillarham layoqt bo‘lib o‘tishi mumkin. Bola tug‘ilganidan so‘ng ota – onalar tomonidan yaratilgan sog‘lom psixologik muhit, to‘g‘ri ta’lim – tarbiyaning o‘rniniham inobatga olish lozim, bola shakllanishida ijtimoiy muhitning ta’siriham bolaga bo‘ladi. Ammo yana bir jihat bu shaxsiy faollikdir. Agarda bolada shaxsiy faollik bo‘lmasa unda bolaning yetuk shaxs bo‘lib shakllanishi so‘roq ostida qoladi. Bundan tashqari, bolani komil inson

sifatida shakllantirishda uning har bir yosh davrida ruhiyatiga ta’sir etuvchi o‘ziga xos jismoniy, psixologik yangilanishlar, fiziologik o‘zgarishlar, ijtimoiy moslashish kabi murakkab jarayonlar sodir bo‘ladiki, ota-onalar, mahalla faollari va ta’lim maskanlari sohiblari hamkorligida bolani to‘g‘ri rivojlantirishga e’tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2008 yil.
3. Filosofiya: Ensiklopedicheskiy slovar / Pod red. A. A. Ivina. — M.: Gardariki, 2004. -640 s.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 20 sentyabr BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi/ Halq so‘zi”, 2017 y, 23 sentyabr №192 (6886).
5. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi. T., 2006. 142 b.
6. Oila psixologiyasi: Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun. G‘.B.Shoumarov tahr. ost. – Toshkent, 2009. 338 b.

JAMIYATDA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRIShNING METODOLOGIK TAHLILI

Ortiqov Sirojiddin Sa’dullayevich
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annatatsiya: Maqolada jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirishning metodologik tahlili o‘rganilgan. Ilmiy manbalar tahliliga ko‘ra huquqiy savodxonlik masalasini shaxsning ontogenetik taraqqiyot bosqichida shaxsning taraqqiyot bosqichlariga ko‘ra tadqiq etishga zarurat tug‘ildi. Shuning uchun shaxsning huquqiy madaniyat va huquqiy savodxonligini aniqlashda tadqiqot predmeti va obyekti bosh mezon hisoblansa-da, ammo muammoni o‘rganishni optimallashtirish uchun asosiy metod va metodikalarni tadbiq etish choralarini ko‘rish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: huquqiy madaniyat, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, yoshlar tarbiyasi, mas’ul bo‘lgan ota-onalar, o‘qituvchi-tarbiyachilar, jamoatchilik, barkamol yoshlar, ustuvor vazifalar, tarbiyasida yuzaga kelayotgan muammolar.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация: В статье исследован методологический анализ развития правовой культуры в обществе. Согласно анализу научных источников,

возникла необходимость исследования вопроса о правовой грамотности на этапе онтогенетического развития человека в соответствии с этапами развития человека. Поэтому, хотя предмет и объект исследования считаются основным критерием определения правового сознания и правовой грамотности человека, целесообразно принять меры по применению основных методов и методик для оптимизации исследования проблемы.

Ключевые слова: правосознание, правовая культура, правовая грамотность, воспитание молодежи, ответственные родители, педагоги-воспитатели, общественность, зрелая молодежь, приоритетные задачи, проблемы, возникающие в образовании.

METHODOLOGICAL ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF LEGAL CULTURE IN SOCIETY

Annotation: Methodological analysis of the development of legal culture in society is studied in the article. According to the analysis of scientific sources, it became necessary to research the issue of legal literacy at the stage of ontogenetic development of a person according to the stages of development of a person. Therefore, although the subject and object of research is considered the main criterion in determining the legal consciousness and legal literacy of a person, it is appropriate to take measures to apply the main methods and methodologies to optimize the study of the problem.

Key words: legal consciousness, legal culture, legal literacy, youth education, responsible parents, teachers-educators, public, mature youth, priority tasks, problems arising in education.

Jahon ijtimoiy taraqqiyotidagi tub o‘zgarishlar jarayoni bugungi kunda aholi, ayniqsa yoshlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Huquqiy madaniyat va huquqiy ongni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning metodologik masalalarini tahlil qilganimizda huquqiy savodxonlik masalasiga doir yondashuvlar o‘ziga xosligi bilan ajralib turishini ko‘rsatdi. Shu sababli ham biz o‘spirinlarda huquqiy savodxonlikni shakllantirishning psixologik xususiyatlarini o‘rganish masalasida yangi tadqiqot dasturini shakllantirish muhim deb hisobladik. Ilmiy manbalar tahliliga ko‘ra huquqiy savodxonlik masalasini shaxsning ontogenetik taraqqiyot bosqichida shaxsning taraqqiyot bosqichlariga ko‘ra tadqiq etishga zarurat tug‘iladi.

Bugungi kun taraqqiyoti insonlardan o‘zining huquqiy savodxonligini taqazo etadigan davr sifatida maydonga chiqadi. Shu sababli shaxs taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridayoq huquqiy savodxonlikni ta’minlash chora-tadbirlari, ularning psixologik jihatlari va komponentlarini inobatga olish muhim hisoblanadi. Shu sababli tadqtqotimizda o‘spirinlar huquqiy savodxonligini psixologik xususiyatlarini tadqiq etish maqsadida tashkil

etilayotgan izlanish uchun alohida dasturga zarurat tug‘iladi. Mazkur masalani yechimini topish yuzasidan olib borilgan izlanishlarga ko‘ra yechimini topish imkoniyatini beradigan munosabat tizimi kerak bo‘ldi. Bu jarayonda ikki xil munosabat kuzatiladi. Birinchi holat ilk o‘spirinlarning huquqiy savodxonligini psixodiagnostika va ikkinchisi esa huquqiy savodxonlikning rivojlantirish tizimini shakllantirish ehtiyojidir.

Bu esa dasturning shakllantirishga xizmat qiluvchi quyidagi munosabat tizimini shakllantirishga imkon beradi. Buning uchun huquqiy savodxonlikni o‘rganishga uslubiy yondashuvlarni tahlil qilish asosiy elementlarni aniqlashga imkon beradi, ularning umumiy bahosi insonning huquqiy savodxonligi darajasini ko‘rsatadi.

Huquqiy savodxonlik darajasini aniqlash uchun turli ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin. Empirik tadqiqotlardan odatda foydalanish: fuqarolarning huquqiy jihatdan o‘z-o‘zini baholashi; huquqning turli sohalaridan xabardorlik darajasini aniqlash; ma’ulum manfatli mavzular aholini qiziqtirmas ekan; qonunning muayyan tarmoqlari bo‘yicha aholining huquqiy bilimga bo‘lgan ehtiyojlari. Mazkur masala, xalqaro tadqiqotlar tajribasini o‘rganish hisobida ta’minlanadi.

AQShning Kaliforniya universiteti huquq va jamiyatni o‘rganish markazi[1], Kanada yuristlar assosiasiyasi[2], MARG (Multiple Action Research Group)— huquqiy savodxonlik darajasini oshirish ustidan ishlovchi hind notijorat markazi[3], Skandinaviya yo‘nalishi, Italiya huquqiy sosiologiya Markazi va huquqiy savodxonlik tadqiqotlari[4] bo‘yicha Rossiya tajribalari tadqiqot dasturini tashkil etish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Agar Kaliforniya universiteti huquq va jamiyatni o‘rganish markazi faoliyati bo‘yicha AQShdagi huquqiy savodxonlik tadqiqotlarida huquqiy masalalar bo‘yicha kompetentlik darajasi, to‘liq va faol hayot kechirishi uchun huquqiy masalalarni qonunga muvofiq sifatida qaraladi. Xulq-atvor savodxonligi sud ishlarini yuritish bilan bog‘liq bir qator funksional ko‘nikmalar sifatida tavsiflanadi, bu esa barcha darajalarda adolat, hisobdorlik va samarali vositalarni talab qilishga imkon beradi.

Yevropa tadqiqotlari esa “Skandinaviya yo‘nalishi “ deb nomlanadi, unda fuqarolarning huquqiy savodxonligi va huquqiy munosabatlarni o‘rganish mavjud qonunchilikka o‘zgarish va o‘zgartirishlar kiritish uchun amalga oshiriladi.

Kopengagen universiteti (Daniya) tomonidan mehnat qonunchiligi sohasida olib borilgan tadqiqotlar natijalari ijtimoiy sohadagi ayrim huquqiy qoidalarni o‘zgartirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat

[1]Edelman L., Krieger L., Eliason S., Albiston C. Judicial Deference to Institutionalized Employment Practices. (https://www.law.berkeley.edu/academics/berkeley-empirical-legal-studies-bels/current-bels-research/).

[2]Zariski A. What is legal literacy? Examining the concept and objectives of legal literacy. (www.athabascau.ca/ syllabi/lgst/docs/LGST249_sample.pdf) .

[3]Multiple Action Research Group— Justice through research empowerment. (http://ngo-marg.org/what-wedo/legal-awareness/).

[4] http://eng.beccaria.unimi.it/ecm/home/research/ funded-research-projects.

qildi. Lund universiteti mutaxassislari (Shvesiya) “o‘zaro tushunish muvozanat va roziligi qabul” ijtimoiy siyosat sohasida o‘rganish Qonunchilik amaliyoti ayrim jihatlarini tekshiradi. Tibbiy sug‘urta fondlarining tez o‘sib borishi sabablarini o‘rganib chiqib, Shvesiya hukumati ijtimoiy sug‘urta ma’murlari faoliyatini tartibga soluvchi batafsil qonunlarni qabul qildi.

Bundan tashqari, Skandinaviya mamlakatlari uchun xarakterli tadqiqot mavzusi aholining huquqiy hamkorlikning turli jihatlariga munosabati hisoblanadi

Huquqiy savodxonlik bo‘yicha Rossiya amaliyotidan tadqiqotimiz uchun alohida o‘rin oladigan jihatlar mavjud. Bugungi kunda Rossiyada Moliyaviy tadqiqotlar Milliy agentligi tahliliy markazi va AMULEKS Milliy huquqiy xizmat tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning o‘ziga xos o‘rni bor. Mazkur markazalar faoliyatini o‘rganish asosida tadqiqotimiz uchun o‘ziga xos yo‘nalishni tanlash imkoniyatini topishga erishdik. Mazkur tashkilotlarning o‘zaro hamjihatligi asosida ishlab chiqilgan loyiha doirasidagi tadqiqotlar ham Kaliforniya universiteti huquq va jamiyatni o‘rganish markazi, Skadinaviya yo‘nalishi, Italiya huquqiy sosiologiya Markazi tajribalariga tayanganini anglash mumkin.

Respublikamizda xalqaro tajribalarga tayangan holda aholining huquqiy savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan tadbirlarning ham o‘ziga xos o‘rni mavjudligini unutmaslik lozim bo‘ladi.Bu boradagi tadbirlar ma’lum ma’noda huquqiy savodxonlik jahondagi barcha mamlakatlar uchun eng dolzarb muammo ekanligini mavjud tajribalardan payqash qiyin emas. Milliy darajada huquqiy savodxonlikni o‘rganish aholi ortasida deyarli amalga oshirilmaydi, natijalar individual tadqiqotlarni aniqlashga qaratilgan huquqiy institutlarga munosabat, huquqiy tizim, aholining erkinliklarini himoyalash ilmiy makonda taqdim etiladi. Shu sababli ham Rossiyada huquqiy savodxonlikni ta’minlash bo‘yicha alohida ijtimoiy va professional guruhlar faoliyat olib bormoqda.

Mamlakatimizda aholining huquqiy savodxonligini oshirishda kitob mutolasining ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilayotganligi sir emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi esa ilm va ijod ahli, umuman jamiyat hayotiga befarq bo‘lmagan har bir insonni ruxlantirdi. Ma’naviy yuksalish bo‘yicha yana bir muhim qadam bo‘ldi.

Mazkur farmoyishda ta’kidlanganidek, mustaqillik yillarida mamlakatimizda matbuot, noshirlik va axborot sohasida tegishli huquqiy asoslar yaratildi. Xususan, 10 dan ortiq qonun va 30 dan ortiq qonunosti hujjati qabul qilindi. 1 677 ta matbaa korxonasi, 118 ta nashriyot davlat ro‘yxatiga olindi.[1].

[1]Аҳолининг ҳуқуқий билими ва саводхонлигини оширишда китоб мутоласининг аҳамияти//https://www.minjust.uz/uz/press-center/news/70893/?PIC=Y

Hozirgi sanab o‘tilgan xalqaro va mahalliy tajribalar o‘spirinlar huquqiy savodxonligi yuzasidan olib borilayotgan psixologik tadqiqotimiz uchun metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

O‘spirinlar huquqiy savodxonligini tadqiq etish dasturini mazmuni ikki xil yo‘nalishdagi izlanishlar olib borishga undaydi. Tadqiqot dasturining birinchi qismi o‘spirinlarning huquqiy savodxonlik holatini baholashga xizmat qiluvchi diagnostikasini tartiblashdir. Ikkinchi yo‘nalishi esa o‘spirinlar huquqiy savodxonligini o‘stirish yuzasidan dasturiy ta’minotni shakllantirish masalasidan iborat.

Tadqiqotning diagnostika tizimini shakllantirishda psixologiya sohasida ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi jihatlarni inobatga olishni lozim topdik:

– huquqiy xabardorlik;
– huquqiy faollik;
– huquqiy qadriyatlarni bilish, e’tirof etish;

Yuqoridagi yo‘nalishlar esa o‘spirinlarning huquqiy savodxonligini aniqlash uchun zarur bo‘lgan diagnostikani amalga oshirishga xizmat qiladi.

O‘smpirinlarning huquqiy savodxonligini muhim sharti sifatida uning indeksi va uning komponentlarini aniqlash lozim. Huquqiy savodxonlik indeksi barcha xilma-xillikni hisobga olgan holda aholining huquqlarini himoya qilish haqidagi huquqiy savodxonligi darajasining sohalar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va munosabat umumlashma ko‘rsatkchidir. O‘z navbatida huquqiy savodxonlik indeksi esa uchta ko‘rsatkichga ega: huquqiy bilim, huquqiy ko‘nikma va huquqiy ustanovkalar. Ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘spirinlarning huquqiy savodxonlik darajasini baholash bo‘yicha metodikalar xususida navbatdagi paragrafda batafsil to‘xtaymiz.

Ushbu o‘rinda huquqiy savodxonlik indeksining individual ko‘rsatkichlarini aks ettiruvchi quyidagi mulohazalarni keltirib o‘tish muhimdir: *Huquqiy bilim (kognitiv jabha)*. Huquqiy bilim huquqiy madaniyatning asosini tashkil etadi. Ushbu blok o‘spirinlarning huquqiy xabardorligini subyektiv va obyektiv baholashni o‘lchash uchun savollarni o‘z ichiga oladi.

Huquqiy ko‘nikma (xulqiy jabha). O‘spirinlarning huquqiy holatidagi xulq-atvorining ham real, ham deklarativ modelini ifodalaydi. O‘spirinlarning o‘zlarini huquqlari buzilgan holatdagi harakatlarini belgilaydi.

Huquqiy ustanovka (emosional-baholash). Huquqiy ustanokva huquq nuqtai nazaridan ahamiyatli bo‘lgan narsalarga xulqiy tayyorlik (moyillik) sifatida qaraladi.Huquqiy ustanovka o‘z ichiga olgan rasional (huquqiy normalar bilim, qonun, umumiy talablar), hissiy (huquqiy normalar va talablarga munosabat) va irodali (har qanday yo‘l bilan harakat qilishga tayyorligi) komponentlarini tayyorligi va qiziqish emas, balki subyektning huquqiy tamoyillar va qadriyatlarga nisbatan muayyan tarzda qonuniy muhim vaziyatlarda harakat qilishdir [15].

Ushbu alohida ahamiyat kasb etadigan muammolarni anglab yetish uchun psixologlar faoliyatini tasdiqlashga e’tibor qaratamiz.

Xulosalar:

1. Shaxsning huquqiy madaniyat va huquqiy savodxonligini aniqlashda tadqiqot predmeti va obyekti bosh mezon hisoblansa-da, ammo muammoni o‘rganishni optimallashtirish uchun asosiy metod va metodikalarni tadbiq etish choralarini ko‘rish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2. O‘spirinlarda huquqiy savodxonlikni tadqiq etish metodlari va metodikalari tadqiqot obyektining huquqiy bilimlarni o‘zlashtirish xususiyatlari, biror bir fan yo‘nalishi bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish layoqati, huquqiy tushunchalarni shakllantirish qonuniyatlarini egallashga tayyorligini baholaydi. Shu bois metodika natijalarini tahlil etishda ularning bunday xususiyatlarini hisobga olish ma’qul.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 80 b.

2.O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2008 yil.

3.G‘oziyev E.G‘., Jabborov A.M. Faoliyat va xulq-atvor motivasiyasi. T.: 2003, -124 b.

4.Qodirov O.S., Umumiy psixologiya // O‘quv qo‘llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.

5.Qodirov O.S., Xotamov Sh.N. Ijtimoiy psixologiya //Darslik. - Samarqand, 2023-346 b.

6.Safarovich Q. O. et al. Maktab yoshidagi o‘quvchilarni ma’naviy shakllanishida psixologlarning o‘rni //O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – №. 15. – S. 156-161.

10. Edelman L., Krieger L., Eliason S., Albiston C. Judicial Deference to Institutionalized Employment Practices. (https://www.law.berkeley.edu/academics/berkeley-empirical-legal-studies-bels/current-bels-research/).

11. Zariski A. What is legal literacy? Examining the concept and objectives of legal literacy. (www.athabascau.ca/ syllabi/lgst/docs/LGST249_sample.pdf).

12. Multiple Action Research Group— Justice through research empowerment. (http://ngo-marg.org/what-wedo/legal-awareness/).

13.http://eng.beccaria.unimi.it/ecm/home/research/ funded-research-projects.

14. Аҳолининг ҳуқуқий билими ва саводхонлигини оширишда китоб мутоласининг аҳамияти //https://www.minjust.uz/uz/press-center/news/70893/?PIC=Y.

15. Шамила. А.С.Место правовой установки личности в структуре правосознания//Мир науки и образования. 2018. № 3(15) file:///D)/mesto-pravovoy-ustanovki-lichnosti-v-strukture-pravosoznaniya.pdf.

ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И РАБОТА С ДЕТЬМИ В УЗБЕКИСТАНЕ КАК СОЦИО-ФИЛОСОФСКАЯ ПРОБЛЕМА

Пардаев Дилмурод Ахтамкулович
Начальник отдела Общество инвалидов
Узбекистана Самаркандской области
ORCID: 0009-0008-6962-3608
pardaevdilmurod2121@gmail.com
Узбекистан, Самарканд

Аннотация

В статье рассматривается инклюзивное образование в Узбекистане как важнейшее социо-философское направление социальной политики, направленное на обеспечение равных прав и возможностей для детей с особыми потребностями. Анализируются основные барьеры, препятствующие полноценной реализации инклюзивной модели образования, включая культурные установки, нехватку кадров и инфраструктурные проблемы. Автор подчеркивает необходимость философского осмысления инклюзии как части гуманистической парадигмы современного общества и предлагает пути интеграции философских и практических подходов в обучении и социальной адаптации детей с особыми потребностями.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дети с особыми потребностями, социальная философия, Узбекистан, социальная адаптация, равенство.

INCLUSIVE EDUCATION AND WORK WITH CHILDREN IN UZBEKISTAN AS A SOCIO-PHILOSOPHICAL PROBLEM

Abstract

This article examines inclusive education in Uzbekistan as a key socio-philosophical aspect of social policy aimed at ensuring equal rights and opportunities for children with special needs. The author analyzes major barriers to the effective implementation of inclusive education, including cultural attitudes, lack of qualified personnel, and infrastructural challenges. The article emphasizes the importance of philosophical reflection on inclusion as part of a humanistic paradigm and proposes ways to integrate philosophical and practical approaches in the education and social adaptation of children with special needs.

Key words: inclusive education, children with special needs, social philosophy, Uzbekistan, social adaptation, equality.

Инклюзивное образование является неотъемлемой частью гуманистических реформ в сфере образования и социальной политики современного Узбекистана. Однако переход к инклюзии как к универсальной модели требует не только институциональных изменений,

но и глубокого философского осмысления понятий равенства, справедливости, достоинства и различий как основы социальной жизни.

Вопросы инклюзии в образовательной системе не сводятся исключительно к педагогике — они затрагивают более широкие социальные и философские категории, такие как социальная интеграция, идентичность, ценностная структура общества, отношение к инклюзивности. В этом контексте инклюзивное образование становится важным предметом социо-философского анализа.

Инклюзия как философско-социальный феномен имеет особое значение. Инклюзивное образование предполагает принятие различий как нормы, а не отклонения. Оно основывается на принципах равенства, уважения к индивидуальности и признания ценности каждого человека независимо от его физических, ментальных или социальных особенностей [1.56].

В философском плане инклюзия соотносится с концепциями справедливости Дж.Ролза, диалога М.Бубера и признания А.Хоннета [2.85-93]. Центральной идеей является то, что только через признание «инклюзивного» как полноценного субъекта можно достичь подлинного социального единства.

Социокультурные барьеры реализации инклюзии в Узбекистане есть и их постепенно одолеют через законодательные акты и международные обязательства. Несмотря на принятые законодательные акты и международные обязательства, процесс внедрения инклюзивного образования в Узбекистане сталкивается с рядом сложностей. Среди них — сохраняющиеся патерналистские установки, низкий уровень осведомленности населения, нехватка квалифицированных специалистов и адаптированной образовательной среды [3. 112–120].

Инклюзия требует пересмотра всей образовательной и социальной парадигмы: от изменения учебных программ до формирования нового этического отношения к детям с особыми потребностями [4. 25–31].

Философские аспекты адаптации и социализации детей с ограниченными возможностями требует гуманистический подход к проблеме. Адаптация и социализация детей с особыми потребностями — это не только педагогическая, но и философская проблема.

Она касается вопросов личностной идентичности, взаимодействия «Я» и «Другого», а также поиска смыслов в условиях ограниченных возможностей.

Философия инклюзии акцентирует внимание на способности общества не просто «терпеть» инвалидность, а ценить её как источник нового опыта и переосмысления нормальности [5. 41–46.].

Перспективы развития инклюзивного подхода в Узбекистане есть развитие. В последние годы Узбекистан предпринимает активные шаги в направлении формирования инклюзивного общества. Примером служат пилотные проекты по инклюзивному образованию в сотрудничестве с

ЮНИСЕФ, а также реформы в области дошкольного и школьного образования [6. 9–14.].

Однако для устойчивого развития инклюзии необходимо систематически включать философские и этические подходы в разработку образовательной политики. Важна не только институциональная поддержка, но и изменение общественного сознания, ценностных установок и культурных кодов.

Заключение

Инклюзивное образование в Узбекистане — это не только политическая или педагогическая задача, но и глубокая философская проблема, связанная с переосмыслением социальной нормы, справедливости и гуманности. Его успешная реализация требует интеграции философского анализа, культурных изменений и практических шагов по адаптации системы образования к многообразию потребностей и возможностей учащихся.

Список литературы:

1. Соловьёв С.М. Философия образования и проблемы инклюзии. — М.: Академический проект, 2019. — С. 56–62.

2. Ролз Дж. Теория справедливости. — М.: Идея-Пресс, 2001. — С. 85–93.

3. Хоннет А. Борьба за признание: моральная грамматика социальных конфликтов. — СПб.: Изд-во СПбГУ, 2010. — С. 112–120.

4. Алимова Н.Р. Инклюзивное образование в Узбекистане: современные вызовы // Педагогическое мастерство, 2023. № 2. — С. 25–31.

5. Исакова Ш.Д. Социокультурные аспекты адаптации детей с ОВЗ в условиях инклюзии // Философские исследования, 2022. № 4. — С. 41–46.

6. Доклад ЮНИСЕФ: Инклюзивное образование в Центральной Азии — Ташкент, 2023. — С. 9–14.

relationship and in-depth discussion of the specific role of mentor inclusive education on mental health promotion; in-depth exploration of mentor inclusive education practices in mentor-student relationships, mentor-student interactions, etc. through multiple case studies of mentor-student relationships, providing rich qualitative information for understanding the specific role of mentor inclusive education for master’s and doctoral students.

Table 1

Number	Gender	Discipline	Degree
1	Male	Synthetic Biology	• Master’s Student
2	Female	Synthetic Biology	• Master’s Student
3	Female	Microbiology	• Master’s Student
4	Male	• Light Industry Technology and Engineering	Doctoral Student
5	Male	• Light Industry Technology and Engineering	Doctoral Student
6	Female	Curriculum and Instruction Theory	Doctoral Student

Findings

After online interviews to find out the mental health status of masters/doctoral students; the performance of supervisors’ inclusive education practices and their impact on graduate students; the interaction of the mentor-student relationship; and the promotion of inclusive education on mental health; the results are shown in Table 2:

Table 2

Problem Dimension	Concrete Performance
Mental health status of graduate students	Sources of stress: research pressure, life pressure, employment pressure; Self-assessment: basically healthy;
Mentor Inclusive Education Practices	Performance: objective assessment, tolerating students’ mistakes, listening patiently, respecting differences and encouraging creativity; Impact: much less stress, no fear of failure, feeling understood and supported, increased self-confidence, reduced stress, and promotion of mental health;

Mentor-student relationship interactions	Frequency of interaction: six or seven times a week, weekly one-on-one exchanges, e-mail timely response, efficient and smooth communication, communication once a week; Communication mode: face-to-face; e-mail; WeChat; QQ chat communication; online and offline combination;
Inclusive education for mental health	Extremely important;

We attribute the sources of stress of graduate students to three categories: research, employment, and life, and all six interviewees assessed themselves psychologically as healthy. We can see from the inclusive educational practices of the supervisor, the inner demands of graduate students, graduate students want to be evaluated objectively and fairly, and hope that the supervisor will tolerate their own mistakes in the process of doing experiments, so that they will reduce the sense of internal stress due to the fear of experimental failure, which contributes to psychological health.

Can you share one or two specific cases in which you had a positive experience with your mentor’s example of inclusive education? The six graduate students responded as follows: 1. After the experiment failed, the mentor helped to analyze the reasons from various aspects instead of simply criticizing; 2. The mentor was very outstanding in his own field, but when we encountered tiny problems with our experiments, he was still very active in discussing and solving the problems with us; in the daily experimental process, he Always remind us to put safety first. The teacher’s attitude makes me very positive about doing experiments; 3. When I can’t do experiments, the mentor will help me analyze the source of the problem and provide me with corresponding solutions; 4. When I encounter confusion, the mentor will enlighten me in time and encourage students to participate in sports; 5. The tutor guides me to take part in the competitions; 6. The mentor’s positive feedback gives me the motivation to write on!

From these concrete examples, we can see that a subtle gesture, attitude, expression of the supervisor, such as: enlightenment, analysis, encouragement, guidance, feedback, are all a ray of light on the path of the graduate students who are under great pressure to move forward.

We can see from the frequency of interaction between supervisors and students and the way of communication that the frequency of interaction between graduate students of science and technology is high and the way of communication is diversified, which is conducive to understanding the dynamics of the experiment and promoting the progress of the experiment. There are three main ways of communication: offline, online, online + offline.

When asked the question of how they perceive the role of inclusive education by supervisors in the mental health of masters/doctoral students, all six

interviewees agreed that it is very important and crucial. One of the students said that inclusive education by supervisors can relieve students’ stress, increase self-confidence, promote mental health and create a safe and supportive research environment.

Therefore, we believe that the hypothesis is valid and conclude that the inclusive education of supervisors for graduate students can help graduate students to maintain their psychological health, alleviate the pain caused by the great pressure of studying for graduate school and doctoral degree and promote their all-around development, so as to create a good mental support condition for the cultivation of high-quality talents.

Discussion

The present study confirms the finding of Busch, C.A et al: that emotional support given by mentors to students can alleviate students’ anxiety and depression symptoms. [2, p. 1749-1753] On the question of how mentors can better use inclusive education to promote the mental health of masters/doctoral students: three of them believed in communicating more and communicating at all times. One said: allowing mistakes and tolerating them. One believed in: being equal and fair to the students, individualized support, etc. One believed in the need to listen to and understand differences, respecting differences, and providing timely support. One thought: listening and understanding, respecting differences, timely support, encouraging expression.

From where the interviewees learned that the following attitudes or behaviors of the mentors contributed to a good mentor-student relationship: knowing how to respect students and being kind. The mentors listen patiently, respect differences, give timely feedback, encourage creativity, are open to communication, give understanding, trust and support. Listen carefully to students’ opinions and ideas. Respect students’ research choices, patiently answer questions, encourage exploration and innovation, and encourage experimentation. Make graduate students feel respected, understood and supported.

Six graduate students offered suggestions for inclusive education for masters/doctoral students mentors: mentors are able to maintain objectivity, respect, encouragement of students, and positive communication. Supervisors provide individualized emotional support to graduate students and use diverse assessment methods to fairly evaluate the learning outcomes of all students. Providing timely, specific, and positive feedback and encouragement helps master’s and doctoral students understand what needs to be improved in their experiments or dissertations, which reduces anxiety and helps to maintain mental health. An understanding and supportive mentor-student relationship reduces the psychological stress of graduate students and can reduce negative impacts on their psychological well-being, thus contributing to the development of their psychological well-being.

Mentor-inclusive education has a very important positive effect on the mental health of master’s and doctoral students, then we need to understand the dilemmas that graduate students face during their graduate studies and listen to

the voices of graduate students’ hearts. When considering the problems in the educational process of masters/doctoral students, four out of six master’s and doctoral students think that the graduation requirements are difficult and stressful, and two students think that the supervisors take too many students and do not provide enough guidance. They suggested that the graduation requirements should be adjusted appropriately by reducing the class time and increasing the time for doing research and experiments.

References

1. Booth, T. Keeping the future alive: Maintaining inclusive values in education and society. In M. Alur & V. Timmons (Eds.), Inclusive education across cultures: Crossing boundaries, sharing ideas. Los Angeles: -2009. p.121-134.

2. Busch, C.A., Wiesenthal, N.J., Gin, L.E. and Cooper, K.M.Behind the graduate mental health crisis in science. United States:Nature biotechnology.-2024.p.1749-1753.

3. Evans, T.M., Bira, L., Gastelum, J.B., Weiss, L.T. and Vanderford, N.L. Evidence for a mental health crisis in graduate education. United States: Nature biotechnology, -2018. p.282-284.

4. Kefallinou, A., Symeonidou, S. & Meijer, C.J.W. Understanding the value of inclusive education and its implementation: A review of the literature. Geneva : Prospects,-2020.p.135-152.

5. Lindsay, G. Inclusive education: a critical perspective. British: British journal of special education. -2003. p.3-12.

IKKINChI RENESSANS DAVRIDA MOVRAUNNAHRDA TA’LIM

Maxmudov T.I. Sam DU dosenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
Telegram: +998915328620

Kalit so‘zlar: Alloma,muddaris, xattot, madrasa, ta’lim, vaqfnoma, ilmu naqliya, ilmu aqliya, sadr, hadis, riyoziyot, handasa, ilmu nujum, Zij.

Annotasiya: Mazkur maqola ta’lim rivojining muhim davri hisoblangan Amir Temur va Temuriylar davri ta’lim tizimi va uning ahamiyatini ochib berishga bag‘ishlangan. Shunindek, maqolada madrasalarning ta’lim tizimida tutgan o‘rni, an’anaviy ta’limni ushbu davrda yuksalishi va amaliy ahamiyati masalasi tarixini yoritishga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Ma’lumki, Amir Temur uzoqni ko‘zlab, fan va madaniyatni rivojlantirish uchun ta’lim muassasalarni qurilishiga, fanni rivojlantirishga, savodli kishilarni ko‘paytirishga katta ahamiyat bergan. Shu sababli davlatlarga yurish qilganida u yerlardan yetuk mutaxassislarni (olim, arxitektor, shoir, xattot, muqovachi va h.)

o‘zi bilan Samarqandga olib kelgan. Tabiiyki, ijod qilish uchun ularga yaxshi sharoit yaratib bergan, chunki u birinchi o‘rinda turgan masala edi.

Ibn Arabshoh yozganidek: “Temur har bir foydali jonni yig‘ib, nimaiki narsa bo‘lsa, sarasini Samarqandga keltirdi. Natijada Samarqandda har bir ajib fan ahli namoyondasidan va san’atlarning g‘aroyib uslubidan fazilati peshonasida nishona bo‘lib, o‘z tengqurlaridan ustun turgan o‘z sohasida alloma kishilar yig‘ilgan edi.”[Ibn Arabshoh. 1992.II kitob. 87-bet]

Ta’limni rivojlantirish uchun birinchi o‘rinda oliy maktab, ya’ni madrasalar va ba’zi holatlarda xonaqohlar turgan edi. Amir Temur hayotligidayoq Samarqandda madrasalar qurila boshlangan. Bu xayrli an’anani uning avlodlari – Shohrux, Mirzo Ulug‘bek, Sulton Husayn Boyqaro, Badi’ az-Zamon va boshqalar davom ettirdi.

Aytish joizki, Mirzo Ulug‘bekning fan-ta’lim dasturi faqatgina Samarqand bilan cheklanib qolgan emas va unda butun Movarounnahr hududida ilmiy salohiyatni ko‘tarishdek katta g‘oya ko‘zda tutilgan edi. Ulug‘bek ana shu maqsadda 1417 yil Buxoroda, 1420 yilda Samarqandda va 1432-1433 yillarda G‘ijduvonda ham madrasalar qurdirgan.

Mirzo Ulug‘bekning Buxorodagi madrasasi. Ushbu madrasa Buxoroda 1417 yil qurilgan bo‘lib, uning me’mori Ismoil ibn Tohir ibn Mahmud Isfahoniydir*. Madrasa hajmi jihatidan kichik (tarhi 50x40 metr) bo‘lib, u go‘zal peshtoqi, hovlisida ikki qavatli hujralar, masjid, darsxona mavjud. Madrasa kirish – miyonxonasining ikkinchi qavatida kutubxona bo‘lgan. [Abramov M.M. 1991. S.24.] Hovli qismida minorali ikki peshtoq bo‘lgan. G.A. Pugachenkovaning ta’kidlashicha, ushbu madrasa qurilishi an’anaviy holatdan farq qilgan. B.Valixo‘jaevning ma’lumotiga ko‘ra, bu hol muhandislar sultoni Mavlono G‘iyosiddin Koshiy tomonidan belgilangan yangi nazariy ko‘rsatmaga asosan qurilgan.[Valixo‘jayev B. B.25.]

Odatda, madrasalar peshtoqiga, eshiklariga naqsh bilan ilm olishga chaqiruvchi Quroni Karim oyatlari yoki Hadisi Sharif da’vatlari bitilgan. Mirzo Ulug‘bekning Buxorodagi madrasasining kirish darvozasi o‘ng tabaqasining yuqorisida bitilgan mashhur hadis –”Bilim olish har bir muslim va muslima uchun farzdir” degan ilm-bilimga tashviq va targ‘ib etuvchi yozuv bitilganligi Mirzo Ulug‘bekning ta’lim tizimiga, uning o‘choqlaridan biri bo‘lmish madrasalarga alohida e’tibor qaratganidan dalolat beradi. V.V.Bartol’d xuddi shunday yozuv – hadisning Amir Temur tomonidan qurdirilgan Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasidagi (Turkistonda) katibalar ichida ham borligini eslatadi. [Bartold V.V. Soch. T. II. Ch. 2. S.125.] Shu mazmunga uyg‘un bo‘lgan ikkinchi yozuv – madrasa darvozasining bronza halqasida bitilgan quyidagi so‘zlar ham diqqatga sazovordir: “Kitobiy bilimga intiluvchilar uchun Alloh marhamatining eshigi hamisha ochiqdir”.

Mirzo Ulug‘bekning Buxorodagi madrasasidan boshqa madrasalarning kirish eshigidagi bunday hadis va yozuvlarning borligi haqida ma’lumotga ega emasmiz. Madrasaning vaqfnomasi hanuzgacha noma’lum. 1841-1842 yillarda rus sayyohi N.V.Xanikov Buxoroda bo‘lgan va o‘z ta’surotlarida yozishicha, shu

yillarda madrasa toliblari yiliga 3,5 tillo (stipendiya) olganlar.[Xanыkov N.V. S.86]

Hozirgi kunda madrasa saqlangan. Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi munosabati bilan 1993-1994 yillarda ta’mirlangan. Mazkur madrasining joylashgan o‘rni, hujralari, vaqf mablag‘lari haqidagi ma’lumotlar A.Jumanazar tadqiqotida ham keltirilgan.[Jumanazar A. B.579.]

Ulug‘bekning Samarqanddagi madrasasi alohida diqqatga sazovordir. Mirzo Ulug‘bekning Samarqandda qurdirgan madrasasi “madrasai oliya”deb atalgan.

U peshtoqidagi yozuvga qaraganda, 1417-1420 yillarda qurilgan. Madrasa ikki qavatli bo‘lib, burchaklaridagi darsxonalarning ustida to‘rtta gumbazi va to‘rt minorasi bo‘lgan. Madrasa peshtoqi yulduzlar bilan to‘la osmonni tasvir qiladi. Shubhasiz, bu hol madrasada o‘qitiladigan fanlar orasida astronomiyaga alohida ahamiyat va faxriy o‘rin berilganligini ko‘rsatadi.

Mirzo Ulug‘bek madrasasida mudarrislar tayyorlash masalasiga alohida ahamiyat berib, o‘z zamonasining eng ilg‘or olimlarini bu ishga jalb etgan. Madrasa ochilish kunida birinchi bo‘lib Mavlono Muhammad Havofiy va astronom Salohiddin Muso Qozizoda Rumiy kabi mashhur olimlar kirish ma’ruzasi o‘qiganlar. Qozizoda Rumiy g‘oyat yirik va atoqli olim bo‘lib, zamondoshlari unga “Aflotuni zamon” deb nom qo‘yganlar. Shuningdek, mashhur matematik va astronom G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Abduali ibn Muhammad Birjandiy, Ali Qushchi kabi olimlar ham Ulug‘bek rahbarligi ostida astronomiya sohasida samarali ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanganlar.

Mirzo Ulug‘bek davrida u asos solgan astronomiya maktabi hamda madrasasi qoshida o‘nlab alloma faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, Mavlono Xavofiy, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi va Mavlono Isomiddinlar oliygohning yorqin yulduzlari edilar. Bu davrda Fazlulloh Abulaysiy ham faoliyat ko‘rsatgan. Shoir Abdurahmon Jomiy esa Samarqandga nafaqat ilm olish uchun kelgan, balki Ulug‘bek madrasasida mudarrislik qilib, talabalarga ta’lim ham bera boshlagan. [Kattayev K. B.152.]

Mas’ud ibn Mahmud G‘iyosiddin Koshiy, ko‘proq G‘iyosiddin Koshiy Mahmud nomlari bilan mashhur, Ulug‘bek tomonidan asos solingan Samarqand maktabining ko‘zga ko‘ringan yirik namoyondalaridan biri edi. U asli Xurosonning o‘sha vaqtdagi mohir ustalari, matematiklari, tabiblari bilan shuhrat topgan Koshon shahridan bo‘lgan. G‘iyosiddin Koshiyning tug‘ilgan yili noma’lum. Hayotining ko‘p qismini Koshonda o‘tkazgan, matematika va astronomiyaga qiziqqan, Qadimgi Yunoniston, Eron va O‘rta Osiyolik mashhur olimlarning asarlarini tarjima qilib, izohlash bilan shug‘ullangan. Jumladan, Shohruhga bag‘ishlab “Ziji xoqoni dar takmili “Ziji Elxoni” (“Ziji Elxoniy”ni takomillashtirishda Xon Ziji”) nomli asar yozgan.

1416 yilda G‘iyosiddin Koshiy Ulug‘bekning taklifiga binoan Samarqandga kelgan. Bu erda u Qozizoda Rumiy bilan birgalikda Ulug‘bek madrasasi va rasadxonasi qurilishida faol qatnashadi. Madrasa qurib bitkazilgach, G‘iyosiddin Koshiy o‘z faoliyatini shu erda davom ettirdi. U ushbu madrasada

ilmi hay’at (astronomiya) va uning bilan bog‘liq bo‘lgan fanlardan dars bergan. G‘iyosiddin Koshiy 1430 yilda Samarqandda vafot etgan.

Salohiddin Muso ibn Muhammad ibn Mahmud Qozizoda Rumiy 1360 yil Marmar dengizidan janubroqda joylashgan Kichik Osiyoning Brussa shahrida tug‘ilgan. Shu erda ta’lim olgan va keyinroq esa aniq fanlarga ishtiyoqini uyg‘otgan Mulla Shamsiddin Fanoriydan matematika va astronomiyadan ta’lim olgan. Qozizoda Mulla Shamsiddin Fanoriydan Xuroson va Movarounnahrning matematik va astronomlarining dong‘i haqida eshitib, taxminan 20 yoshlarida vatanini butunlay tark etib, Sharqqa jo‘naydi. Qozizoda Rumiy Mirzo Ulug‘bek bilan qachon va qaerda birinchi marta uchrashganligi haqida manbalarda ma’lumot yo‘q. Ehtimol, Mirzo Ulug‘bek u bilan 1411 yil taxtga o‘tirishidan avval Xurosonda uchrashgan va shu erda undan ta’lim olgan.

Mirzo Ulug‘bek Movarounnahr humdori bo‘lganidan keyin, 1413 yilda Aflotuni zamon deb e’tirof etilgan Qozizoda Rumiyni Samarqandga taklif qiladi va u umrining oxirigacha shu erda yashab ijod qilgan. Qozizoda Rumiyning bevosita ishtirokida Ulug‘bek madrasasi va Ko‘hak tepaligidagi rasadxona qurila boshlandi. Qozizoda Rumiy Mirzo Ulug‘bekning “Zij”ini tuzishda ishtirok etgan va u 1437 yil Samarqandda vafot etdi. Bu vaqtda “Zij” ustidagi ishlar hali poyoniga etmagan edi. Qozizoda Rumiy Ulug‘bekning ustozi va o‘z davrining yirik olimi sifatida Samarqandda hurmatga sazovor bo‘lgan.

Qozizoda Rumiy Mirzo Ulug‘bek madrasasida dars berishdan tashqari, ilmiy ish bilan ham shug‘ullangan, rasadxonada kuzatishlar olib borgan. U astronomiya va matematika bo‘yicha bir qancha mashhur asarlar yaratdi. Ular orasida quyidagi ikki asar ayniqsa katta shuhrat qozondi: “Sharh ashkol at-ta’sis” (“Astronomiya xaqida qisqartma sharh”) - unda Rumiy samarqandlik olim Shamsiddin ibn Muhammad as-Samarqandiyning (XIII asr) geometrik risolasiga izohlar yozgan. Bu risola Movarounnahr madrasalarida geometriya bo‘yicha darslik vazifasini o‘tagan; ikkinchi asari esa “Sharh al-mulaxxas fi-l-xayl”(“Asoslangan takliflarga sharh”) deb nomlanib, bu asar xorazmlik olim Mahmud ibn Umar al-Chag‘miniy (1220 yilda vafot etgan) risolasiga yozilgan sharh hisoblanadi. Qozizoda Rumiyning ushbu asari asosida Ulug‘bek madrasasida astronomiyadan dars berilgan.

Shuni ta’kidlash joizki, Mavlono Qozizoda Rumiy yaratgan yuqoridagi asarlar faqat Mirzo Ulug‘bek madrasasida emas, balki Movarounnahr, Xuroson, Eron va Rumdagi madrasalarda ham darslik kitoblari sifatida o‘qitilgan, ularga turli sharhlar ham bitilgan. Qozizoda Rumiy Idiku Temur madrasasida Sayyid Sharif Jurjoniy bilan tanishadi. Xuddi shu yili Sayyid Sharif Jurjoniy Sherozga ketgandan keyin Samarqandning shuhratli allomasi sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Samarqandda Ulug‘bek madrasasi qurilgach, Qozizoda Rumiy uning bosh mudarrisi (ra’is al-muallimin) etib tayinlangan. Abdurahmon Jomiy 1436 yilda Samarqandga o‘qishga kelib, Mavlono Qozizoda Rumiy raisligidagi hay’atga imtihon topshiradi. Keyinchalik Mavlono Qozizoda Rumiydan dars olib, uning maqtovlariga sazovor bo‘lgan. [Afsahzod A. 1980. S.46-47.] Qozizoda Rumiy umrining oxirigacha mudarrislik vazifasini a’lo darajada bajargan.

Mirzo Ulug‘bek (1394-1449 yy.) asosan hay’at (astronomiya), riyoziyot (matematika) fanlaridan ma’ruzalar o‘qigan. Bu haqida G‘iyosiddin Jamshid Koshiyning Samarqanddan otasiga (Koshonga) yuborgan maktubida shunday yoziladi: “U kishi bu fan sohasida g‘oyat katta mahoratga erishgan. Yulduzshunoslikka taalluqli amallarni yaxshi bajaradilar va chuqur dalillar bilan xuddi kerakdek isbotlaydi. “Tazkira” va “Tuhfa” dan shu qadar zo‘r dars o‘tadilarki, ularga hech qanday qo‘shimcha qilishning hojati qolmaydi. Mirzo Ulug‘bek madrasa va saroyda bo‘lib o‘tgan katta majlislarda faol qatnashgan.

Mirzo Ulug‘bek mudarris sifatida ajoyib uslublardan foydalangan. Bu masala bo‘yicha G‘iyosiddin Jamshid Koshiy o‘z maktubida quyidagicha mulohazalarni bayon etgan: “Vaqti-vaqti bilan Mirzo Ulug‘bek va talabalar o‘rtasida shunday tortishuvlar kelib chiqardiki, uni tasvirlab bo‘lmaydi. Ular hatto ilmiy masala to‘la hal bo‘lmagunicha bitimga kelmaslikni va hamma narsa butunlay ravshan degan ko‘rinish yaratmaslikni buyurardi. Ba’zan birov Oliy hazratga nisbatan hurmat yuzasidan takliflarini ma’qullasa, ular norozi bo‘lib, “mening bilimsizligimni fosh qilmang” der edi. Ular ba’zan sinov uchun mulohazaga noto‘g‘ri masalani qo‘yadi. Biron kishi hurmat yuzasidan ularning fikrlariga qo‘shilgan zahoti, ushbu masalani takroran qo‘yardi va u kishini bilimsizlikda ayblab, sharmanda qilardi”.[Yusupova D. B.292.]

Mirzo Ulug‘bekning shaxsiy mudarrisligi madrasayi oliya uchun yetuk mudarrislarni tayyorlash, ular oldiga qo‘yiladigan talablar borasida qilgan amaliy ishlari nihoyatda muhimdir. U madrasa mudarrisligiga tanlagan tarixiy shaxslar, taniqli olimlar, sharq ilmi va madaniyatiga salmoqli hissa qo‘shgan shaxslardan iborat edi. Shunday bo‘lsada, madrasalarga mudarrislarni ishga qabul qilishdan oldin imtihon (attestasiya)dan o‘tkazilganlar va faqat munosib nomzodlarnigina xolisona tanlab olganlar. Bu ham o‘z navbatida, u davrda ta’lim tizimi, tolibi ilmlarga ta’lim va tarbiya berishga qanchalik katta e’tibor bilan qaralganidan guvohlik beradi.[Valixo‘jayev B. B.43.]

Davlatshoh Samarqandiyning 1487 yil yozilgan “Tazkirat ash-shuaro” asarida ma’lumot keltirilishicha, bu davrda Mirzo Ulug‘bek madrasasida 100 dan ortiq toliblar o‘qishni davom ettirgan. Bu toliblarga Xoja Fazlulloh Abulaysiy, Ali Qushchi va Mavlono Xoja Xurdlar mudarrislik qilganlar. Jumladan, Mir Alisher Navoiy Samarqandda bo‘lib, madrasada ta’lim olgan 1465-1469 yillar davomida Mirzo Ulug‘bek madrasasining yuqorida nomlari keltirilgan mudarrislaridan ta’lim oladi. Bu haqida Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” asarida shunday yozadi: “Xoja Xurd – Samarqand taxtining yakkalama qozisi va Ulug‘bek madrasasining mudarrisidur”. [Alisher Navoiy. B.182.]

XVII asr oxirlari va XVIII asrning boshlaridagi madrasa faoliyati haqida manbalarda hech qanday ma’lumot yo‘q. XVIII asr oxirlari va XIX asr boshlarida amir Shohmurod madrasaning faoliyat boshlashiga sharoit yaratgan va madrasa 1917-1918 yillargacha ham o‘z faoliyatini davom ettirgan. 1906 yilda unda 60 ta tolib va 2 ta mudarris bo‘lgan. Hozirgi kunda Mirzo Ulug‘bek madrasasi Samarqand Registon maydonining azamatli obidasiga aylanib qoldi.

Madrasada o‘qish arab tilida olib borilgan. Shuning uchun arab tilining morfologiyasi va sintaksisi chuqur va ko‘proq o‘qitilgan. O‘qitiladigan hamma asarlar yoki ularning sharhlari arab tilida bitilgan edi. Shuning uchun talabalardan arab tilini mukammal bilish jiddiy talab etilgan. Bu esa mudarrislardan ham, talabadan ham katta mas’uliyat talab etgan.

Qoida bo‘yicha madrasada o‘qish kunlari haftaning to‘rt kuni – shanba, yakshanba, dushanba, seshanba; ikki kuni -chorshanba, payshanba dars tayyorlash kunlari; juma esa-dam olish kuni hisoblangan. O‘qish bir yilda olti oy davom etgan. Aslida, o‘quv yili mezon oyining birinchi kuni (22 sentyabr) da boshlanib, hamal oyining birinchi kuni (21 mart) tugagan. Qolgan hamal, savr, javzo, saraton, asad, sunbula oylari ta’til oylari bo‘lib, talabalar tirikchilik (hunarmandchilik, dehqonchilik, masjidlarda imomlik va h.) bilan band edi. Ba’zilari esa madrasalarda qolib, o‘qishni mustaqil tarzda davom ettirgan. Ulug‘bek madrasasida o‘quv muddati rasman 8 yilga mo‘ljallangan. Shunga binoan o‘quv rejasi ishlab chiqilgan. Lekin, Ulug‘bek madrasasida o‘qib, ijozatnoma olish muddati o‘n olti yil ham bo‘lganligi haqida Shamsiddin Muhammad al-Balxiyning sanad (shahodatnoma)si dalolat beradi.

Madrasada, asosan, o‘rganilayotgan fanlar tarkibida ulumi naqliya (Qur’on, hadis, fiqh, tasavvuf) va u bilan bog‘liq ilohiy ilmlardan tashqari dunyoviy fanlar chuqur o‘rganilar edi: tarix, adabiyot, falsafa, jug‘rofiya, aniq fanlar, tibbiyot, xattotlik san’ati, she’riyat va h. bo‘lgan.

Madrasani bitirgan talabalarga ijozatnoma (diplom) berilar edi. Bu ijozatnoma talabalarga dars o‘tish, ya’ni mudarrislik qilishni anglatar edi. Ijozatnomada talaba tomonidan o‘zlashtirgan ilm (sohasi) va o‘rgangan asarlar nomi yozilgan bo‘lar edi.

Talabalar ichida o‘z qobiliyati va iste’dodi bilan alohida ajralib turgan talabaga madrasada dars o‘tishga ijozatnomalar taqdim etilib, shu madrasaning o‘zida mudarris sifatida olib qolganlar. Masalan, Mirzo Ulug‘bek madrasasida Ali Qushchi va Abdurahmon Jomiylar mudarris sifatida faoliyat yuritdi.

Shunday ijozatnomalardan biri, aniqrog‘i Ulug‘bek madrasasining bosh mudarrisi Salohiddin Muso Qozizoda Rumiy tomonidan 1435 yil berilgan ijozatnoma O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik Institutining qo‘lyozma fondida saqlanib kelmoqda. Akademik B.A.Ahmedov o‘zining “Ulug‘bek” nomli risolasida uning o‘zbekcha tarjimasini keltirgan. U quyidagicha: “…Shamsiddin Muhammad al-Balxiy ilm tahsil qilish uchun vatanidan uzoq yerlarga safar qilishni ixtiyor qildi. Musofirlikning og‘ir zahmatlariga chidadi… U Samarqandda o‘n olti yil chamasi istiqomat qildi. Uning talab vodiysida ilmning tiniq suviga tashnaligi kun sari ortib turdi. Idrokli va ziyrak bo‘lganligi uchun darslarni tez tushunar edi. Dars vaqtlarida Abu Bakr Urmaviyning “Lavom al-asror min matole’ al-anvor” kitobining yashirin sirlarini tushundi. “Badoye’ al-ibkor min tavole’ al-afkor” asarining pardalari nuqtalarini ochdi. Shuningdek, “Talvihot al-tavzeh” kitobi uning e’tiborini tortdi. «Minhoj al-vusul ilo al-usul»ni tinmayin mutolaa qildi. Nihoyatda tortilib va harakat qilib “Ihkom al-ahkom muntaxab muntahil amal va-s-suol” kitoblariga ham yetishdi.

“Mafoteh abvob al-adab”ni tahsil qildi. “Kashshof” va uning ishonchli sharhlaridagi chiroyli iboralarning yuzlaridan parda ochdi.

“Qur’on” oyatlari dengizidan durlar olib chiqdi. Undan tashqari “Mavokiy al-kalom” sahifalaridagi latif so‘zlar hamda maqsadlaridan voqif bo‘ldi. “Hidoya” dalillariga erishdi. She’riy masalalarni bilish uchun “Nihoya” (“Hidoya” sharhi)ga to‘g‘ri yo‘l topdi. Ushbu darajaga yetgach, yurtdoshlarini o‘z ilmidan naf’lantirish uchun vataniga qaytmoqchi bo‘ldi. Mendan oliy sanad bilan ijozat berishimni iltimos qildi. Men uni iltimosini qabul qildim…

Qozizoda Rumiy nomi bilan mashhur bo‘lgan faqir ul-xaqir Muso ibn Muhammad ibn Mahmud 838 yil rajab oyining o‘rtalari (1435 yil fevral oyining o‘rtalari)».

XV asr Movarounnahr va Xuroson madrasalarida o‘qish muddati rasman 8 yil bo‘lgan. Agar talaba shu 8 yil ichida dastur talablarini bajara olmasa, belgilangan vazifa (stipendiya) to‘xtatilgan va talaba belgilangan imtiyozlardan mahrum bo‘lgan.

Ko‘rinib turibdiki, madrasadagi tartib-intizom, talabalarning darsga qatnashi qattiq nazorat ostida bo‘lgan, darsga qatnashmaganlarga vazifa berish to‘xtatilgan. Agar talaba uch marta sababsiz darsni qoldirsa, madrasadan chiqarilgan, uning o‘rniga munosib talaba qabul qilingan.

Darhaqiqat, o‘rta asrlarda madrasalar ilm-u urfon va ziyo tarqatish maskanlari bo‘lgan. Hozirgi kunda yurtimizdagi universitet va institutlar yuqoridagi madrasalarning vorislari sifatida xizmat qilmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur. 1992.II kitob. 87-bet.
2. Abramov M.M. Ulugbek i blagoustroystvo gorodov Uzbekistana. Samarkand.1991. S.24.
3. Valixo‘jayev B. Mirzo Ulug‘bek davri madrasalari. B.25.
4. Bartold V.V. Ulugbek i yego vremya. Soch. T. II. Ch. 2. S.125. prim. 33.
5. Хаnыkov N.V.. Opisaniye Buxarskogo xanstva. S.86.
6. Jumanazar A. Buxoro ta’lim tizimi tarixi. – B.579.
7. Kattayev K. Samarqandnoma. B.152.
8. Afsahzod A. Ro‘zgor va osori Abduraxmoni Jomi. Dushanbe. 1980. S.46-47.
9. Yusupova D. G‘iyosiddin Koshiyning Samarqanddan Koshonga, otasiga yozgan maktubi. B.292.
10. Valixo‘jayev B. Mirzo Ulug‘bek davri madrasalari. B.43.
11. Alisher Navoiy. Majolis an-nafois. B.182.

TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QOBILIYATLARINING O‘RNI

F.M.Murodov
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqola ta’lim samaradorligini oshirishda o‘qituvchining pedagogik-psixologik qobiliyatlarining o‘rniga qaratilgan bo‘lib, o‘z navbatida oila eng muhim ijtimoiy vazifalarini: insonni yaratish, bolalarni tarbiyalash, odamlarni jismoniy va ma’naviy jihatdan kamol toptirish, ularni ma’naviy birlashtirish, birgalikda xo‘jalik yuritishni ta’minlash, o‘zaro yordam ko‘rsatish, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlash demografiya jarayonlarini yaxshilash vazifalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yosh avlod, barkamol etib voyaga yetkazish, shaxslararo munosabatlar, **bolalaridagi inqoroz,** oilada nizoli vaziyatlar, mustahkam oila, oila g‘amxo‘rligi, oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari, oilaviy munosabat, mamlakat va millat, oila huquqi normalari, ma’naviy tarbiyalash, shaxsiy tavsifga ega bo‘lish.

Mavzusining dolzarbligi. Jahon ta’lim tizimi jarayonida o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning o‘zaro munosabatini ongli ravishda tashkil etish, o‘quvchilarni mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatish kasbiy tayyorlash muhitini takomillashishi va yuksalishiga olib keladi. Chunki ilk o‘spirinlik eng murakkab hamda psixologik inqirozlar bilan uyg‘unlashib ketgan, ruhiy quvvati yuqori, shijoatli, yangilikka chanqoq, olamni o‘zlashtirishga intiluvchan, mustaqillikka moyil, egiluvchan, xulq-atvorida ijtimoiy me’yorlarning shakllanishi jadal suroat bilan kechadigan davr bo‘lib hisoblanadi.

Jahonda uzluksiz ta’lim tizimidagi o‘qituvchi bilan o‘quvchilar munosabatida innovatsion yondoshuv asosida o‘qitish jarayonini tashkil etilishi, pedagog va o‘quvchilarning psixologik qiyofasini tasniflash, ularning munosabat-laridagi psixologik muammolar, turli vaziyatlar (ham hayotiy, ham shaxsiy pozitsiya)ga ularning tayyorgarligi, bir-birlarini shaxs sifatida qabul qilishi, o‘qituvchining o‘zaro munosabatlardagi kasbiy bilimdonligi, o‘z mavqei, axborotlar tizimini qabul etishdagi ham individual, ham guruhiy yondashuvlari, o‘qitish jarayonidagi pedagog mahorati tadqiqotning bosh maqsadi sifatida gavdalanadi.

O‘zbekiston hukumati tomonidan mamlakatimizda yashayotgan barcha fuqarolarni ma’naviy jihatdan mukammal rivojlangan shaxs sifatida shakllantirish, ta’lim tizimini yuksaltirishdek ustuvor vazifalarni amalga oshirishga alohida e’tibor berildi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “Hayotimizni hal etuvchi muhim masalalar qatorida… buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim va tarbiya tizimini takomillashtirish, uning zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmalari

darajasiga chiqarish, barkamol avlodni tarbiyalash zarur”[1]. Ushbu mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning yaratuvchisi sifatida shakllanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishi, shaxs sifatida kamol topishiga tayyorlab borish masalasi asosiy muammolar tariqasida ta’lim jarayonida ko‘ndalang bo‘lib turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g‘risida»gi, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g‘risida»gi, 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida»gi, 2020 yil 29 oktabrdagi PF-6097-son «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g‘risida»gi Farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g‘risida»gi qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy-tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston psixologlari tadqiqotlarida o‘qituvchi kasbi masalasi. O‘qituvchi kadrlar kasbiy sifatalrining muhim jihatlarini o‘rganish va uni ilmiy jihatdan asoslash mustaqillik yillarida pedagogika fanlarining ham ustuvor vazifasiga aylandi. Jumladan, keyingi yillarda mazkur muammo bo‘yicha B.N.Sirliev, Yu.M.Asadov, Sh.G‘.Saparov, D.N.Arziqulov, S.Lashin, M.Yu.Maxkamova, N.D.Maxmudova, G.I. Maxmutova, G.N.Najmiddinova, R.U.Nurjonova, D.Sh.Olimova, M.Ochilov, B.X.Raximov, R.G‘.Safarova, M.Quronov, N.M.O‘rinova, S.Usmonov, T.G‘afforova, O.Q.Haydarovalarning amalga oshirgan tajribalari e’tiborga loyiqdir. O‘qituvchilar kasbiy muhim sifatlarining turli psixologik jabhalarini o‘rganish keyingi yillarda psixologiya ham fanining keng tadqiqot ob’ektiga aylanib bormoqda. Bu sohada M.G.Davletshin, E.G‘.G‘oziev, V.M. Karimova, G‘.B.Shoumarov, R.Z.Gaynutdinov, A.M.Jabborov, V.A.Tokareva, Sh.R.Barotov, R.I.Sunnatova, G.Berdiev, B.T.Gapparov, S.X.Djalilova, M.Qoplonova, M.M.Mavlanov, N.M.Majidov, A.M.Mashkurov, N.H.Muratalieva, X.A.Ruxieva, Sh.A.Eshmetov, E.A.Xidirov va boshqalar tomonidan olib borilayotgan psixologik tadqiqotlar diqqatga sazovordir.

Xorij psixologlari A.Bandura, R.Uolters, M.Talen, K.Rodjers, A.Maslou, Gizela Leybouvi-Vif, Salomon Ash, M.Vudstok, D.Frensis, P.Lipman o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, o‘qituvchining professional pozitsiyasi, O‘qituvchining kasbiy muhim sifatlari va pedagogik faoliyatini tashkil etish masalalari, o‘ziga-o‘zi baho berish, hamkorlik faoliyati, o‘qituvchi shaxsining kasbiy muhim sifatlarining psixologik asoslari va bu jarayonga ta’sir etadigan

[1] Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T: Sharq, 1997, B-4-5.

ijtimoiy-madaniy, milliy-hududiy va pedagogik-psixologik omillarning ahamiyatiga doir qimmatli ilmiy natijalar qayd etganligini qayd etish lozim.

Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi mamlakatlari olimlaridan S.L.Rubinshteyn, V.M.Myasishchev, V.A.Slastenin, V.P.Kashirin, B.G.Ananev, N.F.Talizina, Ye.A.Klimov, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, L.M.Mitina, N.D.Levitov, V.A.Kruteskiy professional pedagogik shakllanishi, pedagoglarni kasbiy tayyorlashda o‘z kasbiga ijobiy munosabat, shaxsning o‘zini namoyon etishi, oliy ta’lim muassasalarida kasbiy tayyorgarlik jarayonining muammolari, chiqqan pedagogik qobiliyatlar konsepsiyasi, o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlari, o‘qituvchining pedagogik qobiliyatlari kabi masalalar borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishnaligini va samarali natijalarga erishganligini ta’kidlash joiz.

Tadqiqot ishning maqsadi ta’lim samaradorligini oshirishda o‘qituvchining pedagogik qobiliyatlarini ahamiyatini o‘rganish va tadqiq qilish asosida tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot ishining vazifalari:

ta’lim samaradorligini oshirishda o‘qituvchilar kommunikativ imkoniyatlarini va qobiliyatlarini aniqlash;

ta’lim samaradorligini ishirishda o‘qituvchilarning pedagogik faoliyat motivatsiyasini tadqiq qilish;

ta’lim samaradorligini oshirishda o‘qituvchining mahorati va qobiliyatini ta’sirini o‘rganish;

ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha pedagog xodimlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob’ektini ta’lim samaradorligini oshirishda o‘qituvchining pedagogik qobiliyatlarini ahamiyatini o‘rganish jarayoni bo‘lib, tadqiqotga Samardand shahri va Navoiy shahri umumta’lim maktab o‘qituvchilari respondent sifatida tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini ta’lim samaradorligini oshirishda o‘qituvchining pedagogik qobiliyatlarini namoyon bo‘lishi va ahamiyati tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida suhbat, anketa, kuzatish metodlaridan, shuningdek, «O‘qituvchilar kommunikativ imkoniyatlari va qobiliyatlarini aniqlash» testi (Ryaxovskiy testi), «Pedagogik faoliyat motivatsiyasini aniqlash» testi (Orlov testi), «O‘qituvchining mahorati va qobiliyatini aniqlash» metodikasi, «O‘qituvchilarning ish faoliyati psixodiagnostikasi» metodikasi hamda tadqiqot natijalari bo‘yicha olingan ma’lumotlarni qayta ishlashning matematik-statistik metodlaridan (Styudentning-t mezoni hamda K.Pirsonning r–korrelyatsiya koeffitsiyenti) foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari ta’lim samaradorligini oshirishda o‘qituvchilarning kommunikativ imkoniyatlari va qobiliyatlarini shakllanganlik darajasining ahamiyati haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi. Tadqiqot natijalari asosida o‘qituvchilarning mahorati va qobiliyatlarni hamda pedagogik faoliyat motivatsiyasining psixologik mohiyatini chuqurroq anglay olish imkoniyati namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiq etilgan

adabiyotlar va o‘tkazilgan tadqiqotdan olingan ilmiy natijalar pedagogik psixologiya, psixologik xizmat, psixodiagnostika, tafakkur psixologiyasi, taraqqiyot psixologiyasi fanlaridan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, nazariy izlanishlar natijasida ishlab chiqilgan empirik tadqiqot dasturi, uning asosida shakllantirilgan va o‘tkazilgan so‘rovnoma, test natijalari ta’lim samaradorligini oshirishda pedagogik qobiliyatlarning shakllanganligi va uning ta’lim sifatida tutgan ahamiyatini, zqituvchi-o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarni shakllantirishga imkon beradi. Izlanish natijalari ta’lim samaradorligini oshirish va ta’lim sifatini takomilashtirishga xizmat qiladi.

Buyuk kelajak bugundan boshlanadi avlodlar esa hozirgi yosh bolalardan boshlanadi. Ularni tarbiyalab voyaga yetkazish qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirishda tarbiya muassasalari mahalla va oila ma’suldir. Yurtimizda yosh avlod kamolotiga katta e’tibor tufayli qobiliyatli va ijodkor o‘quvchilar safi kengaymoqda . O‘quv, mehnat odamlarning va ijodiy faoliyatidagi o‘ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va qiziqishlar masalasiga murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o‘sha insonning o‘zi ham qilgan har bir harakatidan o‘zi uchun naf ko‘radi. Qobiliyatlar odamning shunday psixologik xususiyatlardirki, bilim, ko‘nikma, malaka shu xususiyatlarga bog‘liq bo‘ladi, lekin bu xususiyatlarining o‘zi bu bilim va ko‘nikmalarga taalluqli bo‘lmaydi. Qobiliyatlar sifat va miqdor jihatidan ko‘p bo‘lishi mumkin. O‘quvchining qobiliyatlari nimaga namoyon bo‘lishini va binobarin, o‘quvchishaxsini qanday individual-psixologik xususiyatlari faoliyat tomonidan qo‘yilgan talablarni qay darajada, bajarish qobiliyatiga ega ekanligi, ya’ni o‘quvchining boshqalarga nisbatan malaka va bilimlarning qanchalik tez, yengil va mustahkam egallay olishini bilish pedagog uchun muhimdir.

Qobiliyat xususiyatlarining sifat tomonidan qaralishi-maqsadga har turli yo‘llar bilan borishga imkon beruvchi «o‘zgaruvchan miqdor» to‘plami sifatida faoliyat muvaffaqiyatini taminlovchi inson psixologik xususiyatlarini murakkab yigindisi sifatida ko‘rinadi. Bir xususiyatlarni o‘rnini ikkinchi bir xususiyatlar bilan bosishning keng imkoniyatlari bor, buni odam o‘zida chidam va qat’iylik bilan ishlash orqali rivojlantirish mumkin. Pedagog va psixolog Skolovyanskiy ko‘r-kar Olga Skoroxodovada faqat ilmiy xodimlik qobiliyati emas, balki adabiy qobiliyat ham namoyon bo‘lishiga erishgan. Bir qobiliyatni boshqa bir qobiliyat bilan boshqarish yordami bilan to‘ldirish xususiyati har bir odam oldida tanlash va uni takomillashtirishning nihoyatda keng imkoniyatlarini ochib beradi.

F.A.Gallning fikricha odamning hamma qobiliyatlari «aql» va «qobiliyat» sifatlari miya yarim sharlarida o‘zining maxsus qat’iy markazlari mavjud ekan, ya’ni bu sifatlarning taraqqiyot darajasi miya tegishli kismlarining miqdoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Shuning uchun odamning «kalla suyagiga bir qarash yoki boshidagi do‘mboqchalarini shunchaki paypaslab ko‘rish orqali ko‘p odamning qobiliyatlarini aniqlasa bo‘ladi. Nazariy va amaliy qobiliyatlar ham

inson qobiliyatlaridan bo‘lib, nazariy qobiliyatlar-ma’lum, mantiqiy qobiliyatlar esa amaliy harakatlarga moyillikda namoyon bo‘ladi.

O‘quv qobiliyatlari bilim, ko‘nikma va malakalarni izlashtirish shaxs sifatlarining shakllanishi, pedagogik ta’sirlar samaradorligining ortishida ijobiy rol o‘ynaydi. Ijobiy qobiliyatlar moddiy va ma’naviy madaniyat asarlari yaratish yangi goya, kashfiyot va yangiliklar yechishda namoyon bo‘ladi.

L.S.Vigotskiy o‘zining kelajak taraqqiy zonasini belgilash «metodi» deb ataladigan usulini taklif qildi. Qobiliyatlar odamning aniq faoliyatidan tashqarida mavjud bo‘lmaydi. Qobiliyatlarning tarkib topishi esa ta’lim va tarbiya jarayonida bolaning yutuqlari tezligida namoyon qilishdir.

Maxsus qobiliyatlar esa ma’lum bir sohada yutuqlarga erishish, yuqori ko‘rsatgichlar berishga imkon beruvchi sifatlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, sport sohasi bilan buxgalterlik hisob-kitobi bo‘yicha ishlayotgan ikki kishida o‘ziga xos maxsus qobiliyatlar bo‘lmasa bo‘lmaydi. Har bir qobiliyat o‘zining tizimiga ega. Masalan, matematik qobiliyatni oladigan bo‘lsak, uning tarkibiga umumlashtirish malakalari, aqliy jarayonlarning egiluvchanligi, mavhum tafakkur qila olish kabi qator xususiyatlar kiradi. Adabiy qobiliyatlarga ulardan farqli, ijodiy hayol va tafakkur, xotiradagi yorqin va ko‘rgazmali obrazlar, estetik xislar, tilni mukammal bilishga layoqat; pedagogik qobiliyatlarga esa — pedagogik odob, kuzatuvchanlik, bolalarni sevish, bilimlarni o‘zgalarga berishga ehtiyoj kabi qator individual xossalar kiradi. Xuddi shunga o‘xshash qolgan barcha qobiliyatlarni ham zarur sifatlar tizimida tahlil qilish mumkin va bu katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘ladi. Psixologik intellekt testlari o‘quvchining u yoki bu fandan bilimini emas, umumiy aqliy qobiliyati va o‘zi tanlagan soha bilan shug‘ullana olish layoqati, imkoniyatini aniqlab beradi.

O‘quvchi umumiy o‘rta ta’lim fani bo‘yicha imtihonda «besh» baho olsayu, shu soha bo‘yicha intellektual yoki ijodiy qobiliyati bo‘lmasa, uning keyingi faoliyati unumdorligi past bo‘ladi. Oxir oqibatda bunday kishi tanlagan sohasidan bezibgina qolmay, jamiyat uchun ham hech qanday foyda keltirmaydi. Yana shuni qayd etish lozimki, iqtidorlilikni faqat shaxsning aqliy imkoniyati sifatida tasniflash uni tadqiq etishda bir tomonlamalikka olib keladi. Chunki iqtidorlilik nafaqat aql, balki shaxs tuzulmasining barcha komponentlarining uyg‘un va yuqori darajada rivojlanganligi bilan izohlanadi. Demak, iqtidor faqat aqlga emas, balki shaxsga tegishli. Iqtidorli kishi deganda biz har tomonlama rivojlangan shaxsni nazarda tutamiz. Kimdir o‘z qobiliyati bilan, boshqa birov o‘z xarakteri va tashqi olamni o‘ziga xos idrok etishi bilan iqtidorli bo‘lishi mumkin. Ayrim holatlarda biz o‘z tengdoshlaridan rivojlanishda o‘zib ketgan bolalarni iqtidorli deymiz.

To‘g‘ri, bunday bolalar qobiliyatli, lekin shunday bolalar ham borki, ular noandoza fikrlashi, voqea va hodisalarni g‘ayrioddiy talqin etishi bilan iqtidorli hisoblanadi. Bunday bolalar ko‘pincha tarbiyachilar, o‘qituvchi va ota-onalar uchun «qiyin» va ularni tarbiyalash ham og‘ir kechadi. Ayniqsa o‘qituvchilar bunday bolalar hatti-harakatini baholashda, uning boshqa bolalarga o‘xshamaydigan g‘ayrioddiy harakatlarini qabul qilishda qiynalishadi. Yosh

davrlari davomida shaxs rivojlanishi bilan iqtidorning rivojlanishi uyg‘un kechishini ta’lim va tarbiyada albatta inobatga olish lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiya kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda qilgan maruza. T., Xalq so‘zi, 2020 yil dekabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Yoshlar forumidagi va ma’naviyat haqida” nutqidan 25 dekabr 2020 yil, 18:00 Siyosat.
3. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: Adolat. 1998. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 yil, №5-6, ilova.
4. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: Rasmiy nashr. 2003. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 yil, №2-ilova; 1996 yil, 11-12-son.
5. Mualliflar jamoasi. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharxlar. – T.: Adolat. 2000. – 446 b.
6. Nechayeva A.M. Semeynoye pravo. Kurs leksiy. – M.: Yurist. 1998. – 336s.
7. Otaxo‘jayev F.M. Oila huquqi. – T.: TDYuI. 2005. – 280 b.
8. Rustamova A., Fozilova B. Oilashunoslik. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. Buxoro “BPK” 2005 y., 80-85 b.
9. Andreyeva G. M. Sosialnaya psixologiya: Ucheb. dlya vuzov. M.: Aspekt Press, 2000. - 376 s.
10. A.N.Volkova. Metodicheskiye priyemы diagnostiki suprujeskix otnoshenii.M Rech 2005 g.

Internet saytlari:

11. https://www.gazeta.uz/uz/2020/12/25/forum/
12. https://president.uz/uz/lists/view/4057
13. https://yuz.uz/news/shavkat-mirziyoev-yoshlar-kelajagi-bilan-bogliq-har-qanday-vazifa-birlamchi-ahamiyatga-ega

SHARQNING BUYUK ALLOMALARI ASARLARIDA OILA BARQARORLIGINI TA’MINLASHDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK QARASHLAR

Mamatova Nazira Djurakulovna
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
“Amaliy psixologiya” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sharq mutafakkirlari asarlarida oila barqarorligini ta’minlashning ijtimoiy-psixologik talqini, oila mustahkamligini ta’minlashda ijtimoiy psixologik sabablar, oilada barkamol yoshlarni tarbiyalashda ijtimoiy-madaniy va milliy-psixologik omillarning tarbiyaviy ta’siri haqida fikr bildirilgan.*

Tayanch so‘zlar: *ibrat, pand nasihat, oqila, orasta, tejamkor, saranjom-sarishta, uyatli, andishali, pokiza, bola tarbiyasi, psixika, aqliy taraqqiyot, o‘z-o‘zini anglash, turmush tarzi, salbiy o‘zgarishlar, etnopsixologiya.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается социально-психологическая трактовка обеспечения стабильности семьи в трудах восточных мыслителей, социально-психологические причины обеспечения стабильности семьи, воспитательное влияние социокультурных и национально-психологических факторов на воспитание всесторонне развитой молодежи в выражена семья.*

Ключевые слова: *пример, наставление, умный, средний, бережливый, организованный, застенчивый, вдумчивый, чистоплотный, воспитание ребенка, психика, умственное развитие, самосознание, образ жизни, негативные изменения, этнопсихология.*

Abstract: *In this article, the socio-psychological interpretation of ensuring family stability in the works of eastern thinkers, social psychological reasons for ensuring family stability, the educational influence of socio-cultural and national-psychological factors in raising well-rounded young people in the family is expressed.*

Key words: *example, admonition, smart, average, thrifty, tidy, shy, anxious, clean, child education, psyche, mental development, self-awareness, lifestyle, negative changes, ethnopsychology.*

